

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PeDAGOGIKA INSTITUTI

MADANIYATSHUNOSLIK

Fanidan

(ma`razular matni)



Нукус - 2011 йил

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Madaniyatshunoslik predmeti.....	9
3. Madaniyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.....	15
4. Madaniy va ma`rifiy meros.....	20
5. Arxaik (ibtidoiy) madaniyat.....	27
6. Sharq uyg`onish davrining o`ziga xos xususiyatlari.....	34
7. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati.....	40
8. O`rta asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati.....	46
9. Temur va Temuriylar davri madaniyati.....	54
10. XVII-XX asrlarda O`zbekiston madaniy taraqqiyoti.....	57
11. Milliy istiqlol g`oyasi va O`zbekistonda madaniy taraqqiyot.....	60

KIRISH

Mazkur fan jahon madaniyati va tsivilizatsiyasi, milliy madaniyat, ma`naviy-ma`rifiy qadriyatlar haqida keng yoritilishini o`z oldiga maqsad qilib olgan. Bu o`z navbatida va demokratik huquqiy, insonparvar jamiyatni barpo etishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Har bir talabadan madaniyat tushunchasi, uning rivojlanishining asosiy qonuniyatlari, jahon madaniyatining nazariy muammolari, mustaqillik sharoitida o`zbek madaniyati rivojlanishining nazariy asoslari to`g`risida ob`ektiv bilim salohiyatini shakllantirish bosqichma-bosqich vazifalaridir.

1-Mavzu; Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari.

reja

1. Madaniyatshunoslikning predmeti. Madaniyatshunoslik bilimlari tipologiyasi
2. Madaniyat tushunchasi talqinida tarixiylik va ilmiylik.
3. Madaniyatshunoslik fanining o`qitilishi.

Mavzuga doir tayanch so`zlar va iboralar.

Madaniyatshunoslik, madaniyat, madaniyat falsafasi, madaniyatsotsiologiyasi, madaniyat psixologiyasi, madaniyatshunoslik metodi, madaniyatshunoslik manba`lari.

1,1. Madaniyatshunoslikning predmeti. Madaniyatshunoslik bilimlari tipologiyasi. Madaniyatshunoslik-madaniyat rivojlanishining eng muhim qonunlarini o`rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir.

Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning tabiat jamiat bilan birgalikda faolyatini hamda kishilarning ma`naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Shuning uchun uning tadqiqot manbai bo`lib, quyidagi sohalarni o`z ichiga oladi. Ya`ni:

- Inson yaratgan san`at sohasi.
- Kishilarning muomala vositasi bo`lgan til.
- Jamiyat boyligi va mezon bo`lmish bilim.
- Jamiyatda sodir bo`luvchi demografik va etnik jarayolar xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan bo`lib, unga xos bo`lgan xususiyat-insonning madaniy hayot xodisasini tartib tizimiga solib yondashishi hisoblanadi. Shuningdek madaniyat gumanitar bilimlarni o`ziga mujassam qilgan holda namoyon bo`lishi bilan birga bilishning o`ta murakkab ob`ekti hamdir.

«Madaniyat» bu insonlarning ijodiy faoliyat jarayonida yaratgan moddiy va ma`naviy sohalaridagi yutuqlar majmui bo`lib, kundalik tajriba va muomala va munosabatlarning shakllanishi; shuningdek madaniyat ma`lum bir jamiyat uchun xizmat qiluvchi bilimlarning aniq bir darajasi hamdir. Madaniyatni o`rganishda obe`ktiv qonunlarning va sabab xodisalaridagi bog`liklik haqidagi an`anviy bir xil tasvirdan foydalanmaslik ham mumkun. Madaniyatni tartibli tadqiq qilish kutilgan va favqulotda jarayonlar haqidagi tasavvurlardan foydalanishni taqozo qiladi. Sistemali yondashuv bir-biriga ta`sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o`ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo`lib emas, balki madaniyatni butunicha tasavvur qilish imkonini beradi. Sistemali yondoshuv tadqiqotning juda ko`p uslublaridan foydalanishga imkon beradi. Ya`ni ba`zi bir usullar bilan olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo`ymasdan muloqotlashtirmasdan xulosa qiladi.

Aynan sistemali yondoshuv madaniyatni o`zini ham xuddi o`ziga xos shaklda va kishilar hayot faoliyati sohalarini ham tushunish imkonini beradi. Bulardan madaniyat sohalarini, madaniyat institutlari tashkil topib, ular aniq tuzilmaga va aniq

vazifalarga ega bo'lgan holda madaniy namunalarni tashkil qilib madaniyat tizimini belgilaydi.

Madaniyatshunoslik faninig quyidagi bilimlari mavjud;

1. ***Madaniyat falsafasi***-Madaniyatdagi murakkab va ko'p maqsadli jarayonlarni tahlil qilishda yondashuvning eng muhim tamoyillarini namayon qilib qiyosiy tahlil, tasniflash bilan bog'liq. Madaniyatni falsafiy anglashda falsafiy asoslash bilan bog'liq materialistik, pozitivizm, obe'ktiv idyalitik va boshqa ko'plab an'analar ajralib chiqadi. Bularning har birida insonning tabiati va ijtimoiy gurux olamida jismoni ma'naviy va ruhiy hayot faoliyatining shakllarini va rivojlanishining nazariy tushuntirish va o'ziga xos tahliliy usullari bor.
2. ***Madaniyatning tuzilish shakli*** insonga bog'liq bo'lmagan va jamiyatda mustaqil mavjud bo'lgan madaniyatning o'ziga xos shakli uning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Madaniyat rivoji jamiyatning manbai va omillarini ochishga urinadi. Uning mavjudlik davri u yoki bu madaniyatning paydo bo'lishidan inqirozgachadir.
3. ***Madaniyat sotsiologiyasi***-biron bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniq jarayonlarini o'rganish bilan shug'ullanadi; Bu har xil sotsiolog axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan madaniyat jarayoni munosabatlarida, sotsiomadaniyat toifalarida namoyon bo'ladi.
4. ***Madaniyat tarixi***-har bir alohida madaniyatni noyob va asl xodisasi kabi o'rganadi turli madaniyatni o'zaro taqqoslaydi, ularning o'zaro munosabatlari va o'zaro ta'siri, ularning zamon va makondagi fikrlarini qadri va me'yori ilmiyligi mahoratda namayon bo'ladi.
5. ***Madaniyat ekologiyasi***-zamonaviy inson hayot faoliyatining barcha sohalarini insonning indivudal hayotini, jamiyat hayoti, tabiat bilan o'zaro munosabatlari qamrab oladi bu madaniyatshunoslik tadqiqotidagi eng yangi faol rivojlanayotgan sohalardan biri.
Zero madaniyat bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan faol munosabatini va munosabatlar uning hayot tarzini namayon bo'lishini, shaxsning ijtimoiy va madaniy rolini madaniyatlar tipologiyasini o'rganadi.

2,2. Madaniyat tushunchasi talqinida tarixiylilik va ilmiylik. ***Madaniyat tushunchasi.*** XVIII asrning oxiriga e'tiboran hozirgi mazmunini kasb etgan holda faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimidan mustahkam o'rin oldi. Kishilik jamiyatining beqiyos qo'llamiga ega bo'lgan va doimiy ravishda o'zgarib boruvchi ma'lumotlarni tartibga solishga yordam beruvchi umumlashtiruvchi tushunchalarga bo'lgan ehtiyoj madaniyat tushunchasini keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Qadimgi Rimda «madaniyat» tushunchasi hayotni ma'naviy jixatdan yanada yaxshilashga tozalashga qaratilgan g'amxo'rlik degan ma'noda ham foydanilgan Ma'lumotlarga ko'ra mashhur Rim faylasufi notik-Tsiseron ham «ruhiyat atamasini» ishlatgan. evropa xalqlarida XVIII asrning oxirlarigacha madaniyat atamasi aqliy ahloqi madaniyat tushunchasi bilan yonma-yon ishlatilgan.

Ko`rinib turibdiki «Madaniyat» tushunchasi xilma-xil talqiniga qaramay qadimdan hozirgi kungcha o`z mohiyatini o`zgartirmagan. Hozirgi davrda madaniyatning ilmiy tushunchasi insoniyat tamonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma`naviyat ruxiyatining o`ziga xosligini anglashi natijasida vujudga keldi. Oddiy bir maromda rivojlanuvchi jarayonda inson o`z ijtimoiy shakllari undan farq qilmagan. Madaniyatning avtonomiyasi namoyon bo`lishi uchun muayyan darajada texnikaning rivojlanishi va mehnatning ijtimoiylashuviga erishish talab etiladi. Shu asosida madaniyat asta-sekinlik bilan insoniyatdan tabora ko`proq mustaqil bo`lib boradi. Insonning esa tobelligi ortadi. Shuning uchun madaniyatni fenomen sifatida idrok etish uning rivojlanish qonunlarini tushunish va tushunchalar asosida madaniyatni boshqarishga o`rganish zaruriyat bo`lib qoladi.

Insoniyat jamiyati doimiy rivojda bo`lib u o`zgarib takamillashib boradi. Turli tarixiy davrlarda va xilma-xil madaniyatlarda odamlar dunyoni o`zgacha anglaydilar va qabul qiladilar, o`zlariga xos ravishda tasavvurlari va bilimlarini xosil qiladilar. Biz hozirgi davrdagi mavjud nomlarga o`xshash bo`lgan to`siqlarni o`tmishda odamlar qanday qilib engib o`tganlarini o`rgana borib o`tmishga savollar bilan murojaat qilamiz, o`tmish bizga javob qaytaradi va shu bilan o`tmish, hozirgi zamon va kelajak o`rtasida doimiy muloqat bo`lib turadi. Madaniyat-jamiyatning maxsuli, ijtimoiy hayotning eng muhimi jabxalaridan biridir. Madaniyatsiz jamiyat bo`lmagandek, madaniyat ham jamiyatdan tashqari mavjud bo`lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqealik sifatida madaniyatning o`ziga xos xususiyati shundki, u insoniyat va avlodlarining mehnati va bilimlarini o`ziga singdirib oladi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisligi, qadriyatlarini to`plash va ularni kelgusi avlodlarga etkazib berish bilan bog`liq bo`lgan sohalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida madaniyatni jamiyatni tutgan o`rni, jamiyatning mazmuniga va tahlil qilinayotgan ijtimoiy borliqning xususiyatlariga bog`liqdir. Ijtimoiy jarayon, kishilarning xatti xarakati, ya`ni sotsial faoliyati madaniy ideallarni, qadriyatlarni, normalarni qaror toptirilishi yoki barxam berilishida vosita vazifasini, shuningdek kishilarning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining shaxslararo va guruhlararo aloqalari shakli vazifasini xam bajaradi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy va funktsional aspektlarida ifodalanadi. Shu jixatdan jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta`siri mukammallashib va nisbiy mustaxamligi kuchayib boradi. Antik jamiyat alla qachon o`tmish, tarixga aylangan bo`lsada uning madaniyati hozirgi kunda o`z ahamiyatini saqlab kolmoqda yoki biz bu davr madaniyatini o`sha vaqtdagiga nisbatan ko`prok bilamiz. Shuning uchun madaniyatga jamiyatning funktsiyasi sifatida qaralmasada, jamiyat xar qanday konkret madaniyatning shakllanishi deb aytishimiz mumkun.

Madaniyatning o`zoro munosabatlarida o`zgarishlarga olib keladi, an`anaviy va indistiryal jamiyatlarda infarmatsion faoliyat mustaqil sohani tashkil etkan bo`lsa, «kamp`yuter revalyutsiyasi» sharoitida infarmatsiyalar, bilimlar ishlab chikarilishi, yangi texnologiyalar yaratish aloxida turdagi faoliyat sifatida shakllanadi. Ma`naviy

madaniyat informatsiyalar zaxiralari to'planish oqibatida tsivilazatsiya taraqqiyotida tashkilotchi va xarakatga keltiruvchi faktorga aytiladi. Buning oqibatida faoliyat va madaniyatning o'zaro munosabatlarida o'zgarishlar boshlanadi. Agar dastlab madaniyat faoliyatining mazmuniga to'liq bog'liq bo'lsa, tsivilizatsiya jarayonlari oqibatida faoliyat madaniyatini tabora ko'proq ishtirokida shakllanishi kuzatilmoqda. Shuningdek jamiyat taraqqiyotida ya'ni tarixiy inertiyaning katta ta'sirini hisobga olish kerak inertseyaning ta'sirida insoniyat bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan tamoman boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'ladi. Chunki kolektiv tafakkur qiyinchiliklar bilan qayta quriladi. Moddiy boyliklarni qisqa vaqt ichida yo'q qilish yoki buzib tashlash mumkin, lekin ma'naviy qadriyatlardan tezda voz kechib uning yangisini qabul qilib bo'lmaydi.. Rossiya va sovetlar imperiyalarining milliy ma'naviy qadriyatlarimiz, urf odatlarimiz va an'analarimizni «zamonaviylashtirish» sohasida olib borgan siyosati oqibati nima bilan tugaganligi hammamizga ma'lumdir.

Biz madaniyat va ijtimoiy faoliyat sifatida bir-biridan mustaqil mavjud bo'lmasligi, madaniyatning mavjudligi taraqqiyoti va muammolari masalalarini qisqacha ko'rib chiqdik. Madaniyat va shaxs nafaqat mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan, balki ichki va tashqi tamonlari jixatidan o'zaro mos keluvchi tushunchalaridir.

Individ ijtimoiy turmush va madaniyatga qay tarzda jalb qilganligiga, uning tabiiy imkoniyatlari xarakati xissiyoti tafakuri sotssial ahamiyatli mazmun bilan to'ldirilganligiga va madaniy shakl kasb etganligiga qarab shaxs sifatida qaror topdi. Madaniyat individual va ijtimoiy hayot bilan uzluksiz birlikni tashkil topgan vaqtgacha mavjud bo'ladi.

Madaniyat kishilarga tana a'zolari, instiktlar yoki tug'ma istedodlar kabi tabiatan berilmaydi, har bir individual o'ziga shaxs tajribasi asosida mustaqil ravishda tevarak atrofdagi kishilarning, jamiyatning va o'tgan avlodlarini to'plagan tajribalarini o'zlashtiradi.

Individum ijtimoiy amaliyot maxsuli bo'lgan madaniyatni o'zlashtirish bilan birga unga aks ta'sir etadi. Shuningdek inson madaniyat nomalariga amal qilgan holda nafaqat tabiatni, jamiyatni balki shaxsiy «tabiat» ni ham o'zgartirdi. Madaniyat shaxsning ichki dunyosi mazmuniga «ikkinchi tabiati» ga aylanadi. Shaxs madaniyat bilan o'zaro munosabati xech qachon to'liq va uyg'un bo'la olmaydi ijtimoiy individual hayot, shuningdek madaniyat stixiyasi bir-biri bilan mos kelmasligi mumkin. Madaniyat doim insoniyat bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va u siz yashay olmaydi. Lekin voqealikni murakkab, yaxlit birligi sifatida u o'z rivojlanishi qonunlarida va borliqqa nisbatan mustaqildir. U madaniy merosni o'zida mujassamlashtirgan konkret sotsial guruxlarning ma'naviy hayotiga nisbatan chuqurroqdir. Madaniyat doimo qadriyatlarini eng yirik zahirasi, tajribalar xazinasi bo'lib qoladi. Insoniyat avlodlari undan foydalanadilar va unga o'z xissalarini qo'shadilar.

Yuqorida aytib o'tganimizdek individ bilan madniyat o'rtasidagi munosabat murakkab jarayon hisoblanadi. Individni ijtimoiy hayotda ishtirok etishiga imkon berishga xos bo'lgan psixo-sotsial va madaniy va dunyoqarashi ijobiy, salbiy qarashlarining yig'indisidan tashkil topgan. Shuning uchun ham madaniyatni nafaqat qadrlash va uni saqlash, uni tanqidiy o'rganish talab etiladi. Qayd etilgan

sabablar ta'sirida muayyan ishlab chiqarish usuli xukumronligi, sharoitidagi tarixan tarkib topgan. Ijtimoiy va madaniy muhitda jamiyat bilan individ o'rtasida nisbatan o'zgaruvchan munosabat bo'ladi. Bu muvozanatni xosil bo'lishida madaniyatning ishtiroki salmoqlidir. Madaniyat shaxsga ta'sir etadi va uning psixologik xolatini shakllantiradi. Shaxsning xarakterida dunyoni bilish xissi o'rnatilib qoladi.

Birinchidan-Madaniyat ta'sir etish ob'ekti sifatida uni o'zlashtiradi;

Ikkinchidan-Madaniy qadriyatlarni tashuvchi va ifodalovchi sifatida konkret madaniy muhitda faoliyat ko'rsatadi.

Uchinchidan-Madaniy ijodiyot sub'ekti sifatida madaniyatni rivojlantiradi.

Madaniyat shaxsning o'zaro munosatlari uning shaxs hayotida tutgan o'rnini to'g'risidagi mulohazalarimiz xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tabiat stixiyali qonunlar asosida rivojlanib borsa insonning ichki dunyosi, «ichki tabiat» ini shakllantirish maqsadli yo'naltirilgan, asosida tashkil etilishi mumkin. Bunda madaniyat insoniyatga shunday imkoniyatni yaratuvchi muhim vositalardan biri bo'ladi.

3.3. Madaniyatshunoslik fanining o'qitilishi. Madaniyatshunoslik kursi tarix fasafa sotsiolog etnografik Sotsiologiya kabi bir qator fanlarning kelishuvida vujudga kelgan yangi sotsial gumanitar fan hisoblanadi.

Kursning asosiy maslasi bu inson to'g'risidagi uning tabiati va imkoniyatlari to'g'risidagi masaladir. Tabiatning mavjudlik qonuni xilma-xil bo'lganidek, insonning ichki tabiati ya'ni madaniyati tabiiy muhit, ijtimoiy borliq va tarixiy davrlar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi, bu o'zgarish faqat ilgari borish yangi qadriyatni vujudga kelishidagina iborat emas. Bu biron bir sohada buzilishlar inqirozlar elementlarining kuchayishi bilan ham xarakterlanishi mumkin. Hozirgi zamon ilmiy texnika revolyutsiyasining tabiiy muhitga ma'naviy hayotga va boshqa sohalarga salbiy ta'siri fikrimizni yaqqol dalildir.

Madaniyatshunoslik-kursi madaniy tarixiy davrlarni tahlil qilishda uni bilishning uch bosqichini tabiiy birligini olib qarashga xarakat qiladi.

A) Konkret davrning yaxlit qiyofasi ya'ni badiiy obrazni yaratishga intiladi.

B) Insoniyat borlig'ining umumiy dinamikasida davrning ma'naviy o'rnini aniqlaydi.

V) Konkret davrning mazmunini tahlil qiladi ya'ni uning hozirgi davr tafakkurida qanday o'ringa ega ekanligini uning muammolarini bizga qanday ta'sir etishini bizga qay tamonlari bilan yaqinligini hozirgi vaziyatni qaysi sotsial va individual kamchiliklari unda aktivlashganini ko'rsatadi. Madaniyatlari tarixiy davrlariga qarab o'zgarib turadi. Davrlarning almashishi bilan madaniyat sifat o'zgarishlari yuz beradi. Konkret tarixiy davrda yashagan kishilarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari bilimi ma'naviy qadriyatlari va boshqalar to'g'risida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishimiz uchun biz shu davrning madaniyatiga murojat qilishimiz lozim. Shuning uchun madaniyatshunoslik kursi turli xalqlarning madaniy rivojlanish tarixi jahon madaniy taraqqiyotining tarkibiy qismi o'rganish bilan birga konkret tarixiy davrning ijtimoiy taraqqiyotga tutgan ma'naviy rivojlanishi bosqichlari umumiy qonuniyatlari o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganadi.

Madaniyatshunoslik tinglovchilarni turli tarixiy davrlar madaniyatlari va boshqa sotsiyal guruxlarining urf odatlari turmush tarzi to'g'risidagi bilimlar bilan boyitadi. Kishilarini grajdanlik va ma'naviy etuklikka erishishlari fikrlari va qadriyatlar plyuralizmiga ko'ra bilish fan taraqqiyotini to'g'ri baholash qobiliyatini xosil qilish muhimdir.

Yu. M. Lotmon tasdiqlaydiki, «ma'naviyat entropiyasi informatsiyasiga aylantirishning eng mukammal mehanizmidir». Bu mehanizm informatsiyani saqlashi va uzatilishi bilan birga uning qo'llamalarini kengaytiradi. O'z-o'zini doimiy ravishda mukammallashtirishi va riojlantirib borishi uning qonunidir. Shuning uchun madaniyat bir vaqtda stabillik ham dinamizm xususiyatlariga ega. Madaniyat san'atga o'xshash bo'lib uni insoniyat tamonidan yaratilgan yaxlit badiiy asar sifatida qabul qilishimi kerak. Xulosa qilib shuni aytish kerakki madaniyatshunoslik kursi gumanitar fanlar qatorida oliy o'quv yurtlarida o'rganilishi hozirgi davr talabigi mos keladi. Jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy siyosiy tadbirlar va xuquq tartibotni mustaxkamlash bilan hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyatning ma'naviy hayoti ham qayta qurish talab etiladi. «Ma'naviyat yo'q joyda» degan edi prezidentimiz I. A. Karimov-hech qachon baxt saodat bo'lmaydi.

Madaniyatshunoslik talabalarga jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston madaniyatini rivojlantirish tarixiy xususiyatlari o'zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to'g'risida bilim ko'nikma malakalarni berish ayni paytda milliy madaniyatiga va o'zga davlatlar madaniyatiga qadriyatlariga ularni xurmat ruxida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijodiy munosabatda bo'lishlari ma'naviy jixatdan rivojlanishlarida ko'maklashadi.

Nazorat savollari

1. Madaniyatshunoslik faninning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
2. Madaniyatshunoslik ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida qanday o'rin tutadi.?
3. Madaniyatshunoslik fan sifatida asosiy vazifalari qaysilar?
4. Madaniyatshunoslik qanday manbalarga asoslanadi?

Mavzuga doir adabiyotlar

1. S. Abduxaliqov Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi, Toshkent.1998.
2. E. Ahmedov «Gabidulin R» Kulturologiya, Mirovaya kul'tura.
3. Gurevich P. S. Kulturologiya.M, «Znanie», 1996.
4. Grinenko. Xrestomatiya poistoriikul'turii.
5. E. Umarov, M. Abdullaev, E. Xakimov, Kul'turologiya. Toshkent.«Yangi asr avlodi».

2. Mavzu: Madaniyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari

reja

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat va ularning o'zaro aloqadorligi.
2. Madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati.
3. Madaniyat boyliklari. (Madaniyat qadriyat).

Mavzuga doir tayanch so'zlar va iboralar.

Madaniyat, inson faoliyati, ruhiy faoliyat, madaniyat kontseptsionalari, madaniyatning belgilari

2,1. Moddiy va ma'naviy madaniyat va ularning o'zaro aloqadorligi.

Madaniy jarayonning o'ziga xosligi shundaki, madaniyat xodisasi har doim shakl va mazmun, va munoabat, narsaning mavjudligi va uning razmiy mazmuni uyg'unligiga ega bo'ladi. Moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat-Madaniyatning asosiy ikki sohasi bo'lib, bir-biri bilan o'zaro aloqada, o'zaro ta'sirda va bir-birini taqozo qilgan holda rivojlanadi. Moddiy madaniyat har doim ma'lum bir madaniyatning timsoli hisoblanadi, o'z navbatda ma'naviy madaniyat ham qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlarda moddiy uyg'unlikda mujassam bo'ladi.

Moddiy madaniyatning ma'naviyatdan tarixan ayriligi faqat insoniyat taraqqiyotining boshlang'ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda ma'naviy faoliyat maxsus sohaga aylangach ahloqiy mezonlar, din, san'at, xuquq, siyosat, fan shakllanib ma'lum doiradagi kishilar busoha bilan shug'illana boshladi.

Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda faqat ma'naviy madaniyat nazarda tutildi. Negaki, borliqni xaqiqat, yaxshilik, go'zallik belgilaydi deb hisoblashgan, shuning uchun birinchi o'rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi fan, ahloq, nafosat bo'lib keldi. Natijada jamiyatning moddiy hayotini, uning iqtisodiyotini o'rganishga e'tibor berilmadi. Moddiy madaniyattadqiqot uchun qiziqarsiz hisoblanadi.

Industrial jamiyatning vujudga kelishi, texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarini tezda almashishi madaniyatshunoslikni insoniyatni barcha moddiy madaniyatini o'rganishga majbur qildi.

Kishilarning amaliy qayta o'zgartiruvchilik faoliyati, ularni ijtimoiy ishlab chiqarish va takroriy ishlab chiqarish bilan bog'liqligi moddiy madaniyatni o'ziga xos sohalarga bo'linishi madaniyatshunoslikda muayyan tadqiqotlarda zarurat tug'dirdi.

Moddiy madaniyatning birinchi katta sohasi bu mehnat qurollari ishlab chiqarishning barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari, texnika qurilmalari. Xullas, sun'iy sharoitdayaratilgan narsalarning barchasi, moddiy madaniyatning bu qismi ishlab chiqarish texnika madaniyati yoki jamiyat hayotining moddiy texnika asosi deb ataladi. Ishlab chiqaruvchi texnika madaniyatning maxsus qismini ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat faolyatida ishtirok etuvchilarning ijodiy qo'llami, ularning texnik bilimi, ishlab chiqarish madaniyati, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari hisoblanadi.

Moddiy madaniyatning ikkinchi soxasi ijtimoiy hayotni, uning barcha tarmoqlarining me'yoriy xarakatini ta'minlovchi ko'p ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faolyati bilan bog'liq. Buturdagi xokimiyat tuzilmalari va unga munosib

boshqaru shakllari, ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish, sog'liqni saqlash va dam olish, ko'ngilni olish muassasalari tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saqlaydi, o'zgartiradi va qayta shakllantiradi.

Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insonning o'zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning busohasi nafaqat insoniyatning biomavjudodlik muomalalarini tadg'iq qilmasdan, balki avlodlarning o'zaro munosabatlari muomillarini tahlil qiladi.

2.2. Madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati.

Inson ulg'ayishi va jamoaga mansubligi mezonidan boshqa jamiyat madaniyati a'zosi sifatida shakllanishi mumkin. Ikki xil, ba'zan insonni ikki turdan ham ko'proq madaniyatga mansubligi uni ko'p tamonlama madaniy xolatga mmansub qiladi. Ammo bunda ma'lum xavf ham yashirin bo'ladi. Ya'ni ulg'ayuvchi avlod jamiyatga aralashuvi jarayonida begona madaniyatning aralashuvi yoshlarni o'zning madaniyat manbaidan ayrilishiga, o'z etika an'analarini tushunmasligiga olib keladi. O'z milliy madaniyatdan maxrum kishi manqurtga aylanadi va xar qanday madaniyatga ham befarq munosabatda bo'ladi. Shuning uchun meros madaniyatning uzluksiz an'anaviy yangilash jarayonini ta'minlash o'ta muhim. Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi doirasida inson hayot faoliyatining gineti (irsiy), jismoniy (somatik), tabiiy biologik xususiyatlari haqida, jamiyatda yuzaga keladigan va tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari aks etuvchi madaniy an'analar va sog'lom odatlarga to'g'ri keladigan insonning tartibli ovqatlanish va turmush tarzi haqidagi bilimlar majmui bo'lgan inson ekalogiyasi muammolari ham mansub.

Ma'naviy madaniyat ancha ilgaridan o'rganila boshlagan. insoniyat tarixining boshlaridan kishilar ma'naviy madaniyatni belgilashga, uning shakllanish sabablarini aniqlashga, ma'naviy boylik ijodkori va yaratuvchilari qanaqangi sifatlarga ega bo'lishlari kerakligini vamma'naviy ijodkorlar jarayonini tushuntirishga uringanlar. Ilgari mavjud bo'lmagan madaniyat xodisasini vujudga keltirishga xizmat qiluvchi ijodiy kuchlar xayolat fantastiaksi tadqiqotlarga katta e'tibor berildi. Olamni ma'naviy o'rganish mavjudlikning insoniy usuli hisoblangan maxsus ideyal tamonidir. insondagi barcha qobiliyat tabiatan mavjud bo'lib, uning shakllanishi insonning insonning paydo bo'lish davridan boshlangan. Insondagi ajdodlardan qolgan yovvoyilik xususiyatlari tabiat bilan doimiy o'zaro xamkorlikda uni o'zlashtirish davomida yo'qolib, bilimi rivojlanib bordi.

Undagi jismoniy va ruhiy jixatlar takomillashib, intellektual va shaxsiy imkoniyatlar kuchayib bordi. Inson jismoniy, fikriy va xis qiluvchi mavjudod sifatidagi dastlabki davridanoqo'ziga xos dunyosini yarata boshladi: Moddiy va ideal dunyosi taraqqiyotning xar bir davrida fikrlash va xis qilish tarzining maxsus aqliy tasavvur tizimi to'plandi. Bunda barcha umuminsoniy madaniyat singari turli xalqlar tamonidan yaratilgan mustaqil madaniyatlar manbai ham mavjud. Insonning ideal dunyosi-bu uzluksiz xarakat shaklining benixoya rang-barangligi, murkkab me'yor, munosabatlar darajasiga ega bo'lgan obrazlar rivoji va vazifasi, tiplarning voqelik bilan aloqasidir

Ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroq, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib qoladi. Fan, din, sa'at, falsafa, ahloq, xuquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyatning aniq shakllari hisoblanadi. Alohida shakldagi ma'naviyatning xususiyati maxsus tuzilish ma'lum vazifalar majmuidan iborat, xar birining o'ziga xosligida ifodalanadi. Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, sa'nat) «chegaralanganlikda» farqlanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning aniq sohasiga aylanadi, boshqa shakllarda (ahloqiy estetik) faoliyatning barcha turlari qorishib ketadi. G. Malikovskiy takidlashicha madaniyatdagi xayratlanarli funktsional xaqqoniylik shakli, dunyo xech bir ortiqcha, shunchaki narsa yo'q, barcha madaniyat xodisasi o'zaro foydali aloqadorlikda kechadi. Tadqiqotchilar madaniyatning turli funktsiyalarini ko'rsatadilar. Xususan, faylasuf E.V. Soqolov madaniyatni ikki xil funktsiyaga ajratadi: Butun bir jamiyat munosabati bo'yicha funktsiyasi, ikkinchi bevosita shaxs bilan aloqadorlik funktsiyasi.

E. V. Saqalov madaniyatning asosiy funktsiyasini quyidagicha belgilaydi: *olamni o'zlashtirish va va qayta o'zgartirish; bunda u mavjud narsalarni jismoniy talablarni, shuningdek ijoddagi hayotiy qonunlar bilan qondirish zarurati bilan bog'liq.*

Ximoya-moslashuv vazifasi; jamiyat va atrof muhit o'rtasidagi muvofiqlikni saqlash. Ushbu funktsiya uzoq vaqt qiyin sharoitlarda barcha ximoya vositalarini ishlab chiqishda va kuo'niktirishda (olv, turar joy, kiyim, dehqonchilik va bosh.) odamning omon qolishini ta'minlaydi. Keyin vaqtlarda o'ta jiddiy bo'lib turgan muammo odamlar jamiyatining to'htatib bo'lmaydigan buzg'unchilik xarakatidan tabiatni ximoya qiluvchi vositalarni yaratish, bunda ekologik mezon, ekologik tafakkurning keng ko'lamda yoyilishning amalga oshirish zarur. Signifikativ funktsiya (belgilash ro'yxatga olish mazmunida): -mazmun, ma'no, nom, belgilar qo'llamini ishlab chiqish vositasida dunyoning qiyofasida, voqelik belgi tizimining yaratilishi. Sezgilari ham, tashqi idrok ham, naturning bevosita kechinmalari holidagi yig'indisi ham yo'nalishini aniqlash tizimini insonga aniqlab bermaydi. Bu vazifani ma'lumotlarni o'zida saqlamasdan, nazariy modellar va ahborotlar bilimni to'plashni vujudga keltirish uchun faqat material bo'lib xizmat qiluvchi mazmun bajaradi. Axborotlarni o'zlashtirish va yig'ish, xabarlarini yig'ish va saqlash vositasitabiiy xotira yoki narsalarga yozish (qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar kitoblar, kinotasmalar, ohangrabo raqamli yozuvlar) bo'lishi mumkin. Xar qanday xolatda ahborotlarni tashkil qilish uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilari zarur. Hozirgi davrda til belgilar tizimining keng ko'lami va o'ta ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

1) **Kommunikativ (aloqa almashuv)** - mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashlash. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, ahborot, o'zaro amaliy xukmronlik taqozo qiladi, negaki, faqat turli tiplarning munosabati (an'anaviy, funktsional ahamiyatli, shaxsiyatlararo, ishlab chiqaruvchi ma'rufiy madaniy) jamiyatning tuzim sifatida mavjudligini uning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga qodir.

2) Normativlik (mezon me'yoriy) kishilar xulqini tartibga solish, ularning kuchini bir me'yorda va jamiyatning bir butunlikda saqlash maqsadida muvofiqlashtirish. Me'yor qoida qandaydir xarakter yoki predmetlar, narsalarni yaratish sohasida yaratish, aniq ko'rsatmadir. Ongli ravishda o'rnatilgan yoki ko'p asrlik an'analarga tayanuvchi, majburiy taqiqlovchi me'yorlar mavjud (xuquqiy, ahloqiy-etikaviy me'yorlar), biroqlarning mazmuni bor jamiyatni barbod qilmaslik uchun kishilar faoliyatini tartibga solish, aniq chegaralar bilan belgilash.

Ruhiy yoki «loyihaviy» mo'tadillik-bayramlar, diniy marosimlar, o'yin tamosha jarayonlarida ruhiy zo'riqlashlarni bartaraf qilish. Qoniqarsiz istaklar, ro'yobga chiqmaydigan niyatlar, amalda taqiqlanuvchi mavjudligi ruhiy zo'riqlashlar paydo bo'lishiga olib kelib, nafaqat ma'lum bir shaxs salomatligiga zarar etkazadi. Balki ommaviylik kasb etib, jamitya xarakterini izdan chiqarish mumkin. Shuning uchun madaniyatda keraksiz xissiyotdan xalos bo'lish mehanizmi ishlab chiqilgan.

Madaniyatning quyidagi funktsiyalari bevosita shaxs bilan bog'liq:

-«Gominizatsiya» urug'dosh xususiyatlarini o'rganish. Madaniyat «aqli odam» uchun xos bo'lgan-nutq, narsalarin ramziy ifodalash (yoki mavhum tafakkur) xususiyatlarini har bir odam o'rganishiga imkon yaratadi.

-**Sotsializatsiya (umumlashtirish)** - jamiyat hayoti uchun uning xaqiqiy a'zosi sifatida zarur hisoblangan ma'lum miqdordagi shartlarini o'zlashtirish. Bu funktsiya idrok, tafakkur, nutq so'zlarini qo'llanilishi, ohang, imo-ishora va shama, tipik xodisalar munosabat tarzi, shuningdek, talab vaqadiriyat yo'nalishlari tizimining shakllanish kabi andazaviy usullarining mustahkamlashishi bilan bog'liq.

-**Inkul'turatsiya** - avvalo o'z xalqining, umuminsoniy madaniy merosga (aralashish) munosabatda bo'lish.

-**Individualizatsiya**-madaniyat ma'lum shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatini o'ta rivojlantirishga mo'ljallangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida –(jamiyat insoniyat) eng asosiy bo'g'in bo'lib, bu har bir aniq shaxslar madaniyatining barkamollik darajasidan jamiyat yoki butun insoniyat madaniyati bilan bog'liq bo'lishini bildiradi.

3.3. Madaniyat boyliklari. (Madaniyat qadriyat).

Har qanday jamitya ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, boy bilim olami bo'lib, u insonni qaerda yashashi va xarakter qilishini, umuman, dunyodagi va jamityadagi o'rnin belgilashga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun o'ta shaxsiy mohiyat vamazmun kasb etib, inson u orqali boshqakishilar bilan, butun jamitya bilan munosabat o'rnatadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo'luvchi ahloq shakllarini yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Taxinga loyiq joyi shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munozarali emas, balki muloyim munosabat shakllanadi. Munozaralar tug'ilgan hollarda jamiyatni mustahkamlashga munosib bo'lgan bartaraf qilishning qulay usullari topiladi.

Qadriyat tushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan.

Ayrim tadqiqotchilar uni davrning ehtiyojini belgilaydi, ya'ni, tarixiy xususiyat kasb etadi deb hisoblashadi. Boshqa bir tadqiqotchi Rikertaksincha qadriyat, doimiy unversal xususiyatga ega deydi. Nihoyat, T. Parsonis qadriyatni-me'yoriy andoza deb

ataydi. Mazkur turdli xil, qarama-qarshi fikrlardan qadriyatning ma`nosi ko`p qirrali ekanligi anglanadi.

Qadriyat kishilar hayotida o`ta ahamiyatli xodisadir. Uni madaniyat sohalari ro`yobga chiqargan xod

isa sifatida boog`liqlikda anglash mumkin. Moddiy nuqtai nazardan qadriyat xususiy(ya`ni oddiy xis qilish organi)-buhayotiy, maishiy, texnik qoniqish,qadriyat va boshqa ma`naviy-ilmiy,ahloqiy estetik, diniy va boshqalargabo`lnadi. Ayrim qadriyatlari (xo`jalik,texnik,siyosiy) tarixiy xususiyat kasb etib, ya`nimadaniyat,davr o`zgarishi bilan ular ham o`zgarib turishini batafsilroq o`rganish chog`ida aniqlash qiyin emas,boshqa qadriyatlar esa universal xususiyatga ega.

Yuqorida takidlanganidek qadriyat ijtimoiy faolyatni tartibga solib,individlal, guruxlar va jamiyatning muhim yutuqlariga erishuvini belgilaydi. Ijtimoiy qo`llamdagimazmun darajasi bo`yicha qadriyat uzviylikka ega. Qadriyatning dastlabki darajasi oddiylari orasida ajratgan aniq narsalar,xolatlar, xarakatlarning afzalliklari bilan bog`liq. Ikkinchi darajasi esa ma`lum individga yaqin bo`lgan ijtimoiy guruhlar qiziqishiga mos keluvchi obrazlar xarakati yoki faolliyatning tanlanishi bilan bog`liq. Uchinchi daraja bu eng yuksak umuminsoniy maqsadlarga tanlanish bo`lib, bunda ezgulik,xaqiqat,go`zallik, adolat, tartib, boylikka qarama-qarshi youzlik, yolg`on, xunuklik,betartiblik,qashshoqlik mujassamligida namayon bo`ladiyoki bu tag`dir bilan bog`liq o`ta yuksak tanlash hisoblanadi.

Qadriyatlarning israrxiyaga asoslarga murakkab tizimida individdagi singari turli toifadagi umumiylikning ham o`ziga xosligiasosiy takroriy va chetdagi,ustunlik xolatidagi tarzlarga ajratish mumkin.Qadriyatlar ro`yxati xar bir jamiyatning miliy va o`ziga xos tsivilizatsiyasi bilan bog`liq xolda keskin farqlanadi. Hamma davrlarda barcha xalqlarda eng yuksak qadriyat ezgulik, hayot, mehnat, sevgi,xaqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalangan.

Nazorat asvollar

1. Madaniyat tushunchasiga berilgan ta`riflarning xilma-xilligini qanday izohlash mumkin?
2. Madaniyat tushunchasiga berilgan ta`riflarni ilmiy adabiyotlarda uchraydiganlaridan misollar keltiring.
3. Madaniyat konseptsiyalarining qaysilarini bilasiz?

Mavzuga doir adabiyotlar

1. I. A. Karimovning osnovno` printsipo` obshestvenno-politicheskogo i ekonomicheskogo razvitiya Uzbekstana. Tashkent. «Uzbekistan». 1995.
2. Abduhaliqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi, Toshkent.1998 y.
3. Ahmedova e., Gabidulin R., Kulturologiya, miravoya kul`tura.Toshkent. 2001 y.
4. Gurevich P. S. Kul`turologiya. M. «Znanie», 1996.
5. Umarov E., Abdullaev M., Xakimov E. Kul`turologiya. Toshkent. «Yangi asr avlodi».

3-Mavzu: Madaniy va ma`rifiy meros

Reja

1. «Madaniy meros» tushunchasining mazmuni.
2. Madaniy merosning mehanizmi.
3. O`zbekiston jamiyatni ma`naviy yangilashi jarayonida madaniy meros.

Mavzuga doir tayanch so`zlar va iboralar.

Madaniyatning tuzilishi, moddiy madaniyat, ijtimoiy madaniyat, ma`naviy madaniyat.

3, 1. «Madaniy meros» tushunchasining mazmuni.

O`zbekiston o`z mustaqilligini mustahkamlash jarayonida va jahon hamjamiyatida munosib o`rin egallash maqsadidasiyosiy,ijtimoiy,iqtisodiy sohalarni yangilashga xarakat qilmoqda. Kishilar tafakkurida qayta o`zgarish yangi milliy mafkura-mustaqillik mafkurasini yaratish jarayonlari kechmoqda. Bu jarayonlar XXI asrga o`tish pallasida amalga oshirilmoqda. Buxaqda O`zbekiston prezidenti I. A. Karimov Oliy majlisning XIV sessiyasidagi nutqida aytgan gaplari o`ta ibratlidir: «Bu fikr madaniy va ma`naviy merosimizdagi muammolarni xal qilishni bu masala bo`yicha tasavvurat ega bo`lishimiz zarurligini anglatadi.

Madaniy meros-bu o`tmishdan qolgan qadriyatlar, g`oyalar,tajriba bilimlar ularni o`zlashtirish yo`llari, ya`ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari vauni tashkil qilish hamda uning natijalardir.

Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib jamiyat o`z maqsadlarini amalga oshirishni qisqa yo`llarini tanlaydi. Bundan tashqari madaniy meros kishilarning saviyasini bexad kengaytiradi,ular hayotini aqliy va xissiy jixatdan boyitadi va bilimning tuganmas manbai bo`lib xizmat qiladi.

O`tmish bilan batamon uzilish mumkin emas. Insoniyat tarixida mutloqo yangi madaniyat yaratishga urinishlar bo`lgan, biroq bunday urinishlar xunuk natijalarga olib kelgan. Bunga 1920-yillarda sovet Rossiyada «Proletar madaniyati» ni yaratishga urinishni yoki «madaniy inqilob» misol tariqasida keltirish mumkin. Bu inqiloblar jarayonida yangi madaniyatlar yaralmadi, aksincha bori ham yo`q qilindi: Qo`lyozmalar,kitoblar,sur`atlar yoqildi; me`moriy yodgorliklar buzildi,eng achinarlisi madaniy qadriyat egalari xalok qilindi. Oqibatda o`tmish bilan bog`liq uzviylik buzilib jamiyat orqaga ketdi.

Madaniyatning me`yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishini bildiradi. Biroq bujarayon oddiy va bir xilda sodir bo`lmaydi. Ma`naviy qadriyatldarning mundariyasi,ularni qayta ko`rib chiqish, qayta baxolash, ularning o`zaro bog`liklik usullari, munosabat tiplari bilimlarni asrash va uzatish hayot me`yorlari, dil mazasi,voqealikni estetik idrok qilish xususiyati o`zgarmasdan qolmaydi,ular uzluksiz xarakatda bo`ladi.

Meros serqirra va ko`p qiyofalidir. Uning aniq namayon bo`lish tiplarning ko`pligi,tendentsiyalar xilma-xilligi farqlanadi. Xar bir yangi avlodning vorislik

mexanizmi o'tmishdoshlarning tajribasidan madaniyatning turli soxalarida farqlanadi: San'atdagi o'lcham fandagidan boshqacha, tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqli. Har qanday sohada insonning xaqiqiy o'zlashtirishida namayon bo'ladi va mahalliy yoki dunyo miqiyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin. Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir me'yorda tekis yo'nalish shakllarida bo'lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o'tishi noteki bo'ronlar xususiyatiga ega. Inoniyatning ma'naviy yutuqlarini meros qilib qoldirishga vorislik shaklda jaryonlar muffasal yo'nalishida amalga oshadi. Masalan qadimgi misr zakovati «injl», «bibiliya», «1001 kecha erkaklar» kabi madaniyat yodgorliklariga ijodiy ta'sir qiladi. Yana er yuzidagi barcha xalqlarning zamonaviy bilim soxalariga zamin bo'lgan Bobil astranomiya, xind matematikasi, antik falsafa, Rim xug'ug'i xag'ida ham shunday gapirish mumkin.

Agar madaniyat va ma'naviyat soxalari tarkibida til, udumlar, an'analar vaboshqalar bo'lsa ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa soxalarda esa-texnika, fan, san'at kabi soxalardagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkga aylanadi.

Keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizim mavjud. Ulardan ba'zilar qadimdan mavjud bu namoyish qilish og'zaki uzatish fol'klar sanat boshqa usullar keyinroq paydo bo'ldi. Bu kino manaviy merosni foydalanish imkoniyatlarini o'zgartirish sharoiti bir xilda emas. Ular ijtimoiy iqtisodiy siyosiy g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning xajmi tanlash xususiyati intensivligiga bog'liq. Bizga ma'lumki sovet jamiyatida koministik g'oya xukumronligi davrida xalqlar xususan O'zbekistonda xam o'zining xaqiqiy tarixiy milliy va manaviy merosidan maxrum etilgan edi. Umuman madaniy merosdan mut laqo maxrum bo'lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo'lishi mumkin emas.

3.2. Madaniy merosning mexanizmi. Madaniy merosning mexanizmi quyidagi xususiyatlarga ega.

1. **Ma'naviy merosning uzviyligi.** Ajdodlar yaratgan ja'miki boylikka yangi avlod merosxo'r bo'ladi, tarixiy ahamiyatini yo'qotgan madaniyat o'rnida yana vujudga keladi, bulardan ko'p narsalar o'zlashtiriladi. O'tmish tajribasi bugun va kelajak uchun har doim asqotishi mumkin, shuningdek, bugun o'tilgan narsalar butunlay yo'qolib ketmaydi. Masalan, V. Shekspir yuz yilgacha unutilib keyingi avlodlar uchun jahon adabiyoti va dramaturgiyasining klassigi sifatida tanildi.

2. **O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning o'zgarishi.** Madaniy meros bugungi o'tmish davrida xususiyati o'zgarishi mumkin. Ya'ni, bugun xukumron bo'lgan nuqtai nazar va bilimlar talabiga mos keluvchi yangi talqindgi mazmun kasb etadi. Mana shunday ko'rinishda kelajakka meros bo'lib o'tadi. Bizning kunimizgacha Suqrot va demokrat asarlarni asil nusxasi saqlanib qolmagan, biroq xar bir avlod ularning g'oyasini o'zi uchun yangitdan kashf qiladi va ularning falsafasini talqin qiluvchi minglab kitoblar yaratiladi.

3. **O'tmishdan qolgan barcha narsalar butunlay o'tmaydi, balki yangi davr talabiga ruxiga javob beruvchi, moxiyatga zarur narsalargina olinadi.** Hozirda eskirgan va

kerakmas deb xisoblangan narsalar, kelajakda balki yangi mohiyat va muhim ahamiyat kasb etadi. Alla qaysi davrda qolib ketgan kiyinish usuli kutilmaganda odatga aylanishi mumkin. Yangi hayot qadim donishmandchiligidan g'oya oladi.

Har bir etnos, xalq o'zining mustaqil, betakror, bexat noyob madaniyatiga ega. Xalqlar hayotining mintaqiy tarixiy o'ziga xosligi har bir xalq madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi, u yoki bu etnos hayotining saqlanib qolishi va barhayotligiga imkon tug'diradi. Shu tarzda millatlar olami-umumiy koinot shakllandi, unda inson va uni tarixan o'rab turuvchi tabiat uyg'unlashib etnoslarning ijtimoiy ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, milliy xususiyat shakllandi va uning amaliy faoliyat yo'nalishini aniqlaydi.

Mana shu boshlang'ich madaniyat olamida inson turadi, u erda uning o'rni maqsadi shakllanadi, uning didi, hayotiy orzusi paydo bo'ladi. Inson madaniyatlarga merosxo'r sifatida milliy mulkini o'zlashtiradi. Namunaviy xulq qadriyatlarini asrashda va kelajakka qoldirishda jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, aniq barqarorlik bo'lishi zarur. Madaniyatning mavjudligi va rivojlanish an'anasida, madaniyatlarni asrash usulida bu barqarorlik bor.

An'ana, madaniyatda yangi odatlar bilan uyg'unlashib ketadi. Insonga nafaqat bilim, faoliyatida an'anaviy ibratlar va yaxshi o'zlashtirilgan mahorat va ko'nikma ham zarur. Biroq ijodkorlarning boshlanishi fikrlash jixatidan dastlabki eslab tasvirlashda ko'ra sermaxsullikni vujudga keltiradi. Madaniyatning rivojlanish jarayoni ijodkorlikning sub'ekti sanalgan shaxsning shakllanishi jarayon bilan birga kechadigan xodisadir, ya'ni, inson nafaqat jamiyada mavjud bo'lgan madaniy me'yorlar, an'ana va iboralar balki madaniy jarayonlarning rivojlanib borishi ham qo'llaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek milliy ma'naviy meros muammmosi mamalakatimizda jamiyat uchun o'ta muhimlik kasb etmoqda. Chorizm mustamlakachiligi davrida Turkiston xalqlarining madaniyatiga ular qaloq madaniyat deb past nazar bilan qaralgan. Keyin sovetlar davrida O'zbekiston xalqining madaniy merosiga bir yoqlama munosabat xukmronlik qildi. Tarixiy xaqiqat, adabiyot va san'at asarlari «sinfiy kurash», «xalqchilik» kabi g'arib nazariy bilan baho berildi. Faqat kommunistik g'oyaga mos keluvchi narsalarga yutuq sifatida qaraldi, qolgan barchasiga xato deb yoki mutloqo kishilar xotirasiddan o'chirib tashlashga urindi.

I. A. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida takidlanganidek idialogiyaning o'ta qat'iy iskanjasiga qaramasdan O'zbekiston xalqi o'zining tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffoq bo'ldi. «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifa ajdodlarimizning ko'p asrlik buyuk, bebaho ma'naviy madaniyatini tiklash bo'ldi.

Jamiyatimiz jadal tus o'zgarishlar xolatini boshdan kechirmooqda. Bunday davrda xar kishiga mustahkam tayanch zarur. Faqat milliy g'oya shunda tayanch bo'lishi mumkin. Faqat milliy g'oya isloxatlar yo'lida muvafoqiyatli borish millatni birlashtirishi va jinslashtirishi mumkin. O'zbekistonning kelajagi to'g'risida

I. A. Karimov o'zining muloxazalarida birinchi darajali qilib milliy g'oyani shakllantirishni qo'yadi. Uning asosida xalqning xaqiqiy tarixini qaytarish, milliy

an`analani tiklash, madaniy va ma`naviy merosni uyg`otish yotadi. Xuddi shu g`oya XXI asrda O`zbekistonning ozod fuqarolarining ma`naviyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etib, o`z vatanini gullab yashashi uchun bor kuchini ayamasdan o`z xalqining o`tmishidan faxrlanuvchi millat vakillari uchun xizmat qiladi.

3.3. O`zbekiston jamiyatni ma`naviy yangilashi jarayonida madaniy meros.

O`zbekiston xalqining madaniy merosi ming yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O`zbekiston xududida e`tiqod qilingan zardo`shtiylik, islom va boshqa dinlar yaratgan ma`naviy ahloqiy qadriyatlar mujassamlashgan; Unda butun dunyoni mashhur al-Buxoriy, at-Termiziy, B. Naqshbandiy, A. Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, A. Navoiy kabi ko`plab buyuk mutafakkurlarning bilimi va g`oyalari mujassam, bu merosda Amir Temur va Boburning davlatchilik va siyosiy qurilish tajribalari, buyuk me`morchilik yodgorliklari, tasviriy san`at, Musiqa, amaliy san`at asoslari: xalq urf-odatlar va an`analari, milliy sport turlari uyg`unlashdi.

Mustoqillik yillarida xalqqa uning ma`naviy madaniy boyliklarini ko`rastish borasida ko`plab ishlar qilinmoqda. Dastlabki eng muhim qadam «O`zbek tili haqidagi» qonunning qabul qilishi bo`ladi. Bu bilan o`zbek tilidagi xalqning bebaho madaniy va milliy boyligi maqomi tiklandi. Buxoro va Xiva shaxarlarida me`morchilik yodgorliklarini ta`minlash borasida faol ishlar olib borilib, yodgorliklar shu davrda jahon ahamiyatidagi maqomga ega bo`ldi. Bu shaxarlarni 2500 yilligi Toshkentning 2000 yilligi kabi katta tantana bilan nishonlandi. Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan milliy madaniyatni asrovchi yangi muzeylar qurilmoqda. Temuuriylar davri tarixiy muzeyi. Olimpia shon-sharafi muzeyi, O`zbekiston tarixiy muzeyi yangi mazmunda boytildi, maqomchilik muzeyi va boshqalar dunyoga mashhur bo`ldi.

Xalqqa o`z tarixi va xotirasi qaytarilmoqda. Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan xissa qo`shgan vatandoshlarimizni xizmatlari haqida yubiley tantanalari o`tkazildi. O`tgan yillarda Navoiy, Bobur, Qodiriy, Behzod, A. Farg`oniy yubileylari nishonlandi. Aloxida tantanalar bilan xalqaro miqiyosda Ulug`bekning 660 yilligi, A. Temurning 660-yilligi, Imom Buxoriyning 1225 yilligi o`tkazildi. Yaqinda Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavalludi va «Alpomish» eposining 1000 yilligi keng nishonlandi, Ayniqsa qatag`on qurbonlarini begunox xotirasini tiklash katta ahamiyatga ega bo`ldi. Ular orasidagi ko`plab madaniyat arboblarning nomlari bor: Jadidchilik xarakatining yo`lboshchilari, shoir va yozuvchilar-Munavvarqori Abdurashidxonov, A. Fitrat, A. Cho`lpon, Razmiy Botu va boshqalar. Milliy an`analarni tiklash bo`yicha ham ko`plab ishlar qilindi. Navro`z, xayit kabi qadimgi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga qaytarildi. Xayr muruvvat udumlarini davom ettirish va yosh avlodni barkamol o`stirish maqsadida O`zbekiston respublikasi sog`lom avlod uchun jamg`armasini tashkil qilib, dastlabki ordenini ham atadi. Nogiron bolalar uchun «mehribonlik» kabi sahovat festivali muntazam shunday o`tkazib kelinmoqda. O`zbekistonda xalqaro kino-teatr va sharq taronalari kabi musiqa festivallari o`tkazish an`anaga aylanib qoldi. Xalq baxshichilik san`atiga e`tibor kuchayib Respublika konkrslari o`tkazildi . Shuningdek milliy kurishimiz xalqaro maqomga ega bo`lib, birinchi jahon chimpianati o`tkazildi. Xalq ichida yana

bir xurmatga ega bo'lgan kasb egalari o'qituvchilar bo'lib, ular yosh avlodni tarbiyalashda muxim ahamiyatga ega. Davlatimiz ular mehnatini qadrlab, o'qituvchilar kunini bayram qilib belgiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek madaniy qadriyatlaridagi vorislik jarayoni nafaqat milliy madaniyatlar rivojida vorislik bo'lmay, balki boshqa xalqlar madaniyatidagi yutuqlar umumlashtirishdan ham iboratdir. Markaziy osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning madaniyati qadim zamonlardan G'arb va Sharq mamlakatlari bilan yaqin madaniy aloqalar asosida rivojlangan. Madaniy hamkorlikning keng ko'lamli, etnik va diniy mazmundagi cheklanganlik vatanimiz madaniyatining asosiy xususiyatidir. Hozirgi davrda ham milliy madaniyatni tiklashga asosiy e'tiborni qaratgan holda O'zbekiston xalqi jahon madaniyati va tsivilizatsiyasini zamonaviy yutuqlarini egallashga xarakat qilib, jahon madaniyati rivojiga xissa qo'shmoqda. Bu borada jadal amaliy ishlar qilinmoqda: xalqaro konkris va festivallar o'tkazildi, Chet mamlakatlar madaniyat kuylari, san'at asarlari ko'rgazmasi namoish qilindi, xind malaniyati markazi, frantsuz madaniyat uyi singari doimiy faoliyat ko'rsatuvchi madaniyat markazlari ochildi, o'z o'rnida O'zbekiston madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari nazariy asoslash vauning jahon madaniyatidagi o'rnini munosib baholash ishtiyoqi ham kuchli. Buning dalili sifatida «Mirzo Ulug'bek va uning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan xissasi» (1995). «O'rta osiyo va jahon tsivilizatsiyasi» (1998). Kabi mavzularda o'tkazilgan mavzularda xalqaro konfrentsiya va seminarlarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston o'zining boy madaniy an'analari va jahon madaniyati jarayonlaridagi faol ishtiroki uning xalqaro miqiyosdagi mavqei tobora oshmoqda. Buning yaqqol misli 1997 yilda YuNeSKO ijroya kengashi a'zolariga O'zbekistonning saylanishi va 1998 yil 15-noyabrda Toshkentda YuNeSKO ijroya kengashining 155 sessiyasining o'tkazilishidir. Nda o'zbekistonning taklifi bilan

«Jahon madaniyat va YuNeSKO ning a'zo davlatlaridagi faoliyati» degan xujjat qabul qilindi. Jahon madaniyatining adralmas qismi hisoblangan milliy va madaniy merosni asrash va o'rganish rejasi bo'yicha O'zbekiston YuNeSKO biln o'zaro munosatlarini kengaytirish va Respublikada zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish mo'ljallanilgan.

Nazorat savollari

1. Madaniyatning tuzilishi nima?
2. Moddiy madaniyatning asosiy kategoriyalarini nomlab bering?
3. Ma'naviy madaniyatning qanday turlari mavjud?
4. Madaniyatning asosiy vazifalarini asrab o'ting va ularni tushuntirib bering.

Mavzuga doir adabiyotlar

1. I. A. Karimov Istiqloq va ma'naviyat. Toshkent. 1994.
2. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi, Toshkent. 1998.
3. Ahmedova E., Gabidulin R., Kul'turologiya, mirovaya kul'tura. Toshkent. 2001.
4. Gurevich P. S. Kul'turologiya. -Maskva. «Znanie», 1996.

4-Mavzu: Arxaik (ibtidoiy) madaniyat

ReJA:

1. Arxaik madaniyatning dastlabki namunalari.
2. So`ngi paleolit davri madaniyati.
3. Yangi tosh asri (neolit) madaniyati.
4. Jez davrida yangi davrdagi madaniyatning shakllanishi.

Mavzuga doir tayanch so`zlar va iboralar.

Madaniyatning asosiy shakllari, siyosiy madaniyat, siyosiy ong, siyosiy faoliyat, milliy istiqlol g`oyasi, xusuusi madaniyat, iqtisodiy ong, munosabat, faoliyat, ma`naviyat, ma`naviy madaniyat, estetik madaniyat, san`at, ilmiy bilish, ilmiy xaqiqat, ilm-fan, din, diniy madaniyat, vijdon erkinligi.

1.1. Arxaik madaniyatning dastlabki namunalari. *Arxaik yoki ibtidoiy madaniyat*- mavjud insoniyat madaniyatning ibtidosi vauning uzoq davom etgan davridir. Bu davr insoniyati tarixi umumiy qo`llamini 99% ini qilgan holda zamonavi madaniyatga beqiyos ta`sirini ko`rsatib kelmoqda. O`sha vqtda vujudga kelgan arxiak madaniyatning ayrim ko`rinishlari bo`lmish fikrlash tarzi, fe`l atvor hozirga qadar yo`qolgan emas. Insoniyat hayotining keyingi boshlang`ich davri keyingi barcha o`zgarishlar zamin to`g`dirgani bu davrni o`rganish insonyat evolyutsiyasi asoslarini, uning madaniyati negizini tushuntirish vasharxlashga yordam beradi.

Ibtidoiy bosqichdagi madaniyat rivojining qiyofasini qayta tiklash o`ta qiyin vazifa. «Shaxsiy guvohnoma, tarjimai xol, qiyofadan mahrum, sukunatdagi o`tmish, xodisasiz, «uzoq»

(F. brodel`) «Mudrok» (E. Lerua-Ladyuri) tarix uchn ideal na`muna kasb etib, tabii- ilmiy mantiqni yaratish, usullar miqdori yoki ijtimoiy- iqtisodiy tushunchalar va dastlabki (ibtidoi jamoa) ijtimoiy tuzim ta`limoti izoxlash uchun mo`ljallangandir» (Kulturologiya 1998).

Olimlar to`plagan ma`lumotlar 4 xil bo`lib:

1. **Antropologik va arxeologik topilmalar**- ibtidoiy odamning jismoniy vamaadaniy rivojlanishini, ovchilik jamoasining turmush tarzini yorug` olamga chiqardi. Bu ma`lumotlar o`ziga xos belgilari bilan emperik (tajriba) tahlilni yuzaga chiqaradi va ibtidoiy bosqichni umumiy qabul qilingan tavsifiga asos soldi:

Paleolit- qadimgi tosh asri.

Neolit yangi tosh asri.

Paleolit bosqichining o`zi ham ilk va sungi yuqori davrlarga bo`linadi. Shuningdek, paleolit va neolit bosqichining o`rtasi mezeolit-o`rta tosh asri davriga bo`linadi.

2. **Etnografik ma`lumotlar** - zamonaviy xalqlar va hozirgi vaqtda ovchilik vatermachilik bilan kun o`ruvchilarning hayoti haqida. Buma`lumotlar saqlanib qolgan arxiak madaniyat ko`rinishining etnik, ijtimoiy va ruhiy o`xshashliklar bo`yicha qayta tiklashga yordam beradi.

**4.2. So`ngi poleolit davri madaniyati.** Tosh asrining davri bundan 2,6 mln. yildan (kefiyaning Rudol`f qo`li sohilidan topilgan qadimgi tosh qurollari) to eramizgacha 2000 yilgacha mehnat qurollari jerdan tayyorlay

Boshlagan davrgacha) bo`lgan vaqtini o`z ichiga oladi. O`z navbatida poleolit bosqichidagi eng uzoq davr poleolit bo`lib, bundan 40-35 ming yil oldin tugaydi. Ilk poleolitda antropogenez sodir bo`lishi qazib topilgan gominit Qoldiqlarining alohida turlari yashagan davrlar uchun xizmat qiladi. (Zinjantrop, astralopitek, pitekantrop, sinantrop, neandertal va boshqalar) shuningdek, madaniyatning alohida ilk namunalari vujudga keldi, qo`pol tosh qurollari tayyorlash (kesgich, tosh nayza, qirg`ich) olovdan foydalanish, oddiy turar joylarning qurilishi, muomala vositalarining rivojlanishi, atrof muhit dastlabki murakkab tasavvurlarning vujudga kelishi.

Ditsentrizm farazi insoniyatni paydo bo`lishi ikki o`choq-Afrika va Osiyo bilan bog`laydi, Zero hozirgi vaqtda eng qadimgi odam qoldig`i ham Afrika mintaqasidan topilgan. Markaziy osiyo, xususan O`zbekiston xududida gominitlar ham xuddi ilk bor poleolit davriga oiddir. Arxeologik U. Ismoilov Selung`ir g`oridan «fergantrop» qoldig`ini yoyoshi 700 ming yilga teng.

Ilk poleolitning oxirgi davri ko`pincha alohida davrga ajralib yoki muste deb nomlanadi. Bu qonuniy xodisa bo`lib, must`e davrida madaniy ijodkorlik jarayonining o`sishi seziladi, ya`ni bu davrda neandertallar paydo bo`ldi. Neandertallar xududlarga tarqalib murakkab va turli xil qurollar tayyorlangan, eng muhimi ulardan ma`lum marosim va madaniyatni rivojlantirish boshlandi. Neandertallar yashagan g`orlardan ayiqning bosh suyagi topilgan, maxsus o`rnatilgan bosh supa olovdan qoraygan, unda ma`lim bir marosim va o`tkazilgan. Neandertallar qabri ko`pincha sharqqg`arq yo`nalishi bo`yicha joylashib, murda yonbosh uxlayotgan xolatda, tizalari engagiga qayrilgan, yoniga tosh qurollar qo`yilgan. Bu marosim udumi o`limdan keyingi hayot mavjudligi haqidagi tasavvurning madaniyatdagi eng muxim qadimgi va barqaro paydo bo`lganligidan dalolat beradi. Neandertal qabri O`zbekistonning Teshiktosh g`oridan (Sirdaryo viloyatidan) ham topilgan, shuningdek, o`sha davrga oid bo`lgan ko`plab manzilgoxlar ochib organilgan (Omanqo`ton, Zirabuloq, Obirahmat, Qo`lbuloq, Uchtut va bosh). Ilk poleolitda madaniy muhitning mavjudligi alohida joylar bilangina chegaralansa so`ngi poleolitda esa madaniyat tizimi sifatida shakllanadi. So`ngi poleolitning boshlarida gominit evalyutsiyasi zamonaviy «aqlli odam» turi paydo bo`ladi. So`ngi poleolitda turli-tuman tosh va boshqa qurollar notekis tarzda ko`payishi natijasida tarkibiy qurollar-tasma, uchlik, shungdek to`qimachilik paydo bo`ladi. Nixoyat, dastlavki tartibli ijtimoiy tashkilot urug` tashkil topdi. Bu inqilobning maxsuli insonlarning antropologik, ruhiy fizologik, ruhiy ijtimoiy va ma`naviy birligi bo`lib, insonlar uyushmasini iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, til, ma`naviy rivojlanishidagi tafavvutlarga qaramasdan tarixda saqlanib qoldi.

Gominitning uch (yillik evolyutsiyasi) million yillik evalyutsiyasi nixoyasidagi kuchli evrilish natijasida anglash, nutq, din, san`at, vujudga keladi. Arxiak madaniyatning xususiyati haqida uni xaqli ravishda «gomo sapiens» yaralganligiga

etnografik va arxeologik ma'lumotlarga asoslanib tasavvur qilish imkoniyatlariga egamiz. Birinchi navbatda biz, ibtidoiy odamning o'ziga xos fikrlash xususiyati haqida xukm chiqarishimiz mumkin.

Ibtidoiy odamning fikrlashini aniqlash, ta'sirchanlik butunlikda farqlanadi. Ibtidoiy odam asta sekin turli tashqi xodisalarni seza boshlaydi. U issiq va sovuqni, to'qlik va ochlikni, yaxshilik va yomonlikni xis qiladi, yorug'lik va qorong'ulikni ajratadi. Xodisalarni ro'y berishini kuzata boshlaydi. O. Freydenberg aytganidek, unda kuzatish ta'siroti ustun bo'lgan. Ibtidoiy odamning tasirchan aniq, tasavvuri xali xodisalarni umumlashtirish qobiliyatidan yiroqroq edi. U tevarak atrofdagi voqea xodisalarning mohiyatini tahlil qilmasdan faqat yuzaki qayd qiladi, narsa va jarayonlarga, ularning xususiyatlarga bir xil yondashgan. Ibtidoiy tafakkur uchun sababiy boqlanishlar o'ta shartli bo'lib, qandaydir xodisaning sababi tez-tez qaytarib turishi natijasida vaqt o'tishi bilan idrok qilingan.

A. N. Ramonovni ta'kidlashicha, «yozuvsiz madaniyatning o'ziga xos xususiyati-nutqning nnokategorial shalidir». Bu mustaqil faoliyat ning ijodiy manbalarini cheklovchi jarayon hisoblanadi. Insonga kerakli barcha yangilik va bilim faqat faoliyat jarayonida namoish qilish usulida berilgan. Shuning uchun ibtidoiy madaniyatning marosimga o'xshash shakllar ustunlin qiladi. A. Ramonov aytganidek, marosimi-aniiq va maqsadli faoliyat bo'lib, uni amalga oshishi ijtimoiy guruxlar nuqtai nazarida ishlab chiqarish faoliyati kabi saqlash uchun ham o'ta muhim xiso'lanadi. Marosim pramatikona va ma'lumot beruvchi emas, balki ularga berilayotgan ma'lumot berilayotgan ma'lumot emas, balki ularga berilayotgan ma'lumot to'liq holda bo'lib sz ham, san'at ham aralash xolda bir butunlikda namoyon bo'ladi.

So'ngi poleolit animistik e'tiqodlar va sexr-jodu ma'naviy madaniyatning negizi sifatida qat'iy rasmiylashtirdi. Qadimgi e'tiqodlarning shakllanishi manbaidan tabiatning tashqi ko'rinishi va odamlar jamoasi haqida tasavvurlarning uyg'onib ketishi ibtidoiy odam uchun xos bo'lgan inson va tabiatning sub'ekti va ob'ekti birligi ta'sirida, extimol jamoa nima bilan shug'ullansa o'shanga bog'liq bo'lgan xayvonlar, o'simlik, toshlar, ya'ni uning faoliyati doirasida nima mavjud bo'lsa barchasi uchraydi. Dunyoda yashayotgan barcha sehrgarlikni keltirib chiqaradi. Sexrgarlikni eng qadimgi turlaridan bir ovchilik sehrgarligi bo'lib, o'lja yaqinlashishi bilan uni tutish mashqini o'rganadi. Biroq, barcha xarakatlar faqat mashq bilan tugamaydi:- buni amalga oshirish jarayoni asosiy masala hisoblanadi.

Dastlabki sehrgarlik xarakatlari mazmunida totemizm- xayvonlar ajdodiga topishni keltirib chiqaradi. Ibtidoiy jamoa turmushi, ovi, urushi, xayvonlarni tutib eyishi, tug'ilish va o'limni umuman inson hayotini totemistik, ya'ni, totemlar kurashi to'qnashishi orqali tasavvur qiladi. Bu tasavvurlar oqibatida kosmogonogik manzara asos osladi, qaerda totem-koinot borki eydi, yo'qoladi va teriladi, qarilari koinot o'rniga yoshlar keladi. Ularning o'irn almashishi va yasharishi tirilishning borligi o'limdadir.

Sehrgarlikka o'xshash hayot nafaqat faydo bo'layotgan tushunchalarni o'zida jamlaydi, balki madaniyatning eng qadimgi shakli bo'lib qoldi. Undan hozirgi vaqtgacha olamni o'zida aks etgan din, san'at, fan sohalari paydo bo'ldi. Barchasi

suyakka chizish va naqsh solish, xaykaltaroshlik, belgi muxr bosishbo'yoqli xoshiyalar chizish, g'or devorlariga betartib chiziq shakllardan bohlanadi va natijada mashhur Al'tamir, Lasko, Manotaspon va boshqa g'orlardagi tasvir va boshqa galereyalar vujudga keladi. G'or tasvirlari tabiiy, aniqrog'i xyotiy aks ettirilgan, otlar, yovvoyiy qora molar, momantlar o'ta yorqin tasvirlangan. Poleolit kishisining tasvir faoliyatida nafosat uyg'unligi yoki rasm yozuvlar (lintografiya) emas, balki tasvirni «fotografik» tarzida ifodalash ustun bo'lgan. Bu tasvirlar marosim tavsilotlaridir. Mashhur san'atshunos A. Arnixeymning takidlashicha poleolit davrida hayotiy zarur vazifani bajargan. U kishiga mislsiz kuch baxsh etib, tirk mavjudod narsalardagi ma'nosizliklarga «sehr baxsh» etish imkoniyatini eratgan. Ibtidoiy odam chizilgan tasvirga jonivorlarning joni o'tadi, shu tufayli ularga ta'sir qilish mumkin deb o'ylagan. Arxiak san'at insonni xayvonlar ruxiyati bilan qiziqishdagi alohida vosita bo'lib, unda xaqqoniyat va marosim uyg'unlashib ketadi.

O'zbekiston xuddida uni poleolit davriga oid g'oyaga solingan tasvir na'munalari uchramasada, ushbu davrga tegishli 30 dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan, jumladan Samarqand manzilgohi, Ohangarondagi tosh qurollar, tayyorlangan «ustama», Ko'kbuloq va Oqtosh manzilgohlari.

G. Chayldning ta'kidlashicha bundan 10 ming yilcha oldin neolit yoki agrar inqilob sodir bo'ladi. U eng avvalo, Old Osiyo va yaqin Sharqda sodir bo'lib, dexqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi bilan bog'liq. O'troq turmush tarzi ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To'qimachilik, qulolchilik, uy-joy kurilish paydo bo'ldi. Tabiiy tanlanish o'simlik navlari va xayvonlar zotining o'zgarishiga asta-sekin, an'anaviy takrorlanuvchi muvafiqlikni paydo qildi. Agar soha astranomik kuzatishlarni tartibga solishni talab qiladi. Bu davrda insoniyat tafakkurining rivojlanish mifalogiyani shakllantirdi.

4.3. Yangi tosh asri (neolit) madaniyati. Mif va mifalogiyani qadimgi e'tiqodlardan farqi, olamdagi barcha mavjud munosabat va qadriyatlarni o'ziga oladi. Bu o'sha davrlari bilishni o'ziga xos nazariy asosi va maxsus shaklidir. Negaki bilim yorqin-rang-baranglik, ifodalilik, jo'shqinlikdir. Mifalogiya dastlabki bosqichda kishilar uchun bilim o'rganish va mustahkamlashning yagona manbai va usuli emasligi dargumon. Biroq, L. S. Vasilev ta'kidlashicha, bilimni mustahkamlash bu mifni o'rganish yo'li bilan emas balki uning udumlari, marosimlarining amalda takrorlanib tarqalish sodir bo'ladi. Mif va marosim arxiak madaniyatning go'yoki ikki tamoni ya'ni-so'zdagi xarakatdagi, nazariy va amaliy. Mifalogik bilim ilmiy xaqiqatga ma'lum miqdorda dahldordir.

Mifalogik bilimning ikkita asosi ijtimoiy vazifalari mavjud:

1. Ushbu umumiylikning asosiy vazifasi, ularni odatiy uishilar ongiga kirgizish va mustahkamlash, xususan, shakllangan qoidalarni tasdiqlangan, qununiylashtirish va xatto jamoani tiklash va barqarorlikni ta'minlash uchun ularni an'anaga aylantirish;

2. Jamoaning qo`rquvidan xalos qilish maqsadida va ruhiy halovatni kafolatlashda atrof-muhit bilan, butun tashqi olam bilan mustahkam aloqa o`rnatish va ta`minlash.

*Mif olamni mavjud g`oyalardan buzilgan tarzini o`zida namayon qilib, noaniq va quruq muhakamalarning shakllanishiga imkon beradi ya`ni, daslabki davrda insonni uni ulg`ayib kundalik fikrini chalg`itib xayoliy noeti olamga olib kiradi.* Mif olami jamoa bo`lib, no`anaviy xis qilishdir, negaki, shu alfozda u xar doim ilk diniy tasavurlar negizi hisoblangan. Mif dunyoqarashning zaruriy , muqarrar shaklidir. Umum ta`savvurlar umum shakllanishiga sabab bo`lolmaydi va xissiy tajriba-kuzatishlar uchun ham, noaniq- mafhim mulohazalarga ham asos bo`lolmaydi. Guruhlar tushunchasi eng avvalo butun birlikni o`ziga qo`shib xissiy qayg`urishga tayanadi.

Axborotlar xajmini behad o`sadiganligi uni uzatishning yangi kanallarini yaratishini talab qiladi. Miflarning paydo bo`lishi mavhum tushunchalar vujudga kelganligi haqida, insonning nutqirivojlanayotganligi to`g`risida guvohlik beradi. Bunga bir misol tasavvur san`atining rivojlanishidir: rasmlar bir qator aniqlashib, soddalik vashartlik kuchayib boradi. Tasvir ko`proq razmiylik belgi xususiyatini kasb etib, buning yordamida axborot berish mumkin bo`ladi. Topilgan netrogliflar insonlar jamoasining hayot xodisalari haqida etarli, mufassal xikoyalarni o`zida saqlanib kelgan. Bunday tasvirlar misol qilib Surxandaryoning Zarao`tsoy darasidagi qoyatosh rasmlarni ko`rsatish mumkin. Bilimlarni saqlash va uzatishining yana vositasi jamoaning alohida a`zolari, boshqa kundalik ishlardan ozod qilinib, faqat ma`lumotlarni yig`ish, saqlash va uzatish bilan shug`illangan. Bunday kishilar shamanlarga aylangan. Shamanlarni ko`p yoyoshi urug`, hayotiy bilim va tajribalar ega tabiatni kuzatib o`zlashtirgan marosim va uddumlarni biluvchii kishilar bo`lgan. Masalan shimoliy Amerika xindularining adjidve qabilasi va shamanlari o`z yashayotgan joyining ov qilish shartlarini xayvonlarini o`ziga xos fe`lini puxta o`rgangan, ovdan qaytgan ovchilardan har doim surishtirib o`z bilimini oshiradi. O`lashtirgan ma`lumotlarni shamanga to`g`ri qaror chiqarish imkoniyatini berib, shu tariqa u qabila urug` a`zolari ichida obro`ga ega bo`lishiga va natijada sehraganlikn udumlarini bajaruvchi asosiy ijrosida aylanib qoladi.

Markaziy osiyo mintaqasida neolit mintaqasida neolit davri ancha oldin boshlangan. Bunga mil. Avv. V ming yillikda Konpetdot etagida vujudga kelgan **Joytun madaniyati** guvohlik beradi. O`troq dehqonlar va chorvadorlarni ng bu madaniyati asosan samonli loydan qurilgan uylardan iborat manzilgoh bo`lib, Eron va Mesopatamiya madaniyati rivoji haqida katta umiy ibodatxona devorlariga ishlangan rang tasvir dalil bo`ladi. Mil. av. IV-III yillikda Xorazm xududida neolit davriga oid **Kaltaminor madaniyati** shakllandi.

**Neolit inqilobi mohiyatiga ko`ra arxiak madaniyatning oxiri hisoblanadi.** Ishlab chiqarish faoliyatining yangi turi dexqonchilik vachorvachilikka o`tish bilan inson tabiatda mustaqil faoliyat ko`rsatish qobiliyatini namayon qildi, bu insonning ijtimoiy va ma`naviy g`alabasi edi. Agar arxiak madaniyatda jamoat fikri etakchi qilib uruq a`zosi, urug` manfaatlari doirasida faolyat ko`rsatgan bo`lsa, endi bu individal ong va qiziqish kuchaya boshladi.

4.4. Jez davrida yangi trdagi madaniyatning shakllanishi. Neolit davrining oxiri va jez asrida madaniyat arxiak madaniyat barxam topdi. Bu davrda jamoa mulki o`rniga xususiy mulk vujudga kelib xunarmandchilik ajralalib chiqadi va ayriboshlash shakllandi. Ijtimoiy tuzim shakli murakkablashadi Mustaqil xo`jalik yuritishda muvafiqlashtirishni kuchaytirish zarurati, ko`picha jamoaning boshqa a`zolari va qabila oilalar bilan qarindoshlik rishtalarini bog`langanligi maxsus boshqaruv apparatlarini tuzishini talab qiladi. Endi oqsoqolar va qabila yo`lboshchilari yig`ining ahamiyati sezilarli oshdi, bu qabila yo`lboshchilariga sig`inishni shakllantira boshladi. Yo`lboshchi qabilaning bax-saodat sohibi, ajdodlar ruhi unga tuxfa qilingan masus fahzilati oad egasi sifatida demokratiya belgilariga xurmat saqlaydi. Yo`lboshchilarga sig`inishda yo`lboshchining jamoa hayotida tutgan muhim o`rnini etirof qilish ifodasi turadi: -U nafaqat qabila xududini qo`riqlashni tashkil qilib qolmay xarbiy yurishga ham boshchilik qiladi ham, Shuningdek muhim jamoat ishlarini boshqarish uchun xonadonlarni birlashtiradi va jalb qiladi. (Kanal, qizish, muloxaza to`sig`lar o`rnatish, yaylov, o`rmon, daryolar kabi umum foydalanadigan mulklar uchun).

Bilimning oshishi natijasida murakkab buyumlar yaratila boshlandi qayiq va elkanli kemalar, taqvim, hisob va o`lchov tizimi vujudga keldi. Xususiy mulkchilikni paydo bo`lishi xuquqning shakllanishiga olib keladi, ayrimlari hozircha saqlanib qolayotgan an`analar va qadimgi fol`klor na`munalari vujudga keldi. (miflar, doston, xikoyalar, marosim qo`shiqlari), yozuvning ilk tizimi shakllanadi: piktografik (rasm-yozuv), belgi yoki xindularni tugunligi yozuvlari Molnimental me`morchilik ham vujudga keldi. Ilk monmental inshootlar katta tosh bo`lak va plitalardan qurilgan megalitlar hisoblanadi. Megalit inshootlarining turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan mangirlar baland baland toshdan imorat qilib, balandligi 20 metrdan oshadi, ular alohida yoki xiyobonlarga qator qilib qag`urilgan. Dolmenlar (tosh maqbaralar) sag`ana yoki maqbara (kulba) shaklida qurilgan. Kromlenlar esa atrofiga toshlar yotqizilgan inshootlardir. Eng mashhur kromlen Buyuk Britaniyadagi Stoyne xendj hisoblanadi. (Mil. Avv. 11 asr boshlariga oid) Megalitlar saajdagoh va ibodatlar joyi sanalsada, aslida ular boshqa maqsadlar uchun mo`ljallangan. Megalitlar xalqlarni birlashtirib, jamoaning barcha kuchlarini jipslashtirishga, yangi ijtimoiy tuzim vujudga kelayotgan hollarda insonlarni umumlashtirishda ((Sotsializatsiya) maqsadlariga xizmat qiladi. Negaki davlat tuzilishi jarayonida turli ijtimoiy qatlamlarni bo`linishi sodir bo`ladi; boshqaruvchilar, ma`naviy madaniyat bilim egalari koinlar va oddiy bajaruvchilar.

O`zbekiston xududdida jez davri mil. Avv. II ming yillik boshlarini o`z ichiga oladi. Xuddi shu davrda ikki turdagi mustaqil madaniyat shakllanib aniq ajraladi, o`troq dehqonchilik vohalaridagi madaniyat ko`chmanchi dashtlar madaniyati. O`troq dehqonchilik madaniyati dastlabki Surxandaryo vohasidan Sopolitepa Jarqurg`on madaniyatlarida, Farg`ona vodiysidagi Chust madaniyati Zamonbobo, Tozabog`yob, Suyarg`ab va Amirobod kabi joylarda vujudga keldi.

O`zbekiston janubi Surxandaryo viloyat`ida hozirda ham mashhur bo`lgan ustalar, zargar va san`atkorlar-quruvchilar yaratgan madaniyat eng qadimgi madaniyatdir. Mil. avv. XVIII-X ming yillikka oid sopolitepa va jarqo`rg`on

manzilgohlarida qadimgi sharq turidagi ilk shaxarnoma tsivilizatsiyasi shakllanishi va rivojlanishi kuzatildi. Sopolitepa Labirintnoma (qasr)to`g`ri burchakli ko`cha tarmog`i va istexkom tizimi bo`lgan manzilgohlar majmuidan tashkil topgan. Jarqo`tonda ham moneumental me`morchilik shaklida hom g`ishdan qurilgan. Har bir guzarda yumaloq o`choq shaklida devorlar tokchasida olov mehrobdan iborat sig`inadigan markazi bo`lgan. Ikkala manzilgohda jez eritish, to`qimachilik,kulolchilik, zargarlik, suyak,tosh, yog`ochga ishlov berish gullab yashnagan. Turli kulolchilik buyumlarini kulolchilik dastgohida pishirib tayyorlaganligi, shaklning chiroyliligi kulolchilik sohasiningt texnika va texnologiyasini yuqoriligidan dalolat beradi. Topilgan na`munalardan ma`lum bo`lishicha O`zbekistonning janubida yashovchi aholi qadimgi sharq, ayniqsa xind vodiysidagi Xarappa tsivilizatsiyasi namunalari bilan keng hamkorlikda bo`lgan. Buni sopolitepa va jarqo`ton shuningdek, O`zbekistonning boshqa dehqonchilik madaniyatida ham uchratish mumkin.

Bronza davrida shakllangan «dasht ko`chmanchilar» madaniyati mil. Avv. III ming yillik oxiri II m.y. boshlarigat oid bo`lgan buxoro vohasidagi Zamonbobo manzilgohida o`rganilgan. Zamonbobo katta yarim erto`lalarda yashab bronza va tosh qurollari ishlatishgan. Qulolchilik dastgohisiz qo`lda tagi yumaloq,yassi sopol idishlardan foydalanilgan. Jez davrida madaniyat yodgorliklari Amudaryo va Zarafshonning kuyi oqimidan, Toshkent vohasi, Farg`ona vodiysi Samarqand viloyatidan topilgan. Ular chorvador qabilalar madaniyatining vujudga kelishi haqida qimmatli ma`lumotlar beradi. Chorvador qabilalar jez davrida o`troq turmush tarziga o`ta boshladi, qisman dehqonchilik bilan shug`illanadi, keyinchalik ko`chmanchi chorvadorlarga aylanishgan.

Arxiak madaniyat o`rniga qadimgi tsivilizatsiya madaniyati o`rnatildi: murakkab ijtimoiy tizimga ega bo`lgan dastlabki davlatlar, diniy va qonunchilik shakllarning rivojlanishi, shahar va yozuvlar, biroq arxiak madaniyat izsiz yo`qolmadi. Uning ayrim qirralari jahon xalqlari miflarida, fol`klarida ,inson ruxiyatini chuqur arxiteplar da saqlangan. K. Yungning nazariyasiga ko`ra arxiteplar-ongsiz jamoaning ruhiy tuzimidir. Ular zamondan tashqari namayon bo`lib, shunga muvofiq tarzda qiyofalar, yashagan va yashovchi kishilarning tuyg`usi va fikri shakllarida, rasmiy tasvirlarida,miflardan aks etgan jamoaga xos bo`lgan tarixiy tajribalarda olamni anglashni ibtidoiy shakllari saqlangan. Kishilar ko`pincha o`zlari payqamagan holda uyoki bu an`analar bilan, ulardagi arxitipik va ramzlardan ajralagan holda yashaydilar. Barcha zamonaviy madaniyatlar asosidagi buchuqur negizni sezish va o`rganish hozirda sodir bo`layotgan jarayonlarni yaxshi tahlil qilishimizga, ma`lum ma`noda kelajakka nazar tashlashimizga yordam beradi.

Nazorat savollari

1. Siyosiy madaniyatning mazmun-mohiyatini ochib bering.
2. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy madaniyat qanday rol` o`ynaydi?
3. Ahloq madaniyatning ma`navitya tizimidagi o`rni qanday?
4. Estetik madaniyat nima?
5. Ilm-fanni madaniy qadriyat deyish mumkinmi?
6. Shaxsni ma`naviy tarbiya qilishda dinning roli.

5-Mavzu: Sharq uygʻonish davrining oʻziga xos xususiyatlari

Reja

1. Qadimgi sharq madaniyatining vujudga kelishi shart-sharoitlari.
2. Qadimgi sharqning dunyoqarashi va tafakkurini oʻziga xosligi.
3. Qadimgi sharqdagi yirik madaniyat markazlari. Misr, Mesopatomiya,

Mavzuga doir tayanch soʻzlar va iboralar.

Madaniyat zonalari sub`ektura, konkratkultura, yoshlar madaniyati, omma madaniyati, ijtimoiy protez, elitar madaniyat, ijtimoiy-madaniy mexanizm, reprezentativlik, ijtimoiy sub`ektning ehtiyojlari.

5.1. Qadimgi sharq madaniyatining vujudga kelishi shart-sharoitlari.

Qadimgi Hind, Xitoyning oʻziga xos qiyofasi. Qadimgi sharq xududida mil. avv. X-VII ming yillikda insoniyat tsivilizatsiyasi va madaniyat rivojlanishining ibtidosi bilan bogʻliq boʻlgan eng muhim jarayonlar roʻy beradi. Bu davrda sharq madaniy faoliyatining turli shakllari va sohalari vujudga keladi. Yozuv, adabiyot, sanʼat, fan, birinchi jahon dini buddizm paydo boʻladi. Bu boshlangʻich jarayonsiz insoniyat madaniyatining keyingi barcha taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin.

1. Qadimgi sharq tushunchasi, sharq haqidagi hozirgi tasavvurlarga mos kelmaydi. Negaki qadimgi sharq er sharining Misrdan to Xitoygacha keng mintaqasini oʻz ichiga olib, bu erda mil. avv. VII ming yillikdan boshlab insoniyattarixida dastlabki tsivilizatsiya vujudga keladi. Madaniyatning shakllanishi eng yirik doryolar-Nil, Dajla, Frot, Gang, Xuanxe va Yantsi vodiysida, dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud boʻlgan joylarda roʻy berdi.-Xuddi shu joylarda dastlabki davlatchilik tuzilmasi, siyosiy, diniy va savdo markazi sifati shaharlar, yozuv vujudga kelgan. Bu erda dastlab maʼnaviy madaniyat ishlab chiqaruvchi mehnat faoliyatidan bevosita ajralib mustaqil faoliyatga aylanadi. Jamitya hayotida alohida kishilar hayotida boshqaruv, taʼlim, maʼlumotlarni toʻplovchi va uzatuvchi sohalarda shugʻllanuvchilar ajraladi va koʻpayib boradi.

Misr, Mesopatomiya, Xind va Xitoy tsivilizatsiyalari eng yirik va koʻhna madaniyatga ega boʻldi. I. P. Veynbergning takidlashicha qadimgi sharq madaniyati ilk kashfiyoti vaasoschi ulkan missiyani bajardi; yozuvni ishlab chiqish va davlatchilik poydevorini qurish, oʻzinirning etnik, kasbiy, mulkiy va ijodiy ahvoli bilan farlanuvchi kishilarning birga yashashlari uchun sharoit yaratdi. Agar boshqa madaniyatlar ibtidoiy va qadimgi Sharq madaniyatining tajriba va yutuqlaridan foydalangan boʻlsa, qadimgi sharq madaniyatining oʻziga esa ibtidoiylikning bir tarzda shakllandi. Ibtidoiy muhitning taʼsiri uchun kuchli va doimiy boʻldi. Ibtidoiy davrdan meros boʻlib mifalogik fiklash usuli, nutq va va faolyat oʻtdi. Shugʻ bilan birga qadimgi sharq madniyati namunalari oʻz dunyosining boshlovchisi yangiliklarni oʻziga xos jiddiy xis qiladi. Misr Sesopatamiya, Xind va Xitoy miflarida nafaqat Dunyoning yaratilishi (osmon,er, jonivorlar, inson) mavzui balki, burivoyatlar

olamida ibtidoiy dunyoning keskin farqlovchi madaniyatlarning yaratilishi, mavzui ham katta o`rin egallaydi. "Enklar va koinot" (Mesopatamiya), tangri ptax haqida (misr), Xitoyning afsonaviy xukmdori haqida miflarda xudolar ilk ajdodar dehqonchilik vaxunarmandchilik kashfiyotlari, ilk shaharlar bunyodkori, davlatchilik va dinni yaratuvchilar, qonun va yozuv ijodkorlari sifatida ya`ni ibtidoiylikdan farqlanuvchi tsivilizatsiyaning barcha yutuqlarini yaratuvchilar bo`lib tasvirlanadi. Shuningdek miflardi bir-biriga mos kelmaydigan, qarama-qarshi va bu ikki dunyoning udshmanligi mavzui ham tasvirlanadi.

5.2. Qadimgi sharqning dunyoqarashi va tafakkurini o`ziga xosligi.

Qadimgi sharq xalqlarning urf-odatları va e`tiqodları haqida ma`lumotlar turli manbalarda, adabiyot va san`atyodgorliklari saqlanib qolganki, bular bizni tasavvur dunyomizdan keskin farq qiluvchi olamga boshlaydi. Qadimgi sharq madaniyatining shakllanishida mifalogik tasavvur katta rol yo`nagan.

Mifalogik tafakkur- predmedlik, xissiy, jonli tafakkur etarli rivojlanmagan mavxum tushunchalargi xos bo`lib, bunday tushunchalarin ishlatish va so`zda ularni ifodalashni sutligi qiyinligidir. (Shumerliklar o`ldirish deyish o`rniga boshga tayoq bilan urish deyishgan).

Qadimgi sharq kishisi sababli natija munosabatlarni tushungan va farqlagan, biroq ularni mujmal va qonunga mos bo`lmagan xodisa sifatida ko`pchiligi esa shaxsi qudrat sifatida ongli va ixtiyoriy idrok qiladi. Sabalarni izlashdaqanday deb emas, balki kim deb so`rashadi (Xodisa kim aybdor), ixtiyoriy aniq maqsadda xarakat qilaganni izlashgan. Sabablarni bunday idrok qilish mifalogik tafakkur ayrim va butunicha, bir-biriga o`xshash har qanday tashqi moslikni qabul qiladi. Funktsional aloqadorlik sifatida makon zamondagi har qanday har qanday bog`liqlik so`zi bilan mifalogik tafakkurning fikran bog`likligi haqida gapirishgga imkon tug`iladi. Fikriy bog`liklik bilan o`xshash tafakur ham aloqador. Qandaydir yangi narsalarni ko`rib inson o`ziga deydi: "bu yangi narsa nimaga o`xshaydi?"-va unga o`xshash narsani o`zidan va ajdodlarini tajribasidan izlaydi. Xususan, asl namuna tamoiyili keng tarqalgan bo`lib, unga kra hayotdagi barcha muhim narsalarni (ehtimol, podshoxokimiyati, inson) ilohiy qudratning asl qudratining asl namunasiga muvafiq yaratilgan.

Olamni mifalogik tasavvur qilish uning nihoyatda tartibli, qat`iy ierarxik ifodalanib, uning asosi turli xil oppozitssiya lar tizimi hisoblanadi. Aynan shular mifalogiya ramziy tansiflashdagi dastlabki poydevor xisolaniqlanadi. (qarama-qarshi tiplar: yuqori- kuyi, o`ng-so`l, osmon-er, mag`rib-mashriq, kun-tun, biz-ular, katta-kichik, erq-xotin, hayot-o`lim va boshqalar). Shuningdek, o`ng, yuqori, katta, yaqin, o`z, yorug` tamoiilga ko`ra qarama-qarshilikning munosabat-ijodiy tamonini, so`l, kuyi, uzoq, begona, qorang`u esa salbiy jihatini tashkil qiladi.

Mifalogik tafakkurning muvofiq va o`xshash jihatilari uning an`naviyiligi bilan bevosita bog`liq. An`ana bir-biriga bog`liq va yaqin, biroq mohiyatan boshqa bo`lgan xodisalar urf-odat, marosim, ibodat, udum, odob singarifaoliyatda namayon bo`ladi. Bularning bari u yoki bu sinsatsiyadagi aniq ahloq dasturiga ega bo`lib, xarakatning noto`g`ri xarakatlarni ogohlantiradi, negaki an`nanlar negizida sotsiumning katta tajribasi mujassamdir.

Qadimgi Sharq madniyatida anʼanalarga asoslanish ustun turadi. Ajdodlar anʼanasi, tajribasi mutloq xaqikat xukmronligi bilan, D.S. Ixachev taʼkidlashicha «odoblilik» bogʻliq boʻlgan.

Qadimgi sharq kishisining ahloqi xarakat va faoliyatda muqaddas anʼnalarni qayta tiklashga, qaratilgan «iloxiy oʻrnatilgan» meʼyor va qoidalarga borib taqaladi. A. Ya. Gurevich shunday deydi: «Kishilar xarakatining koʻkdagi iloxiy timsolga takrorlanishi ularni iloh bilan bogʻlab, ahlagʻda voqealikka aylandi». Kishilarning barcha faoliyati (ishlab chiqarish, jamoatchilik, oilaviy) muqaddas marosimlarda qanchalik ishtirok etishi bilan mazmun kasb etadi. Anʼnaviy jamiyatda «qadimgi» va «yaxshi» soʻzlari sinonim boʻlib, qadimgi ezgulikni kafolatlidir. Shuning uchun uy va anjom, kiyim va ozuqa ming yillar davomida kam oʻzgardi, shuning uchun adabiy janrlar, sanʼat janrlari ham barqaror boʻlib kelgan, yangi ehromlar, nafaqat eskisini oʻrnida qad rostladi, balki ularning «asl namunasining» qaytadan tikladi.

I.V. Klochkov yozishicha, yangi zamon kishilari dunyoni xarakatda, rivojlanishida koʻradi, «Evolutsiya», «taraqqiyot» taraqqiyot tushunchalari qiyofasini yaratish uchun yoʻl ochuvchi tasniflar hisoblanadi. Bundan barcha yangilikka zamonaviy jamiyatning ochkoʻz qiziqishi boshlanadi. Dunyoning boshqacha qiyofasi anʼnaviy jamitya kishilaridan tashkil topadi: Qadimgi dunyo yashaydi, biroq oʻzgarmay qoladi. Rivojlanish gʻoyasi (taraqqiyot yoki inqiroz) koʻrinishidan uning anglanishi shi mutloqo begona. Dunyo juda qadimdan xudolarbelgilagan oʻzgarmas tartib boʻyicha yashaydi.

Mifalogik tafakkurning oʻziga xos xususiyatlari shundaki, qadimgi sharq kishisi oʻzini har doim sotsiumning bir qismi deb xis qilgan, sotsium esa koinot kuchiga bogʻliklikda, tabiatga aralashgan holda koʻrinadi. Garchi, qadimgi sharq madaniyatining turli qirralarida shaxsni individuallashtirish imkonatlari mavjud boʻlib, ular har doim individning turmush tarzini belgilovchi asosiy sohalarga nisbatan ikkinchi darajali hisoblangan.

Qadimgi sharq makonining paydo boʻlishi chegaralanishi alohida oʻrin tutadi. Qadimgi sharq mifalogiyasida kosmonegiz jarayoni xavosining jaralishi sifatida namayon boʻladi. (mislol uchun, xindlargga Indra haqida mif, Mesopatamiyada marduq haqida). Tartibli uyushgan makon, betartib makonga qarama-qarshi qoʻyiladi. Tabiiyki tartibli, tashkiliy jixatdan uyushgan «xunuk» makoni-koʻchmanchilik, ibtidoiylik dunyosi joylashgan. Shuning uchun sanʼat asarlarida boshqa xalqlarning oʻziga xos kiyimi, qirrasilda qarama-qarshi olamning farqi taʼkidlanadi.

«Oʻzining» makonida ijobiy xususiyatga ega boʻlishi davlat asosiy rol oʻynaydi. Shuni takidlash joizki, qadimgi sharqda davlat oddiy siyosiy xokimiyat sifatida oʻzini namoyish qilmadi, davlat din bilan uygʻunlikda siyosiy-diniy birlik majmuida muqaddaslik xususiyatiga ega boʻldi. Mohiyatan maʼnaviy faoliyat davlat manopologiyasi hisoblanib, u bilan goʻyoki ilohiy yoki fidoiylik martabasiga ega boʻlgan zadagonlar, koxinlar xukmdorning oʻzi tamonidan amalga oshirilgan. Shoh er osmon oʻrtasidagi bosh vositachi yoki neb xudosining oʻgʻli boʻlgan, xudolarning oʻzidan boshqarishga «mandat» olgan. Vavilon shohi yangi yil bayramida bosh xudo Marduk ibodatxonasiga borgan. Ibodatxonasiga kirishda kixin shohining barcha narsalarini olib qoʻyib, (toji xassasi, shohlik libosi), uni kamsitgan va urgan, soʻng

oyoq kiyimsiz, oddiy juldir kiyimda ibodatxonadan chiqishga ruxsat berilgan. Ya'ni dastlab shoh oddiy odamga aylanishi, ibodatxonada esa uni xudo marduk yana keyingi yil uchun xukmdor qilib saylangan. Faqat Misr fir'avini uning otasi-Xudo Amon-Raga, Xitoy imperatori «Nebning o'g'li»-Nebga sajda qilishi bilan bog'liq asosiy udumlarni o'tkazish xuquqiga ega bo'lgan.

Shohning asosiy majburiyatlari fuqorolarga bog'liq-ishlar bo'lgan: mamlakatda tartib va osoyishtalik, moddiy faravonlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash. Qadimgi Misrdagi «Geroklionol shohining o'z Merikarga nasixatlari» da aytilishicha: «Xaqiqat o'rnat va erda uzoq yashaysan. Shunday qilki, yig'layotganini ovut, bevaga jarb qilma, insonni otasining mol-mulkdan benasib qilma» Yana xukmdor zamirida tartib- intizom bo'yicha yuksak missiyasini bajarib, gohida ehad katta xajmdagi qurilish xo'jalik faloiyatini amalga oshirgan. Ulug' va baxaybat Misr piramidalari, buyuk xitoy devori, baolbek ehromi, Persepol sroyi qurilishlari xudolar oldidagi xukmdorlarning «ijobiy» xususiyatlaridan dalolat beradi.

Diniy aqidalar xukmdorligi kishilar hayotini belgilaydi. Inson qaerda osmon bo'lsa-xudolar dunyosi va erni odamlar dunyosi deb bildi. Ular doimo o'zaro munosabatda bir butunlikda olam daraxtining tanasi vashohlari kabi viqor bilan yashashgan. Xudolar insonlar hayotining barcha sohalariga faol aralashgan, uning tug'ilishi, o'limini va o'limidan keyingi taqdirini belgilagan. O'sha davrlarda diniy ta'limotdan tashqari xech qanday boshqa dunyoqarash bo'lmagan. Inson xudolardan xatto arimas narsalar haqida maslaxat so'ragan va unga xatlar yozib ibodatxonagga olib borgan. Misol uchun, Qadimgi bobil aholisining maktublaridan birida shunday so'zlar bitilgan: «Mening otam, Xudo ayt! Sening quling Apil-Adat shunday deydi: nimaga sen menga e'tibor qilmaysan? Mendan boshqa kim ham bor? Seni sevuchi xudo Mardukka yoz mening gunohimdan o'tsin».

5.3. Qadimgi sharqdagi yirik madaniyat markazlari. Misr, Mesopatomiya.

Barcha qadimgi Sharq tsivilizatsiyalari tabiiy- ilmiy bilimlar to'plab ulkan natijalarga eirshib va jahon fani rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Bizgacha etib kelgan nepirus yozuvlari misrliklarni matematika va geometriya (turli shaklning xajmi va yuzasini o'lchash), astronomiya (aniq quyosh taqvimining tuzilishi, miya va qon tomirlari haqida ma'lumot jarohlik), Kimyo(turli moddalarni xususiyatini o'rganish vabilimlardan maytni kimyolashda fooydalanish) sohalaridagi keng tushunchalari haqida dalolat beradi. Atrofdagi mamlakatlarga mesopatomiya matematikasi va astronomiyasi katta ta'sir ko'rsatdi. Hozirga qadar biz Mesopatamiyada tuzilgan vaq va burchak o'lchovi uchun 60 bo'lakli tizimdan foydalanamiz. Mesopatamiyaliklar matematika va astronomiyaga oid kashfiyotlar qilib, oy fazalarini bo'lish tizimini yaratdi, quyosh tizimiga oid jaryonlar, yulduz va sayyoralar ro'yxati, ko'plab xarakat xolatlarini aniqlash bo'yicha yangiliklar kiritdi. Ikki daryo oralig'i-astrologiyaning ham vatanidir.

Qadimgi xind va Xitoy fani ham ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Xindistonda noldan foydalanib o'nlik sanoq tizimi yaratilishi bilan algebra rivojlana boshladi(son, tub son, Sinus kabi atamalar xindistonda paydo bo'ldi). O'lim sababini aniqlash maqsadida murda tanasini anatomik tadqiq qilish tajribalari anatomiya va fizologiyani rivojlantirib, meditsinada katta yutuqlar erishildi.

Xindistonda tibbiyot taraqqiyoti haqida tibbiyoga oid asarlardan biridajarahlikning 300 turi bo'lganligi va 120 ta jarrohlik asbobi mavjudligi eslatildi. Barchasiga ma'lumki, Xitoy, Ipak, chinni va qog'ozning vatani hisoblanib, mil.avv.II asrda kashf etilgan, shuningdek Xitoyda paroh, kompas (mil. avv. 613 yilga tegishli Xitoy qo'lyozmalari topilib unda Galley kometasi haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar uchraydi. Mil.av. II asrda Xitoyda osmon yoritqichlarining xarakati tasvirlangan birinchi osmon globusi, 2500 yoritqichning o'rni ko'rsatilgan yulduzlar atologini yaratilgan. Yangi taqvim joriy qilinib (mil. av. 104 y). Unga ko'ra bir yil 365 chi kunga teng bo'lgan. Mil. av. 28 yilda Xan imperiyasining astranomlari quyoshda dog'lar borligin kuzatganlar. Xitoy matematiklari tarixda birinchi bo'lib hisobda manfiy sonni qo'llaganlar. Tibbiyotda igna ukoli, nuqtali davolash kabi ajobiy ishlab chiqqanlar.

Bir tamonda Misr va Mesopatomiya fani, boshqa tamonda xindiston va Xitoy fanida ahamiyatli fanlar mavjud bo'lib, birinchi-fan o'ta amaliy xususiyat kasb etgan, ikkinchidan-fanlar nazariyasi, Falsafa taraqqiysi g'arbdan keskin farq qilgan. Bu farqni K. Yaspers tamonidan yaratilgan o'qdavri nazariyasi bilan izohlash mumkin. Bunga ko'ra mil.av. 800 va 200 yillari oralig'ida muhim tarixiy burilish sodir bo'lib, mifalogik davr nixoyasiga etadi, ratsianal idrok shakllanadi, hozirgacha mavjud bo'lgan asosiy tushuncha vatansiflar ishlab chiqildi. Bu davrda Xindistonda Upanishada paydo bo'ldi, budda yashadi. Xitoyda mashhur falsafa maktablari rivojlandi, Eronda Zardo'shtiylikni qabul qilib, qonunlashtirdi, flastindan payg'ambarlar chiqdi. Yunonistonda bu vaqtda Gomer, Geraklit, Ploton va boshqalar faoliyat ko'rsatdi.

Xindiston va xitoyda tabiiy texnika fanlari ertaroq shakllanadi vao'z navbatida sermaxsul taraqqiy etdi. Biroq, bu fanlar g'arbdagi kabi madaniyatga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Bu oliy xaqiqatni anglash yo'lidagi mustaqil ta'limot bo'lib qolish bilan bog'liq. Masalan, Xindistonda bilim uch darajaga ajraladi:

1. Bilmaslik (avid'ya)
2. Tushuncha, «ilmiy» bilim (vijnyana).
3. Hamma narsani bilish (prajnya), ya'ni birinchi daraja mantiqsiz fikrlash, ikkinchi-mantiqiy, uchinchisi mantiqiy ustun idrok qilishga muvofiq keladi.

er yuzasidagi eng qo'xna va bir qadar o'rganilgan, ko'plab xalqlar madnit'ining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan madaniyatlardan biri qadimgi Misr madaniyatlaridir. Qadimgi Misr yozuvi ko'plab hozirgi yozuv tizimi uchun asos bo'ldi. Qadimgi Misrliklar qo'llangan so'zlar «papiirus» «oazis», «ximiya», «bazal't» va boshqalar hozirda ham muomalada saqlanib kelmoqda. Misrda turli, o'ta chalkash topinishllar tizimi mavjud bo'lgan: Xudolarga sig'ingan, jonivor, o'simlik, tuproq, suv, Nilni muqaddaslashtirgan. Quyoshga, tarik xudo fir'avnga sig'inish qonun tusiga kirgan. Misrliklar madaniyatida dafn marosimmi alohida alohida o'rin tutgan. Ular o'limni insonning ikkinchi hayot boshlanishi deb bilgan. Mangu hayot tushunchasi Osiris va Izida haqidagi mifdan paydo bo'lagan.

Qadimgi yunon muallifi «Misrliklar hayoti o'limga tayyorgarlik ko'rinishdan iborat»-deb bekorga yozmagan.

Misrliklardan farqli qadimgi mesopatomiya aholisi erdagi hayotga ko'proq e'tibor qilishgan. O'lim bilan qammasi tugaydi deb o'ylashsada, nargi dunyoga ishonishgan. Misrliklardan farqli ravishda nargi dunyoni inson ruxi mangu suv va ovqatga zoriqib yashaydigan qo'rqinchli dunyo deb tasavvur qilishgan. Sharuppakning mesapatamiyaliklarga nasihatida aytiladiki «Shirin hayotdan tashqari biron narsa aziz emas». Mesopatomiyaliklarning quvonchli hayot haqidagi qarashlari «Gilgamish» dostonida ham tasvirlanadi. Ular shaxsiy hayot muammolari bilan ko'proq qiziqqanlar. I. Klochkov bu xaqda «oddiy bobillik-bu xususiy kishidir» deb yozadi.

Xindiston birinchi jahon dini buddizm vatani bo'lsada, Xindistonning o'zida indiuzga nisbatan ikkinchi darajada turardi. Bu ikki din ham «veda» da aks ettirilgan qadimgi tasavvurlardan kelib chiqqan. Xindlarin dunyoqarashi va barcha tushunchalarini belgilovchi asosiy g'oya, xind madaniyatining o'ziga xos xususiyati-dunyoda sodir bo'luvchi nixoya uzluksiz xarakat g'oyasi hisoblanadi, ya'ni dunyoning aylanishi na ibtido, na nixoya, na aniq maqsadga ega. Dunyoning doimiy aylanishida ayta yangilash va dunyoviy ilohiy ruh nishonasi-individual ruh bo'ladi. Ular doimo yangi moddiy ko'rinishda vujudga keladi, buning uchun inson tanasi bo'lishi shart emas, ruh jonivorlar, o'simliklari tanasiga joylashishi mumkin xindlar shu tariqa o'z dunyoqarashidan nargi dunyo haqidagi g'oyani istesno qilganlar. Mutloq «dunyoviy qonun» borliq xukmdori braxma-olamning ob'ektiv ifodasi. Ularni taqqoslagan aniq xudodolarini roli uncha katta emas, faqat «dunyoviy qonun» tamoiillarini individlashgan timsolidir. Xech kim, xudo ham inson kamasini o'zgartirishga qodir emas. Kamaning sanskrit tilidan tarjimasi faoliyatni bildiradi. Bu tushunchaning mazmunini aniqlash murakkab. Karma insonning oldingihayotidan meros bo'lib o'tadi va hozirgi hayotning mazmuni va faoliyatida namayon bo'ladi, u bo'lg'usi moddiy timsolning sifatini belgilaydi. Gunohlarni kechirish haqida tazarru yoki ibodat bilan karmani o'zgartirish mumkin emas, u faqat insonning ahloqiy fe'l-atvorini belgilaydi. Shshu bilan birga, har bir indius va buddis uchun o'z-o'zini bilishi va o'zining kamolotga etishi, o'z ruhiy xolatini aniqlashi, o'z karmasining toza saqlanishi haqida o'ylash asosiy hisoblanadi.

Bu Xindistondagi dinlar hayot dan, faoliyatdan voz kechishga undaydi degani emas, balki ular dunyoviy tashvishlarga befarq bo'lishga undaydi desa bo'ladi. Xind madaniyatining butun mazmunida zohir va botin, muaqqat va mangu o'rtasidagi munosabat muvozanatni saqlash zarurati haqidagi fikr yotadi.

Xitoy madaniyati va tsivilizatsiyasining ming yillar davomida asosiy ruhiy, ahloqiy va g'oyaviy manbai mil.av. 550-479 yilyashagan buyuk mutafakkir konfutsiy ta'limoti hisoblanadi. Barcha eng muhim narsalar har qanday tsivilizatsiyasining «qiyofasini»belgilaydi-hayot tamoiillarini, davlat va ijtimoiy tashkilot shakllarini, umum qabul qilgan ahloqiy me'yorlar va qadriyatlarning barchasi Xitoyda Konfutsiylikni «xitoy tsivilizatsiyasining kvint essentsiyasi» (mohiyati) deb atamaydi.

«Osmon vakolati» yo'nalishi konfutsiy tamonidan yangicha fikrda rivojlantirilib, unda ijtimoiy ahloq asosiy o'rin tutadi va siyosiy madaniyatni belgilaydi. An'nalarni xurmat qilish, burchni jiddiy his qilish,ahloqiy sifatdan

yuqoriligi, o`zini jamiyat uchun baxsh qilish, xaqiqatni anglash uchun doimo urinish, ishonch va oliyjanoblik kabi ideallar boshqarishni istaganlar uchun mo`ljallangan. Bu ideallar davlatning bosh tayanchi bo`lib, Xitoy imperiyasi to`ralri uchun gamuna bo`ldi.

Konfutsiylikni Xitoyda ppydo bo`lgan ikkinchi buyuk falsafiy ta`limot daosiz to`ldirdi. Daosizm turmush, tabiat, umuliy muammolari aks etadi. Agar konfutsiychilik insonni ijtimoiy faoliyatini nazarda tutsa, daosizm uning ruhiy hayoti, dunyo qarashi aks etadi. L. Vasil`ev bu iki ta`limtoni «xar qanday konfutsiy ruhon daosizm»-debataydi. Daosizm qadimgi Xitoydagi fikrlarni bosh koni aks etib, jahon madaniyatini yangi hayot bilan boyitdi. «Uning g`oyalari: in-ya tamoyillarga asoslangan dunyoning dualistik xususiyati; uchun bshta asosiy unsurdan iborat bo`lgan materiya (er,suv, olv, ma`dan) dunyoning o`zgaruvchang xarakatidaligi, asosiy unsirlar doimo sifat o`zgarishida bo`lishini bildiradi. Daosizmga ko`ra dunyoning paydo bo`lishi uchta kuchning faoliyatidan kelib chiqqan: Dao-Oliy Mutloq, Ilk ibtido, de-dao nuridanpaydo bo`lishi, Tsi-Oliy materiya, u moddiydunyoni yaratib, narsa va mavjudodlarni bunyod qiladi.

Sharqning qadimgi tsivilizatsiyasi moddiy va ma`naviy sohalaridagi ko`plab o`ta muhim yangiliklarini vujudga keltiradi. Xususan, mil.avv. 1 ming yillik ma`naviy g`alayonlar jarayoni bilan ajralib turadi. Bu davrda dastlab ikki tamoil vujudga keladi: umum insoniy birlik va shaxsning ma`naviy mustaqilligi. G`oyalar erkinligi boshlanib inson o`z hayotini unga asoslanib qurdi.

Qadimgi sharqning tsivilizatsiyasi g`arbga nisbatan ertaroq boshlandi. Yunonlar madaniyati Qadimgi sharqning madaniyati ta`sirida juda yuksaldi, buni elliplrning o`zlari ham e`tirof etishgan. Bu ta`sirlar natijasida shunday davr boshlandiki Sharq va G`arq madaniyatlari sintezi ellinistik madaniyatni vujudag keltirdi: Yunon-Baqtriya va gandar san`ati, is kandariya fani, fayum portretlari bunga misol bo`la oladi. Qadimgi sharq bizga barhayot boyliklarini qoldirdi. Bular «Gilgamesh» va «Mahobhorat» dostonlari, Kalidasi dramalari va Chjuantszining boy madaniyati o`rganish kelajakni ko`rishda zarur hisoblanadi.

Nazorat savollari.

1. "Subkul`tura" atamasi nimani anglatadi.va mazkur fenomen qanday vazifani bajaradi?
2. "Kontrkul`tura" qachon paydo bo`ladi. Va unimani anglatadi?
3. Omma madaniyati nimani bildiradi va madaniyatshunosliklarning u xaqda fikri qanday?
4. Oliy elitar madaniyatning mohiyati nimadan iborat?
5. "Dolzarb madaniyat" nima va u qanday vazifani bajaradi?

Mavzuga doir adabiyotlar

1. I. A. Karimovning O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xafsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent.1997.
2. Ahmedova E., Gabidulin R., Kulturologiya, mirovaya kul`tura. Toshkent.2001.

3. Rojdestvenskiy Yu. V. Vdenie v kul'turovedenie. M. 1996.
4. Tsay A. V. Material'naya kul'tura v svete svete sovremennoy estetike. Toshkent. «Fan». 1994.
5. Erkaev A. Duxovnost'-energiya nezavisimosti. Toshkent. 1997.
6. Umarov E., Abdullaev M., Xakimov E. Kul'turologiya. Tashkent. «Yangi asr avlodi».

6-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati.

Reja

1. Markaziy osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Markaziy osiyo xududidagi ilk davlatlar madaniyati .
3. Yunon-Baktriya madaniyati miqiyosida sharq elinistik madaniyati.

Mavzuga doir tayanch so'zlar va iboralar.

Madaniyat yodgorliklari, zardushtiylik, "Avesto", yozuv, uyg'ur yozuvi, Urxun-Enasoy yozuvi, xal ijodi.

6.1. Markaziy osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari.

Markaziy Osiyo madaniyati jahon madaniyati tarixida muhim o'rin tutadi. Uning o'rta asrlardagi madaniyatiga butun dueyo allaqachon munosib o'rin bergan. Xatto baqtriya, Marg'iyona, Sug'd, Parfiya, Farg'ona, Xorazm, Choch xalqlarining qadimgi madaniyati ham jahon xalqlarini xayratga solmoqda. Markaziy osiyo mintqasining qadimgi madaniyati o'rganish o'n yillar ilgari boshlangan bo'lsa tadqiqotchilarning bu madaniyatining o'ziga xosligi va boy mazmuni lol qoldirdi. Markaziy osiyo madaniyati G'arb va sharqning buyuk madaniyat elimentlarni bir butunlikda uyg'unlashtirib o'ziga xos individuallik kasb etadiki, bu xususiyat keyingi tarqqiyot uchun ham negiz bo'lib qoladi.

Markziy osiyo xalqlarining madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval jo'g'rofiy o'rni va tabiiy va tabiiy vositalarga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Madaniyatshunoslikning har qanday madaniyatning o'ziga xos alfozni joy manzarasi, iqlimi, biosfera omillarining ahamiyati borligiga alohida e'tibor beradi. Markaziy osiyo mintaqasining tabiati turli millat bilan farq qiladi. Bu erda serxosil vodiy va vohalar, sersuv daryolar, qaqaroq cho'llar, dashtu adirlar, Pamir va tangritog'ning baland muzofatlari bilan yonma-yon joylashgan. Bunday xussiyat dehqonchilik, chorvador, tog'da yashovchi qabila va xalqlar xo'jalik tarzi va o'ziga xos madaniyatlarning shakllanishi uchun imkon yaratadi.

«Qadimgi tsivilizatsiya» deb nomlangan risolada markaziy osiyo madaniyatining ikki xususiyati ko'rsatiladi: bir tamondan, turli madaniyatlarning o'zaro ta'sirida, ikkinchi tamondan, qadimgi tsivilizatsiyalarning boshqa o'choqlari bilan yaqin aloqada rivojlanishi. Bu xususiyatlarini batafsil kuzatadigan bo'lsak markaziy osiyo madaniyatining shakllanish jarayolari yaqqol namayon bo'ladi.

Markaziy osiyoning serxosil vodiysi, cho'l va dashti, tog'larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi faqrlar turi xo'jaliklarni ertaroq paydo bo'lishi o'ziga

xos madaniyatlar shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon yaqin qo'shinchilik munosabatlari asosida sodir bo'lib, qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari tarqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratdi. Eng qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog' ovchi qabilalari o'rtasida munosabat ayriboshlash Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, keyingi davrlarda ham uzoq saqlanib keldi. Turmush tarzi va xo'jalik faoliyatidagi farqlanish bilan birga mintaqa xalqlarining etnik va tillardagi yaqinlik juda ham uyg'unlashib ketganligini qadimgi Xitoy va Yunon manoalarida ham qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularni bir-biridan ayriyicha yashashiga yo'l qo'ymadi.

Natijada qadimgi Sharqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo qadimggi madaniyati ajralib, o'ziga xos ko'rinishda shakllanadi. Dastlab bu madaniyatga ikki xil madaniyat aralashib ketdi: ko'chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda tsivilizatsiya olami;

Markazi yOsiyoning o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi xalqlarida ancha muncha farqlar bo'lishiga qaramasdan ilgari yaqin munosabatlar o'rnatilgan. Diniy e'tiqodlar, urf-odalar, fol'klorlar, ahloqiy me'yordagi umumiylik madaniy umuiylikni shakllanishiga olib kelgan. Shuning uchun bundan keyin Markaziy Osiyoning yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi turli Submadaniyalar mavjudligi haqida to'xtalish joizdir: Qadimgi madaniyalar sub madniyati (Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Marg'iyonning), dasht ko'manchilari-sak, myassaget, dakechchilar submadaniyati, Pamir va Tangri tog' qabilalarning sub madaniyati.

Markaziy Osiyo madaniyatining o'ziga xosligining ikkinchi jihati mintaqaning o'ta qulay jo'g'rofiy o'rnatilganligi bilan bog'liq. Mintaqa Mesopatomiya, Xindiston va Xitoy kabi uchta buyu sharq tsivilizatsiyasi bilan bevosita chagaradosh bo'lib g'arb tsivilizatsiyasi beshinchi-Gretsiya va rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqararligi Markaziy Osiyo madaniyati vositachiligi missiyasini bajarishga sabab bo'lidi, ya'ni iqtisodiy sohalarda eng avvalo xalqaro sovdoda va madaniy sohalarda ham markaziy Osiyo G'arb va Sharq o'rtasida boqlovchi ko'priklar vazifasini bajardi. Xususan markaziy Osiyo xududi orqali buddizm butun dunyoga yoyildi, Xindiston va Xitoyga ellinistik ko'rinishlari o'tdi, Sharqdan G'arbg va G'arbdan Sharqga madaniy boyliklar (bilim dunyoviy g'oya, kashfiyot, badiiy asarlar) ning almashib turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo'lib xizmat qildi.

Markaziy Osiyo madaniyatining buyuk vositachilik missiyasi boshqa madaniy qadriyatlarini yangilash, o'zlashtirish, mahorati vaqayta ishlash kkabi jixatlarimiz bo'lmas edi. Bumadaniyat qadimdanoq yangi xodisalarni o'zlashtirish va moslashtirish mahoratiga ega bo'ldi. Garchi boshqa qadimgi sharq madaniyatlaridagi kabi Markaziy Osiyo madaniyatida ham an'analar keng o'rin egallasada, aytarli xarakter kasb etmaydi, ya'niki, uzliksiz madniyat yangilanish va taraqqiyot jarayoniga to'siq bo'lmaydi. Shuningdek, an'analarning mustahkam xukmronligi tarixiy vaziyatga ham to'sqinlik qilganliklarini ta'kidlash kerak. Mintaqa orqali katta bosqinchilik yurishlar, xalqlarining ko'chishlari yuz bergan bo'lib, bu markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o'zgarishlar olib keldi.

Afsuski ko`pincha urushlar Markazi Osiyo madaniyatining qadimgi taraqqiyot davrlarining behisob dalillarini yo`q qiladi.

6.2. Markaziy osiyo xududidagi ilk davlatlar madaniyati .

Arxiolog qazilma ma`lumotlar va yozma manbaalar mil. avv.1-ming yillik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osiyoning ilk davlatlari Sug`d, Baktريا va xorazm madaiyati haqida biroz ma`lumotlar beradi. Mil. avv.ning ilk davlatlari Sug`d, Baktريا va xorazm madaiyati haqida biroz ma`lumotlar beradi. Mil. avv. VIII-VII asrlarga oid Afrasiyob (Samarqand), Surxandaryo vohasidagi Qiziltepa, Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir, Xorazmdagi Qizilqir kabi qadimgi shaharlarda o`tkazilgan tadqiqotlar murakkab ijtimoiy tuzilma va madaniyatning yuqori rivojlanganligi ko`rsatadi. Bu shaharlar mudofaa devorlarini va sub ta`minotdagi iborat kuchli ixtismonatizimiga ega bo`lib, ichida xunarmandlar mavzei joylashgan. Ayrim shaharlarda saroy qoldiqlaridan qal`alar topilgan. Qadimgi davlatlar xo`jaligining asosiy sohasi hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotining darajasi haqida ko`p tarmoqli sg`orish tizimining mavjudligi bunga dalildir. Markaziy osiyo xalqlarining Qadimgi sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o`rnatgan.

Midiya va Ossuriyaning siyosiy tarixida faol ishtirok etib, xunarmandchilik buyumlari va xom ashyo bilan.(lojuvarld, oltin, mis, bilan) savdo sotiq qilingan. Bu haqida Ossuriya va Qadimgi Yunon yozma manbalarida gapiriladi. Xususan Baktriyaning yirik shaharlari, ko`p sonli aholisi haqida Baktريا shohi Oksiarining afsonaviy boyligi haqida Kgesiy Knidiskiy (mil.avv. V-IV asrlar) yozib qoldirgan.

Ko`chmanchi massagetlarning udumi va turmush tarzi haqida mashhur qadimgi Yunontarixchisi geradot (mil.avv. V asrda yozib qoldirgan).Massagetlarning harbiy qurollari (amon-yoyi,nayza oyboltasi).oltindan bezaksifatida, misdan qurol va sovut uchun keng foydalanishni ta`kidlaydi. Geroditning yozishicha, massagetlar yagona ma`bud quyoshiga topinib,otni qurbonlik qilganlar.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma`naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebaho manbasi Avesto hisoblaniblangan. Avesto so`zining mazmuni umumiy izohga ega emas, ko`pincha Asosiy matn sifatida tarjima qilindi. Avesto dunyoning dunyoning eng qadimgi dinlaridan bo`lgan zardo`shtiylik tarfdorlari uchun muqaddaskalima hisoblanib, payg`ambar Zardo`sht to`planganlarga undan va`z o`qigan. Uninghayoti davri mil.avv. o`qigan. Uninghayoti davri mil.avv. IX-VI - VI asrlar atrofida deyiladi.Avesto va uning boshqa matnlarining to`planishi ko`p asrlar davomida amalga oshirilgan .Avesto ning eng qadimgi matnlarimil.avv..Avesto ning eng qadimgi matnlarimil.avv.II minginchi yillarga taalluqli.Avestoning millodiy VII asrga tegishli bo`lgan to`plami juda turlicha mazmundagi 21 kitobidan iborat bo`lib, o`sha davrning barcha bilimlari jamlangan. Zardushtiylik an`analariga ko`ra bu yodgorlik Ezgulik va Yorug`lik xudosi axuramazdaning Zaratushtra voxisi hisoblanadi. Biroq unda qadimgi mifologik tasavvurlar, ham tasavvurlanadi. Shuningdek, diniy yo`l-yo`riq payg`ambar davridan keyin zardushtiylikning rivojlangan e`tiqod ramzi yuzaga keldi. Hozirgacha Avestoning ayrim qismigina, faqat 4 kitobi saqlanib qolgan:

1. Videvdad-«Devlarga qarshi g`onunlar», bu kitobda asosan zardo`sht va Axuramazada o`rtasida suxbat, yo`l-yo`riq va ko`rsatmalar mazmunida bo`lib,

zulmat va yovuzdik xudosi Ax-rimani boshqaruvchi yomonlik kuchlarini qaytarish haqida.

2. Visprat-«hamma xukmdor», bu kitobda ibodat namozlari to`plangan.

4. Yasna-«ibodat», Marosim kitobi xudolarga sig`inish va murojatdan iborat. Yasnadagi «Tot»lar nomli 17 bobzardo`shtning muqaddas qo`shiqlaridir.

4. Yasht-«Qadrlash», «Hamdu-sano» kitobi xudolarni sharafllovchi qadimgi gmnlar va ezgulik xudolariga yovuzlikka qarshi kurash yordam beruvchi kuchlar haqida.

Bundan tashqari «Avesto» majmuaga «kichik avesto» ham mansub, u avesto tilida yozilgan bo`lib, ibodat kalimalari joylashgan. Ko`pchilik olimlar Zardo`sht yuksak ahloqiy idealdagi va ishontiruvchi fikrlari bilan birinchi xaq payg`ambar ekanligini takidlaydilar. Zardo`sh ta`limotiga muvofiq barcha quruqlikning o`zgarmas ibtidosi Arta bo`lib, «Avesto»da xaqiqat, olov ruh deyiladi. Axuramazda tartibli saqlanuvchi osmon xudosi yorug`lik va ezgulik hisoblangan.(oxura-xo`shayish,ega,mazda-idrokli, bilimdon). Axuramazdaning o`g`li-Atar (olov), uning vatani bulutlardek qurigan suvlar, uning makoni-xududsiz yog`du. Oxuramazda 6 ta ruhni-yordamchilarniyaratdi (amesh spenta): ezgu aql, yaxshi tartib, layoqatli qudrat, olijanobmo`minlik,sog`lomlik va boqiylik. Unga Axrimaning zumat qo`shini-devlar, urushlar timsoli,ochlik, kasallik,adolat va boshqa yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi. Olam va barcha insoniyat hayotining asosida ezgulik o`rtasidagi azaliy kurash yotadi.

Zardo`sht ta`limotining ulug`ligi shundaki, u har bir kishiga tanlash imkonini beradi. Har kim ham yovuzlikni yo`q etish va ezgulikni xukmron bo`lishida ishtirok etishi mumkin, bu ishda barcha bir xilda tengdir. Shu tariqa erda ilgari bo`lmagan jannat-oltin asr tiklanadi. Unda sovuqham, jazirama ham, qarilik ham, o`lim ham bo`lmaydi. Yovuzlik bilan kurashda xar kishining asosiy kuroli mehnat bo`lgan. Zardo`shtiylik ahloqi kishidan kamtarin va halol meva eksa, u xaqiqat tarqatadi. Videvdat kitobining «Dexqonchilik fazilati haqida» bobidan olingan. Fikr ,so`z va ishda taqvodorlik, ishchanlik,halollik,xolislik yuksak ahloqning asoosiy talabalari sifatida ko`tariladi. Yasna kitobidan zardushtiylikning e`tiqod ramzi haqida deyiladiki: «Qasam,ezgu fikrni, ezgu so`zni, ezgu faoliyat majburiyatlarini bajarishni talab qiladi».

Zardo`shtiylik birinchi bo`lib, esxatalogik ta`limoti rivojlantirish yaratilgan,bunga muvofiq jahon tarixi 12 ming yilni tashkil qiladi. Bu muddat tugashi bilan ezgulik va yovuzlik kuchlarini hal qiluvchi yovuzlik jang boshlanadi. Bugun olamni erigan metal oqimi o`q qiladi. Biroq xaloskor saosh`yant halok bo`lgan dunyoni va barcha marhumlarni tiriltiradi, barcha gunohkorlarni do`zoxdan chiqarib Ohurumazning ideal xukmronligida abadiy hayot kechiradi. Shu tariqa zardo`shtiylikda birinchi bo`lib oxiratdagi jazo, marhumlarning tirilishi so`roq kuni g`oyalar Doro 1 ming Bexustun yovuzida va Kserksning Persepoldagi yozuvida ham qayd qilinadi. Zardo`shtiylik Markaziy Old Osiyo xududlarida ming yillar davomida xukmron din bo`lib keldi va shubhasiz, bu din xristianlik va islom kabi jahon dinlarining shakllanishida katta o`rin tutadi.

Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasi va madaniyatning mustaqil rivojlanishi eron ahmoniylari tamonidan birinchi o`irik bosqichining tufayli to`htab qoldi. Sug`d, Baqtriya, xorazm mil. avv.

VI-IV asrlarda ahmoniyalar davlati tarkibiga kirgan. Bu imperiya tarkibi kirishi, yagona boshqaruv, qonunchilik, tizimining o`rnatilishi, oromiy yozuvning umum davlat miqiyosida qo`llanilishi.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Ahmoniyalar davrida xalqaro savdning rivojlanishi uchun qulay sharoitning vujudga kelishi Markaziy Osiyo shaharlarining taraqqiyotiga imkon tug`ildi. Ahmoniyalar xukmronligida mamlakatlarga sayyoxlar va olmlar borishi mumkin edi. Xuddi shu davrda Sharq mamlakatlarga Gerodit, Demokrit va boshqalar sayoxat qilgan. Ahmoniyalar imperiyasidagi yirik shaharlar-Suza, Persepol, Menfis, Nippur, Bobilda turli joylardan xususan, Xorazm, Baqtriya, Sug`ddan chiqqan kishilar, saklarning xarbiy aholisi yashagan.

O`z navbatida mil.avv. V asrda Oks daryosining o`ng sohilida Miletlik Yunonlarning manzilgohi tashkil topadi. Shu tariqa Ahmoniyalar imperiyasi tarkibida Markaziy Osiyo xalqlari forslar, midiyaaliklar, bobilliklar, misrliliklar, yunonlar, xindlar bilan yaqin munosabatda bo`lish madaniyatining ham o`zaro ta`siriga imkon yaratdi.

Ahmoniyalar imperiyasi madaniyati ham ko`pgina mamlakat xalqlari yaratgan ilmiy bilimlar, diniy e`tiqodlar, san`at yutuqlarining sintezi hisoblanadi. Bu madaniyatga Markaziy Osiyo xalqlari ham o`zining xissasini qo`shgan. Zardo`shtiylik ahmoniyalarlarning davlat dini va sifatida qabul qilinishi bilan birga G`arbga ham keng yoyila boshladi. Ahmoniyalar san`atining Suza va persipoldagi ulkan yodgorligi qurilishiga Markaziy Osiyo mintaqasidan ko`plab xom ashyo keltirilgan. Saroylar qurilishi Baqtriyadan oltin, Sug`ddan lojuvard va qimmatli toshlar, Xoraxmdan feruza olib borilgan. 1877 yilda Tojikistonning janubidan topilgan Amudaryo xazinasini madaniy sintezning yorqin misolidir, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyat munosabatlari juda kengaydi, Shuningdek, madaniy qadriyatning boyishi va turli madaniyatlarning o`zaro ta`siri jarayoni esa o`z madaniyatlarini juda tez rivojlanishi va boyishiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi.

Ahmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo erlari yunon-makedonlar tamonidan bosib olingan Markaziy Osiyo madaniyatida ellinizm elementlari kirib keldi. Ellinistik jarayon slavkiylar davlatidan mustaqil bo`lgan Parfiya va Yunon-Baqtriyada o`zining yuqori rivoji bilan ajralib turadi. Yunon Baqtriya davlati yunonlar mahalliy sintezi qisqa vaqtda o`zining ijobi ynatijalarini berdi, shaharlar soni tez kunlarda o`sdi, dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa xunarmandchilik rivojlanib bordi. Markazi yosiyo mintaqasi buyuk ipak yo`li bo`lib, o`sgan xalqaro savdning markazi sifatida o`ta muhim o`rin egalladi. Tavra-pul munosabatlarini o`rnatishda Baqtriya shaharlarining o`z pullarini zarb qilishi xalqaro savdning rivojiga ijobiy ta`sir qilish bilan birga, yuksak badiiy darajasi bilan ham ajralib turadi.

6.3. Yunon-Baktriya madaniyati miqiyosida sharq elinistik madaniyati.

Yunon-Baqtriya davridagi oyxonum (Shim Afg`oniston), Saksonaxur va Taxtisangin (Tojikiston ), Dalvarzin tepa, Yorqo`rg`on, Afrasiyob, Tolibarzu (O`zbekiston) kabi shaharlar qurildi. Yunon xarbiy manzilgohlarining aholisi turmush tarzi va madaniyatlari aks ettiruvchi ellinistik uslublar Yunon-Baqtriya shaharlarida

ochib o`rganildi. Inshootlar tosh, xom va pishiq g`ishtdan tiklangan. Ustunlar korinf usulida ishlangan. Saroy va ibodan majmualari, gimnaziya, teatrbinolari ochib tekshirilganda ustunlar attik bazalltar, yaproqlari, palmetallar, cheti nashlangan cherepitsa-antifikslar singari unsirlarin qo`llanilishida aks etadi.

Markaziy osiyoning antik badiy madaniyatning muhim uslubiy xususiyatini san`atlar sintezi tashkil etgan: Xaykataroshlik, tasviriy san`at, naqsh bunda umumiy me`morchilik rasamadagi- va uning ritmiga bo`ysingan holad me`morchilik bilna yaxlitda namayon bo`ladi. Bu sintez Kushonlar davrida ham mahalliy madaniyatda o`z ta`sirini saqlab qoldi. Kushonlar davri Markazi yosiyo, Afg`oniston, Pokiston, Xindiston xalqlari tarixidagina emas balki dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o`rin egallaydi. Turli xalqlar madaniyati chatishishi natijasida bu erda o`ziga xos madaniyat shakllandi, shu bilan birga keyingi asarlar madaniyatining o`zaro ta`siri yangi tarixiy bosqichga qadamqo`ydi. Ellin madaniyatining an`analarini Kushonlar davrida ijodiy jixatidan qayta shshakllandi va yangicha tahlil qilina boladi.

Kushonlar imperiyasi davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoda sug`orma dehqonchilik, xunarmandchilik, shaharsozilk, savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalar ravnaq topdi. Bunga Kushon-Baqtriya yozuvlari, barhma va qaharoshhi xind alifbosidagi yozuvlar, kushon tangalari guvohlik berdi. Buddizm dinning rasmiy darajasi budda ibodatxonalarining o`sha zamon san`ati bilan bezatilishida namayon bo`ladi. Termiz yaqinidagi ayridomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlaoriga sarg`ishroq toshdan xaykal o`rnatilgan. Bino ichida g`ishtdan ishlangan budda xaykalining qoldiqlari topilgan. Xaykallarning ishlanish uslubi, kiyimi musiqa asboblari Xindiston O`rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlarining o`zaro ta`sirida rivojlanganligidan dalolat beradi. Buni Xarazm, Farg`ona, Sug`d, Parfiyadan topilgan turli xil buyumlar, madaniy obidalar, topilmalari timsolida ham ko`rsatish mumkin. Kushonlar davrida shaharlar qurilishi keng rivojlangan. Shaharlar qalin devorlar bilan o`ralib, ichida ark va arkning atrofida har xil binolar qad ko`targan Sopol idishlar nixoyatda nafis va jarangdorligi bilan va xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san`at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziynat buyumlari va mehnat jang qurollari yasash, mato to`qish rivojlangan. Umuman kushonlar davri madaniyati Markaziy Osiyoning eng cho`qqis hisoblanib, ma`lum xudud va zamon bilan chegaralanmaydi. Bu madaniyat Old Osiyo, Markaziy Osiyo va Antik, Xind madaniyatlari yutuqlarini o`zida jamlab, qo`llab sharq xalqlarining o`rta asrdagi madaniyati rivoji uchun asos bo`ldi va jahon madaniyati o`chmas iz qoldirdi.

Nazorat savolari

1. Madaniy yodgorliklar nima?
2. Zardushtiylikning tarixda tutgan o`rni.
3. "Avesto" haqida gapirib bering.
4. Yozuvning madaniy xususiyatlarini qanday izohlash mumkin?
5. Tarix madaniyatida yozuv madaniyatining o`rni, roli qanday?

Mavzuga doir adabiyotlar

1. O`zbekiston tarixi va madaniyati. Toshkent. 1992.
2. O`zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati. Toshkent. 1992.

3. Beruniy qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Beruniy A. R. Tanlangan asarlar. 1-tom.-Toshkent. 1968.
4. Isoqov M. M. Xalq dahosining qadimgi ildidzlari va ilk kurtaklari. ("zardushtiylik", zardush va "Avesto" haqida) Til va adabiyot ta'limi. 1992. № 2.
5. Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. Toshkent. 1994.

7-Mavzu: O'rta asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati.

Reja

1. O'rta asrlarda Musulmon Sharq madniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Markaziy Osiyoda o'rta asr davlatlari va ularning madaniyati.
3. Me'morchilik va san'at turlari, ilm fan va diniy-ahloqiy dinning shakllanishi.

Mavzuga doir tayanch so'zlar va iboralar

Markaziy Osiyoda uyg'onish davri, arab musulmon madaniyati, so'fiylik (tasavvuf), Yassaviya, Naqshbandiya, Kubroviya, tariqatlar.

7.1. O'rta asrlarda Musulmon Sharq madniyatining o'ziga xos xususiyatlari.

Yaqin va o'rta sharqda arab xalifalining shakllanish jarayoni islom bilan bog'liq xolda keldi. Arab xalifaligi VIII asrning ikkinchi yarmi IX asr o'rtalarida juda rivojlanib Sharqda Xitygacha, G'arbda, Ispaniya hamda Frantsiyagacha bo'lgan xududida islom madaniyati shakllandi. Tarixda ko'chmanchi qabilalar madaniyati rivojlangan davlatlarni istilo qilganligini bilamiz. Biroq, ular yangi tsivilizatsiyaga asos solmagan. Arablar bosib, olgan erlarda yangi madaniyat shakllandi. Bu er yuzasidagi beshinchi tsivilizatsiyadir.

Avvalo islom mafkurasi jamiyat va davlatchilikning rivojlanishida yangi g'oya sifatida xizmat qildi. Qur'on va Xadislar sharoit qonun-qoidalar uchun asos bo'ldi. Xalifalik tarkibiga iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti turli darajada bo'lgan ko'plab mamlakat vaxalqlar birlashtirildi. Olimu ulomalar qaysi xalqqa mansub bo'lmasin arab tilida ijod qildilar. Demakki, Islom madaniyatini dastlab xalifalik tarkibidagi barcha xalqlarning namoyondalari yaratgan.

Xalifalik tarkibiga kirgan, Movaraunnaxr, Xorazm va mavr madaniyati sifatida antik davrda ham mashhur edi. Markaziy Osiyolik olimlar Damashk, Koxira, Bog'dod, Kufa, Basra kabi shaharlarga borib ilm fan tarqqiyotiga katta xissa qo'shdi. Xalifalar Mansur, Xurun ar-Rashid, Ma'mun davrlarida Bog'dod iqtisodiy va madaniy jixatdan taraqqiy etgan shaharlardan edi. Bog'doddagi Baytul xikma (Ma'mun akademiyasida)da turli xalqlar olimlari bilan birga O'rta Osiyodan borgan olimlar ham ish olib bordilar. Xususan bayramali muzofatidagi Mavr shahri VI-VII asrlardagi ilm fan, madaniyat san'at va xunarmandchilik rivojlangan shahar bo'lgan. Shoyi matolari bilan mashhur bo'lgan arablar uncha Shohijahoni (jahon shoxisi) deb nom berganlar Marv ilmiy markazga aylanib madrasalar va kutubxona qurildi. Shuningdek XI-XII asrlarda Mavr Sajuqiylar va Xorazmshohlar davlatining

markaziga aylandi. Xarun ar-Rashid uning o'g'li alqMa'mun Xuroson va Movaraunnaxr noibi edi. U Bog'dod taxtiga o'tirgach (819 yili) yil Marvdan ko'chib ketadi va bir gurux o'rta osiyolik olimlarni ham o'zi bilan birga olib ketadi. Muhammad Al-Xarazmiyga hamroh bo'lib borgan markaziy taxallusli bir necha riyoziyot, falaqqiyot, san'atkor va qomusiy bilim sohiblarining ijobiy faoliyatining asosiy qismi Marv bilan bog'liq.

Xorazmlik mashhur olim bo'lgan Muhammad al-Xorazmiy Bag'dod al-Ma'mun Baytul-xikmaga boshliq qilib tayinlandi. Bu erda u o'zining ko'pgina asarlarini yozib, qator fanlarining rivojlanishiga asos oslgan. Bog'dod xalifaligining har xil shaharlaridan, asosan Vizantiyadan keltirilgan kitoblar to'plangan bo'lib, turli tillardagi ilmiy kitoblar arab tiliga tarjima qilingan. Bog'dod akademiyasida shuningdek, Ahmad Farg'oniy, Javhariy, Marvaridiy al-Xittaliy kabi O'rta Osiyolik olimlar faoliyat ko'rsatgan. Ayniqsa Farobiy o'zining ko'p qirrali ijodi bilan fan taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shdi. Aristotel va Yunon falsafasining chuqur bilganligi uchun Abu Nasr Faorobiy Al muallim assoniy –ikkinchi muallim yoki Sharq aristoteli degan unvonga sazavor bo'ldi. Umuman, Bog'dod akademiyasi da faoliyat ko'rsatgan olimlar erning kattaligini aniqlash bilan shug'ullangan va xalifalikdagi dastlabki rasatxonalarni qurganliklari bilan o'sha davrda dunyo ilmini amaliyot natijalari bilan boyitdi. O'rta Osiyo va Arab olimlari o'rtasidagi qadimiy hamkorlik an'analari hozirgi davrda ham, ayniqsa O'zbekiston mustaqil bo'lgach rivojlanib bormoqda.

IX asrning ikkinchi yarmida Xuroson va Movaraunnaxr ijtimoiy-siyosiy o'zgarib, raab xalifaligidan mustaqil bo'lgan markazlashgan feodal davlatlar tashkil topgan. IX- XIII asrlarda mavjud bo'lgan samoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Sajuqiylar, Xorazmshohlar davlatida xo'jalik va savdoning rivojlanishi bilan madaniyat yuksak darajada va o'rta Osiyoning dunyo madaniyati tarixida qo'shgan xissasi belgilab berdi. O'rta Osiyoda musulmon madaniyatining shakllanishi jarayonida musulmon barcha musulmon o'lkalari madaniyati rivojida etakchi o'rinlardan birini egalladi. O'rta Osiyo islom madaniyati mazmunida yangi madaniyatni Islom olamiga qaytardi. Islom dini, adabiyot, tabiiy fanlardan, tarixnavislik, san'at, falsafa, xuquqshunoslik, ijtimoiy tafakkur kabi madaniyatning barcha sohasida ham buyuk siymolar etishib chiqqanlar. Buxoro, Marv, Samarqand, Termiz, Nafas kabi o'z davrining taraqqiy etgan shaharlari va savdo markazlari sifatida ma'lum bo'ldi. Movaraunnahr, Xuroson, Xorazmda qishloq xo'jaligi bilan birga shahar va qishloqlarda xunarmandchilik rivojlanib, feodal munosabatlar qaror topdi.

Me'morchilikda yangi inshootlar: masjid, madrasa, xamom kabi ijtimoiy binolar, saroylar, davlat muassasalari bozoru ko'priklar qurildi.

Toshkent, Farg'ona, Nurota, O'ratepa, Samarqand atrofidagi tog'lardan konlar ochilib ma'danlar qazib olindi va qurol-yaroq anjomlari yasalishi tufayli xunarmandchilik taraqqiy etdi. Bu esa savdo-sotiqni rivoj topishiga sabab bo'ldi. Xurosan, Xindiston, Xitoy, Burjiston, Volga bo'yi, Sibir xududlari kavon yo'llari kengayib, savdo taraqqiy etdi.

Movaraunnahr va Xorazm shaharlarida to'qimachilik, qulolchilik, degrezlik, zargarlik, shishagarlik kabi xunarmandchilik sohalarining rivojlanishi natijasida shaharlarni umumiy qiyofasi tubdan o'zgardi. Saroy-Devonlar, Masjid-madrasalar, maqbara, namozgoh, xonaqoh, Kavonsaroy, ustaxonalar qad ko'tardi. Shaharlar ark (o'rda) Shahriston (ichki shahar) deb ataldi. Varabod (tashqi shahar) deb atalgan, uch qsmi yagona devor bilan o'rab olgan xunarmandchilik markaziga aylandi. Arkda podshoh qarorgohi markazida Registon maydoni, mahkamalar, qasrlar, do'konlar va rastalar joylashgan.

IX-X asrlarda Buxoroda «Bayt-cht-rioz» nomli to'qimachilik korxonasi, Zandana qishloqda to'qilgan mato hamda Samarqandda yuqori navli qog'oz ishlab chiqarilgan. Bu davrda yasalgan sirli va naqshinkor sopol idishlar, rang-barang shisha buyumlar juda sifatli bo'lgan. Ichki bozorda «fals» deb atalgan mis chaqa, xalqaro savdoda kumush tanga dirhamlar muomalada bo'lgan. Ayniqsa Samoniylarning sof kumushdan zarb qilingan «Ismoiliy» tangasi xalqaro savdoda mashhur bo'lgan.

IX-XIII asr boshlarida O'rta Osiyo moddiy madaniyat, iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi natijasida san'atning turli sohalari me'morchilik, o'ymakorlik, badiiy xunarmandchilik, musiqa, qo'yoyma bezash kabi sohalari yuksaldi.

O'rta Osiyoda so'nggiantik davr me'morchiligi an'analari arablar bosqichi tufayli to'xtab qoldi. Faqat VIII asrlar oxiridan xalifalik tarkibiga kirgan Movarounnahr me'morchiligida siljish boshlandi. Ayniqsa markazlashgan feodal davlatlar Samoniylar va Ma'moniylar (Xorazm) tashkil topishi bilan shaharlar rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Qiyot, Termiz, Chog'aniyon shunday shaharlar jumlasiga kirib, ular me'morchiligi dastlab arablargacha bo'lgan yo'nalish bo'yicha davom etdi, lekin IX-X asrlarda xalifalik madaniyati bo'ysindirilgan xalqlar madaniyati yutuqlarini o'zlashtirib, umumxalifalik madaniyati jixatlari uning o'ziga singdirib yana qaytardi. Islom g'oyalari musulmon ibodatxonalarining tiklanishida arabcha bitiklarning naqshli dekor sifatida qo'llanilishida, geometrik shakllarni kiritilishida o'z aksini topdi. Dehqonlar qasrlari bu davrga kelib xarbiy qal'a vazifasini o'tamaydigan balki oddiy qasr-qo'rg'onlarga aylandi. Masalan Termizdagi Qiriqqiz qal'asi peshtoqli ayvonlar qismlari yo'laklar bilan bog'langan xonalari bo'lgan ikki qavatli inshoot.

Buxorodagi Samoniylarning maqbarasi markaziy-gumbaziy kompazitsiyasiga ega bo'lib, sug'dion an'analari bilan bog'liq. Timdagi arab ota maqbarasi esa XI-XII asrlardagi yangi me'morchilik uslubining dastlabkisi hisoblanadi.

Pishgan g'isht me'morchilikka yangi uslubiy sifat olib kirdi. Ta'sviriy san'atni ma'lum cheklashlar naqshning rivojlanishiga olib keldi. Pishgan g'ishtni turli shakllarida terilishi geometrik naqsh usulining imkoniyatlarini ochdi. O'simliksimon naqsh uslublari qonuniylashib bordi. Shuningdek arab bitiklarining qo'ldanilishi bilan yangi bezash turi eligrafik naqsh paydo bo'ldi.

O'rta Osiyo XI-XIII asr boshlarida Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Sajukiylar, Xorazmshohlar davr me'morchiligi gumbaxzli-qubballi binolar qurilishi bilan jahon me'morchiligida katta yutuqqa ega bo'ldi. Qurilish va qulolchilikning rivojlanishi me'moriy bezaklar turini kengaytirdi. Turli shaklda yo'nilgan pishgan g'ishtni naqshnoma tarzda terishdan tashqari sopol o'ymakorligi paydo

bo'ldi. Geometrik o'simliksimon epigrafik naqshlar bezakda uyg'un ravishda rivojlanib bordi. Masalan Termiz xukmdorlari saroyi ganch o'ymakorligi va naqshli tasviriy san'at bilan bezatilgan. Bu davrda karvonsaroylar ham qad ko'tardi.

Navoiy viloyati Karmana tumani yaqinidagi Roboti malik yarim minoralar, peshtoq va ganch o'ymakorligi bilan ajoyib binodir, shuningdek, diniy binolar masjid, madrasa, maqbaralar qurish alohida ahamiyat kasb etadi. Jo'me umumshahar masjidi, namozgoh xayitlarga mo'ljallangan shahar tashqarisidagi masjid va maqama masjidlaridir. Bu binolarning tizimi me'moriy xajmi ham bir-biridan farq qiladi. Jo'me masjidlari yaqinida minora mezana bo'lgan. IX-X asrlarda saroylar ham sinchdan va xom g'ishtdan qurilgan bir paytda maqbaralar pishgan g'ishtdan qurilib, Monumental shaklda, peshtoqli gumbazli qilib qurilgan. Maqbara majmuaida memorial ansambillar qurildi. Termizdagi Xakim at-termiziy, Sulton saodat, Samarqandagi Shohi Zinda kabi majmualar shu davrda vujudga keldi. X-XII asrlar monimental me'morchilik matematik proportsiyalash va geometrik uyg'unlik qoidalariga asos langan. Matematik bilimlar me'morchilikda muvoffaqiyatli amaliy o'z ifodasini topgan. Bu qonuniyatlar yuzadagi va tekislikda naqsh, qurilishda ham qo'llanilgan. Bu davrdagi geometrik naqsh bezak tarixining boshqa davrlarda xech qachon boy va rang-barang bo'lmagan. Me'moriy bezakdagi uslubiy lashgan o'simlik naqshi ham qat'iy geometrik rejaga asoslangan. Epigrafik xarflarni murakkab darajada qo'llash natijasida bezak san'ati yuksaldi. Buni Karmonidagi Mirsaid maqbarasi Buxorodagi namozgoh, Minorai kalon, Vovkent va jarqo'rg'on minoralari misolida kuzatishimiz mumkin.

Bu davrda xattotlik san'ati nafaqat mexmoriy naqsh sifatida, qo'lyozma kitoblarini ko'chirish ham rivoj topdi. Musiqqa san'ati taraqqiy qilib, yangi sozlar ixtiro qilindi. Abu Xifz Sug'diy nayga o'xshasha shohruttarli sozni yaratdi. Shuningdek Abu Bakr rubobi, Bunasr, Buamir, Lukariy kabi sozanda va xofizlar ijod qilishgan. Rudakiy, Abu Toyib Tohir shoir bo'lishi bilan birga sozanda va xofiz edi. Musiqqa san'ati, she'riyat va musiqashunoslik bilan uzviy shug'ullangan. Farobiy va Ibn Sino musiqaga oid asarlar yozgan.

IX-XII asr ma'naviy hayotida din muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Arab imlosi din va dunyoviy savdodining asosi edi. O'rta Osiyoda arab tilida savod chiqarib, o'zga tilda asarlar yozgan qomusiy olimlarimiz Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farobiy, Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Muhammad Narshahiy va boshqalar nafaqat musulmon dunyosiga balki jahonga mashhur bo'lgan.

Ahmad fag'oniy (861 yil vafot etgan) astronom, matematik va geograf bo'lib, u bog'dodda rasadxona qurilishiga boshchilik qildi uning asrlari lotin tiliga tarjima qilinib evropa astronomlari uchun qo'llanma bo'lib qoldi.

Muhammad Ibn Muso Xorazmiy (783-850) matematik, astronom, geograf va tarixchi bo'lgan. U algebra faniga asos solib "Algoritmi" nomli atamasiga uning uning nomi o'z ifodasini topdi.

Abu Nosir Farobiy (873-950) riyoziyot, falaqchiyot, tabobat, musiqqa, mantiq, falsafa tilshunoslik va adabiyot sohalarida 160 dan ortiq asarlar yozgan. Sharqda

aristotel (Arastu)dan keyin "ikkinchi muallim" nomi biln shuhrat topgan. Jamiyat shunoslik faniga ulkan xissa qo'shdi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) fanning turli sohalarini o'rganib tabobat ilmining qadimgi allomalari gipokrat va Golen O'rta asr olimi Abu Bakr al Roziy ilmiy ishlarini davomchisi bo'ldi. U arab tilida 3000 dan ziyo asarlar yozdi. Ibn Sino sharqda "Shayx ur rais", G'arbda esa Avesenno nomlari bilan mashhur bo'lgan.

Abu Rayxon Beruniy (973-1037) falaqqiyot, geografiya, tarix fanlariga oid 154 ilmiy asarlar yozdi. urning dumoloq shaklda kanligini va quyosh atrofida aylanishini birinchi bo'lib asosladi, dunyoning geografik xaritasini tuzdi.

Bu davrda turkiy xalqlarining qadimgi og'zaki adabiyot bilan birga yozma adabiyot yuzaga keldi. Yusuf Xoj Hojib (XI asr) "Qutadg'u bilig'" ahloq va ilm Urganchda Abul abbos Ma'mun saroyida ibn Sino, beruniy, matematik Abu Nasr Arrokk faylasuf Abu sahl Masihiy, ishtirokida Akademiya tashkil qildi va ma'rifatiga oid asar yozdi. Mahmud Qoshg'ariy (XI asrda) «Devoni lug'ati trk» asari turkiy xalqlarning tarixi, geografiyasi, etnogenezi, urf odatlari va madaniyati to'g'risida ma'lumotlar beradi va Ahmad Yugnakiy

(XII asr) esa Xibot ul Xaqoyiq» asarida ma'rifarvarlikni ulug'laydi.

7.3. Me'morchilik va san'at turlari, ilm fan va diniy-ahloqiy dinning shakllanishi. Dunyoviy fan bilan birga diniy ilm ham ravnaq topdi. Buyuk mutaffakir Ismoil Buxoriy (810-870) va Iso Termiziy (824-894), Buxoriddin Marg'iloniy (1123-1197) lar islom ta'limoti va takomiliga ulkan xissa qo'shganlar. Ismoil Buxoriyning «Jomiy as-sasih» asari islom ta'limotida qur'oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi. Shuningdek, bu davrda forsiy-dariy adabiy til shakllanadi. Abu Mansurning nasri «Shohnomasi» ga yozilgan muqaddima, noma'lum muallifning «Xuquq olami» asari, Abu Jafr tabarining «Tarixiy tabari» kitobi qur'onning 14 jildlik tavsifi arabchadan dariy tiliga tarjima qilindi. Gardezining «Zaynur ahbor», Bayhaqiyning 30 jildlik tarixiy asari Majiddin Adnoning «traixi mulki turkiston», Muhammad Narshaxiyning «Tarixiy Buxoro» kabi asarlari fors tojik tiliga tarjima qilindi. Buxoroda mashhur shoirlar Rudakiy, Daqiqiy, Balhiy ijod qilib she'riyat ravnaqiga xissa qo'shdi.

O'rta osiyo ilm fani ravnaqida madrasalarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Dastlabki madrasa Buxoroda (Xasr) qurilgan, Fejak madarasasidir. Buxoroda yununshunoslar uchun maxsus «Fikx madrasasi» (XII asr) ham qurilgan. Madrasalar Qur'on, Hadis, shariyat aknomalari o'rganilgan. Ayniqsa Qur'onning sharhi «Tafsir» ga alohida e'tibor berilgan. Abu Jafar Tabariy tamonidan Qur'onning 14 jildlik tafsiri «Tafsiri Tabariy» izohlari yozilib u o'z vaqtida arab tilidan fors tiliga tarjima qilindi. Abu Xafs Kabir Buxoriyning Fikxshunoslik xizmati tufayli «Qubbat ul-Islom» deb ataladi.

IX asrda Iroqda paydo bo'lgan Tasavvuf ilmining Movaraunnahrga yoyilishida Xakim Termiziy, Abu Hamid G'azzoliy, Yusuf Hamadoni, Abduholik G'ijduoni va ahmad Yassaviyning xizmati katta bo'ldi. Tasavvuf ta'limoti asosida inson kamoloti, ilohiy ishq va shohidlik martabalari yotadi.

XII asrda Turkistonda Yassaviya, Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya tariqati paydo bo'ldi. So'fiylik sharoit, tariqat, ma'rifat, xaqiqat kabi kamolot bosqichlari bo'lib, inson faoliyatini mukammal mohiyatini aks etadi.

Tasavvuf o'rta asrlarda barcha ilm-fan, falsafa va adabiyot va san'atning mohiyatida o'z aksini topdi va klassik madaniyatning jahon miqiyosidagi mezoniga aylandi.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyodagi uyg'onisht davrining o'ziga xos jixatlari?
2. «Arab musulmon madaniyati» tushunchasining mazmunini izihlab bering.
3. So'fiylik nima va uning asosiy yo'nalishlaridan qaysilarini bilasiz?
4. Shaxsning ma'naviy tarbiyasi uchun so'fiylikning ahamiyatini so'zlab bering.

Mavzuga doir adabiyotlar

1. I. A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» Toshkent. 1998
2. Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. Toshkent. 1994.
3. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi, Toshkent 1998.
4. Ahmedova E., Gabidulin R., Kulturologiya, mirovaya kul'tura. Toshkent.2001.
5. Gurevich P.S. Kul'turologiya, mirovaya kul'tura. Toshkent. 2001
6. Umarov E., Abdullaev M., Xakimov E. Kul'turologiya. Tashkent. «Yangi asr avlodi »

8-Mavzu: Temur va Temuriylar davri madaniyati. (XIV asr ikkinchi yarmi -XV asr) .

1. Temur va Temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy madaniyo maishiy taraqqiyoti.
2. Me'morchilik tasviriy san'at va amaliy san'at.
3. Ilm fan va adabiyot, din.

Mavzuga doir tayanch so'zlar va iboralar

Uyg'onish davrining cho'qqisi, Amir Temurning ma'naviy dunyosi, Temuriylar davri madaniyati, tarixiy fanlar.

8,1. Temur va Temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy madaniyo maishiy taraqqiyoti. Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil qiladi. Madaniyat tarixida klassik davr hisoblangan bu davr xususan, o'zbek madaniyatining bugungi xuquqiy joylashuvida asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, bu davr madaniyati Temur asos solgan kuchli davlatchilik tamoillari asosida ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqdir.

Amir Temur Davrida O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, xunarmandchilik va me'morchilik ravnoq topdi. Mamlakatlardan ko'plab fan va san'at ahillarini, xunarmand me'morchilik va mksavvirlarini to'pladi.

Temur markazlashgan davlat tuzish darayonida ishlab chiqarishga, xususan qishloq xo'jaligi alohida e'tibor berdi. O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orishga bag'liqligini yaxshi tushungan Temur Angor kanalini qizdirdi va Mug'rob vodiysida sug'orish ishlarini yo'lga qo'ydi. Samarqand, Shahrisabz shaharlari oqar suv bilan ta'minlandi. Lalmikor erlarida ariqlar qazildi. Dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir, ekilgan. Bo'yoq uchun ro'yan o'simligi va shuningdek pillchilikda tutlar ko'p ekilgan, uzum va limonlar etishtirilgan.

Ulug'bek davrida Bog'i maydonda turli o'simliklar ekilib, bog'cha nomli bog'barpo etildi. Temur samarqand atrofida Bag'dod, Sultoniya, Sheroz nomli qishloqlar qurdilar. Temur va Ulug'bek davrida ko'ychilik va yilqichilikka alohida e'tibor berilgan.

Tog'-kon ishlari yo'lga qo'yilib, turli ma'danlar qazib olinishi bilan xunarmandchilik rivojlandi. Obodonchilik, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha xunarmandchilik, savdo va tavar pul munosabatlarining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xunarmandchilik tarmoqlari ko'payishi tufayli shaharlarda xunarmandchilik mahallalarnining soni ortib, yangi bozor rastalari, tim va toqlar qurilgan. To'qimachilik, qulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik sohalri asosiy o'rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida xunarmandchilik mahallalari qurilib, savdo markaziga aylandi. Ip, jun, kanob, tolasidan gazlamalar to'qilgan Ipakdan shoyi gazlamalar atla, kimxob, bonoras, duhoba, horo, debo kabi gazlamalar to'qildi.

XV-asrda metal buyumlari uy ro'zg'or buyumlari, asbob-uskinalar, qurolq-yarog'lar ko'plab ishlab chiqarilgan. Samarqand qurolsizlik markaziga aylanib, sovutsozlik mahallasi qurilgan. Shaharlarda mis va jezdand buyumlar va mis chaqalar zarb qilingan. Temur famoni biln usta Izzodin Isfaxoniy yasagan jez qozon va shamdon hozirgacha saqlanib qolgan. Misrgar va Chilangarlar metalni toblash, sirtiga naqsh solish, oltin va kumush suvi yuritish kabi murkkab ishlarni bajarganlar.

Masalan, Bibixonim masjid elliklari etti xil ma'dan qotishmalar tayyorlangan. Zargar oltin va kumush, jez qotishmalaridan nafis ze-ziynat buyumlari yasaganlar. Oltin kumush gardishli, qimmatbaho toshlar qadalgan idishlar sirtiga naqsh va yozuvlar ishlangan.

Kulolchilik sertarmoq soha bo'lgan. XIV-XV asrlarda sirli sopol badiiy rang-baranglida turli sohalarda ishlatilgan. Va turli buyumlar yasalgan. Toshtaroshlikda naqsh, xattotlik keng qo'llanila boshladi. Binokorlikda g'isht teruvchilar, "banno" peshtoq, ravnaq hamda toqlarga parchi va chiroq qoplovchi padozchilar "ustoz" deb atalgan.

Samarqandda shishakorlik rivojlanib turli idish va buyumlar yasalgan. Qurilishda rangli oynalardan foydalangan. YoYog'och o'ymakorligida naqshli binolar qurilgan va buyum jixozlar yasalgan.

Samarqand qog'ozi xatto chet o'lkalarda mashhur bo'lgan.

Bu davrda xunarmandchilik moli ishlab chiqariladigan korxona boshlig'i "usta" shogirdlar Xalfalar bo'lgan. Xunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasiga mansub bo'lgan.

Temuriylar davlati Xitoy, Xindiston, Eron, Rusiya, volga bo'yi, Sibir bilan muntazam savdo-sotiq aloqalari olib borilgan. Chet davlatlari bilan savdo aloqalari o'rnatishda temuriylarining elchilik aloqalari ahamiyat kasb etgan. Temur savdo rastalari va bozorlar yo'llar qurdiradi., karvon yo'llarida kavonsaroylarni ko'paytiradi. Ayniqsa Samarqand, Buxoroda bozor chorsu, tim, toq, kappon kabi savdo xunarmandchilik inshootlari qad rostladi

Shahar bo'ylab o'tgan keng ko'chaning ikki tamoniga do'konlar joylashtirilgan. Samarqand Buxoro savdo maydonlarining kengayishi va ixtisoslashtirilgan bozorlarga egaligi bilan ajralib turgan. Bozor savdo markazi va xunarmandchilik ishlab chiqarish joyi edi. Shuningdek bozorlarda qo'lyozma kitoblar, yozuv qog'ozi sotilgan, ariza, yoki maktub yozuvchi mirzalar ham o'tirgan. Savdo rastosi unda sotiluvchi tovar nomi bilan atalgan. Bozorlarda adabiyot, ilm-fan haqida suhbatlar bo'lgan, farmonlar e'lon qilingan va aybdor jazolangan. Turli tamoshalar shu joyda ko'rsatilgan, masjid, madrasa, xamom bozorga yaqin joyga qurilgan.

Temuriylar davrida karvon yo'llarida elchilar, choparlar va savdo karvonlari uchun dam olish, otlar almashtirish joylari qurilgan.

XIV-XV asr oxirlarida Movaraunnaxrni ko'p mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ba'zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan karvon yo'llari bog'lagan edi. Bu yo'llar bir-biridan iqtisodi, xalq turmush tarzi, dini, ma'naviy va modiy madaniyati jixatidan farqlanuvchi malakatlarining o'zaro aloqasini rivojlanishiga imkon berdi. Karvon yo'llari savdo, diplomatik aloqalarning amaliy vazifasini, ayni vaqtda mamlakat va xalqlarini o'zaro iqtisodiy va madaniy

vazifasini, ayni vaqtda mamlakat va xalqlarning o'zaro iqtisodiy madaniy ta'sirini mustaxkamlashga xizmat qiladi. O'rta Osiyo xalq zaminida temuriylar davri ilmfan, adabiyot, san'at sohalarida kamolot bosqichiga ko'tarildi.

8,2.Me'morchilik tasviriy san'at va amaliy san'at.

Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namayon bo'ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «Qudratimizni ko'rmoq istasang-binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movaraunnahr qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'llam kasb etadi. Ilk o'rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan «Shahriston» dan ko'lam va mazmuni bilan farq qiluvchi «Xisor» qurilishini Samarqand va shahrisabzad kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahri qurilishi yakunlandi. «Xisor» ning janubi-g'arbga xukumat saroyi Oqsaroy va atrofda robotdir, bog'-rog'lar qurildi.

Temur saltanat paytaxti Samarqandni bezatishga alohida e'tibor berdi. Shaharda «Xisori», qa'a, ulug'vor, inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Samarqandga kiraverishdagi Ko'xak tepaligida Cho'pon ota maqbarasi Ulug'bek davrida qurilgan bo'lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug'vorlik uyg'unlashib ketgan. Temur davrida Samarqand Afrofsiyobdan janubda mo'g'illar davridagi ichki va tashqi shahar o'rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal'a devori xandak bilan o'ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.

Shahar mahallardan iborat bo'lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug'i bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi., inshootlar ko'lam bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muxandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi. Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig'i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug'bek davrida gumbaz osti tuzilmalari yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlardagi yutuqlar me'morchilik yodgorliklarida aniq ko'rinadi (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go'ri Amir maqbaralari, bibixonim masjidi, Ulug'ek madrasasi) Ularning old tamoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi geometrik aniq o'zaro nisbati bor. Bezak va sayqal ishlari ham bino qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan.

Temuriylar davrigacha va undan keyin Movaraunnahr va Xuroson me'morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur va Ulug'bek davri me'morchiligida bezakda ko'p ranglik va naqshlar xilma-xilligi kuzatildi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, xattotlik san'atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan.

Kushon qatamlarida tasvir mazmui kamuchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida Sher bilan Quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu razmiy ma'noga ega. Temur va Ulug'bek davrida binoichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, xatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatilgan. Temur davrida qurilgan binolarda ko'k va zarxal ranglar

ustun bulib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug`bek davrida Xitoy chinnisiga oq fondagi ko`k naqshlar uchraydi.

Bu davrda diniy inshootlar, xukmdor saroylari, aslzodalarning qarorgohlari ko`plab qurildi. Temur Xindiston yurishidan so`ng (1139y) Samarqandda jo`me masjidi qurdirdilar. Uning ro`parasida Bibixonim madrasasi va maqbara bunyod ettirdi. Ulug`bek Buxoro jo`me masjidini kengaytirib qayta qurish ishlarini boshlagan, biroq u XVI asrda qurib bitkazildi.

Temur davrida Saroy Mulk xonim, Go`ri Amir majmuasida madrasalar kurilgan. Ulug`bek Samarkand, Buxoro va G`ijdivonda madrasalar bunyod etildi. XV asrda madrasa me`morchiligi o`zining uzil kesil qiyofasiga ega bo`ldi. Temuriylarning ikki san`at durdonasi- Samarqanddagi va Ulug`bek va Xirotdagi Gavxarshodbegim madrasalari yagona tizim rejasi bo`yicha kurilganligiga karamay bir-biridan farq qiladi.

Temuriylar davridan qolgan maqbara, din arboblari va ruxoniylar qabrini o`z ichiga oluvchi tusiqli- xazira, avliyolar qadamjolari, daxma aloxida guruxni tashkil qiladi. Samarqandda Temur davrida Shayx Burxoniddin Sag`orjiy xilxonasi- Ruxobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi- go`ri amir. Shuningdek Shoxizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar qurildi. Ulug`bek davrida ijodiy izlanishlar samarasi daxmalarning me`moriy ko`rinishiga xon tasir o`tkazadi. Shoxizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va hozirgacha Qozizoda Rumiy maqbarasi deb kelinayotgan (Sultonning onasi uchun kurilgan, asli noma`lum) maqbara quriladi. Ulug`bek Buxoro, G`ijduvon, Shaxrisabz, Termiz, Toshkentda va noyob obidalar qurdirgan. Ammo qurilish miqiyosi va bezaklar bo`yicha Samarqanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shoyxontoxur majmuasi, bo`lib Qaldirg`ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarimiga mansub.

Temur davrida ulkan inshoot - Turkiston shaxrida Axmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. Bu maqbara musulmon shirqining me`moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir.

Qadamjolar me`morchiligi xam o`ziga xos tuzilishiga ega. Temur Buxoroda Chashmai ayup (1380) yodgorligi kurdiradi. Shuningdek, Temur Shaxrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun «hazira»- «Dor us-siyozat» (1389-1400) xilxonasini qurdirgan. O`g`li Jahongir vafot etgach Shaxrisabzda (Hazrati Imom) maqbarasini qurdirgan. Unda Xorazm memorchiligi an`analarini ko`rish mumkun.

Samarqanddagi Ulug`bek rasadxonasi me`moriy san`atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklida bo`lib, uch qavatlidir.

Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo`lgan. Birinchisi- ma`muriy- siyosiy maqsadda bo`lib, qal`a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchi shahar tashqarisidagi bog`larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari va majlislar o`tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shaxrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo`lib, toq ravoqlari beqiyos bo`lgan. Temur va Ulug`bekning asosiy qarorgohi Samarqanddagi Ko`ksaroy va Bo`stonsaroy deyiladi. Shuningdek shaharlarda tashqarisida Temur o`n ikkita bog` va saroylar bunyod ettirgan.

Ulug`bek davri samarqandning Registon maydoni shakllandi. «Masjidi Muqatta`», 210 gumbazli ko`kaldosh jo`me masjidi qad ko`tardi. Shohizindada

ayrim maqbaralar, Shahrisabzda Ko`gumbaz masjidi, «Chiluston» va «Chinnixona» saroylari uning davrida qurildi.

XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda Xo`ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari bunyod qilindi.

8.3. Ilm fan va adabiyot, din. Amir Temur va Ulug`bek davrida tasviriy san`at turili yo`nalish bo`yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig`inmaslik tasvriy san`atda naqshning ravnaqiga sabab bo`ldi. O`rta Osiyoda arablar bosqichi tufayli to`xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san`at Amir Temur davrida shakl va mazmunda tiklandi. Xatotlik-qo`lyozma adabiyotining ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniatyura-tasviriy san`atga avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy sura`tlar XV asrda yana to`xtab qoldi. Samarqanddagi Temuriylar saroy va qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy sur`atlar bo`lgan. Temur o`g`illari va nabaralari, ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy sur`atlarda aks ettirilgan Ulug`bek davrida ham devoriy sur`atlar mavzu jihatidan rang-barang bo`lib, uslubiy jixatdan miniatyura janriga yaqin bo`lgan. Bu davrda qayta ko`chirilgan Abdurahmon as-So`fiyning (X asr) falaqqiyotga oid asariga ishlangan bir sur`atda Andromeda yulduzlar turkimi Chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. Samarqand rasadxonasida esa to`qqiz falok ko`rinishi, etti-gardish, etti yulduz-yoritgich, daraja vaqt bo`limlari, eryuzining etti iqlimi tasvirlangan.

Temurdavrida qurilgan. Shirinbeka opa, Bibixonim, Tuman opa obidalari, naqqoshlik va xattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjud bo`lgan. Shirinbeka opa maqbarasida tasvir ko`p ranglarda, qolgan ichki bino devorlari oq va moviy rang tabiat manzaralari tasvirlangan.

Xattotlik san`ati taraqqiyotiga XV asrda an`anaviy nasxi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi susl va tezkor-nastalik noyob qo`lyozma asarlar ko`chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobchilikning ravnaqiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi.

Amir tTemur davrida Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. Turkiya va Berlan kutubxonalarida saqlanayotgan ko`chirma-xomaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo`lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompazitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg`unligi xarakatlar aniqligi, qiyofalarining o`z o`rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl xolatiga yaqin sur`atlar "Zafarnoma" ning dastlabki ko`chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Xirotda (1467 y.) ko`chirilgan "Zafarnoma" da keltiriladi. Dastlab Mirak naqqosh boshlangan va Behzod yakunlangan ushbu miniatyura bo kopazitsiyasi va serjilo bo`yoqlarning uyg`unligi adralib turadi.

Miniatyura rassomchigining taraqqiyoti dadabiyotining ravnaqi va rivoji bilan bog`liq bo`lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so`ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlangan. XIV asrda "Jome` ut-tavorix", "Tarixi rashidiy" kabi tarixiy asarlarga ham miniatyuralar ishlangan. Bu an`analar Temuriylar davrida ham davom ettirilib, "Zafarnoma" va "Temurnoma" asarlarida jang lavxalari tasvirlangan. Ayrim xollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina tasviri tushirilgan. Badiiy asarlarning ba`zilarida

Muhammad payg`ambarning (yuzi niqobda) odamlar orasida turgan xolati va me`rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi.

XV asr miniatyuralarning aksariyatida sharq she`riyatining qahramonlari-Layli va Majnun, Xusrov va Shirin, Rustam jang lavhalari tasvirlangan. Umumman miniatyura san`ati Iroq, Eron, xuroson, Mavorounnahr va Xindistongacha xududlarida bir davrga xos badiiy- estetik xodisa edi. Bu xodisa Temuriylar bilan bog`liq bo`lib, temuriylarning Bog`dod, Sheroz, Tabriz, Hirot, Samarqand, Dehli kabi markazlarida bir necha miniatyuralar maktablari vujudga keldi.

Samarqand miniatyura maktabi XIV-XV asrning birinchi yarmida qaror topgan bo`lib, turli turkumda yaratilgan bu miniatyuralarda Sharqiy Turkiston san`atiga xos bo`lgan Turkiy obrazlarda xitoy rassomchiligi ta`siri sezilib turadi.

Samarqanddagi saroy musavvirlari Abul Xayya va uning shogirdlari Shayx Mahmud Tahliliy, Pir Ahmad bog`i Shomoliy, Muhammad Bin, Muhammadshoh, darvesh mansurlar ishlagan temuriylar davriga xos ov-shikor mavzuida yaratilgan. 1420 yildan keyin Boysunqir Mirzo Xirotdan Xattotlik va naqqoshlik ustaxonasi tashkil qilgach bu rassomlarning ayrimlari Xirotda ko`chib o`tdi. Abul Xayya tarixiy asarlarda ishlangan miniatyuralarda Amir Temur va Temuriylarning qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlangan rasmlarida ham ular turli xolatlarda tasvirlangan. Xalil sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar grafik tarzda, badiiy jixatdan o`ziga xos "siyoxi qalam" uslubida ishlangan Temur hayotlik davrida uning saroy devorlarida shoh va Shaxzodalar bor bo`yida tasvirlanib, xaqiqiy partiret janri kamoliddin Bekzod shakllantirdi. Umuman Temur va Temuriylarning qiyofalari tasvirlangan ko`plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning aksariyat rasm chizilagn davr yoki rassom, joy maktab ko`rsatilmagan. Biroq bu miniatyuralarda nur sochib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug`-Temurning gerbi-uningsaroyi peshtoqida, Xalil Sulton va Ulug`bek zarb qilgan tangalarda uchraydi. Shuningdek tabiat tasvirida to`q yashil va jigarrang ko`pligi, kiyimlar turkiy millatiga xos bo`lganligidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyurachiligi maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Xirotda va Sheroz miniatyuralari qahramonlarining deyish boshqacharoqdir.

Samarqand maktabi miniatyuralari vakilliklari kompozitsiyasi yaratish va manzara tasvirida mahoratlidirlar.

Ulug`bek davrida mashhur bo`lgan xattot va musavvir asli Obivardlik Sulton Ali Boverdiy miniatyuralari ranglarining yorqinligi bilan o`ziga xosdir va uni ko`rsatiladi. Samarqand maktabiga xos bo`lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning "Xamsa" asariga va 49 ta miniatyura "shohnoma" asariga ishlangan hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi. Ulug`bek davrida as-So`fiyning "Siljimas yulduzlar ro`yxati" asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar qizil va qora doiralar bilan katta va kichik yulduzlarning joylashishi ko`rsatilgan bo`lib, grafik tarzda rang bermay, qora siyoxda chizilgan. Yulduz turkumi oddiy xalq vakili qiyofasida tasvir etildi. Sharq miniatyurachiligida oddiy xalq hayoti temuriylar davrida paydo bo`lgan. Masalan "Samarqand masjidini qurish", "Iskandar devorini bunyod etish", "ko`chmanchilar turmushi", Jamshidning oddiy xalqqa xunar o`rgatish mavzuida miniatyuralar bo`niga misoldir.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy xunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo'ldi. badiiy xunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lmay, koshnkorlik kulolchiligi, yog'och va tosh o'ymakorligi bilan ham bog'liq edi. Qabr toshlarga qisman o'simliksimon, geometrik nazmlarda bitilgan. Qabrtosh Sag'ana yoki Suna shaklida bo'lib, bo'z rangli marmardan, ayrim xollarda o'ta noyob toshlardan tantana idishlar ishlangan. Yog'och o'ymakorligida Go'ri amirda, Shohi Zinda, Yassaviy maqbaralari, eshiklari, shuningdek, Xvasrga oid uy ustunlari naqshlar bilan ishlangan. Temur va ulug'bek davrlarida metal o'ymakorligi taraqqiy etadi. Buyum va idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o'yib, bo'rma usulda, qimmatbaho tonnalik qozon bronza qo'yish san'atining eng yuksak namunasidir.

Amaliy san'atning qulolchilik turi uchun yashil, zangori tusdagi yorqin sir ustiga sodda o'simliknoma naqshlarni qora bo'yoqlar bilan tushirishga uyurma gullar ishlanishi, bu davrda paydo bo'lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobal't yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Soplo buyumlardagi naqshlar mo'yqalamda chizilgan. Oldingi asrlarda sopol buyumlariga chiziq naqshlar chizilgan, temuriylar davriga mansub chikkisimon sopol buyumlarda qulol rassom turil temuriylar davrining amaliy san'at darajasiga ko'tarildi.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g'amho'rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma'rufiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarqandga keldi. Masalan Qozizoda Rumiy, tabib Xusamiddin Kermaniy falaqqiyotshunos mavlona Ahmad, Ulug'bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy ijodiy faoliyat ko'rsatganlar. Temur va Temuriylar zamonida tabiiy gumanitar fanlar asosida buyuk olimlar etishib chiqdi va jahon faniga munosib hissa qo'shdi. Falaqqiyotshunos fanida Ulug'bek, Qozizoda, Rumiy, G'iysiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmida Sharofiddin Ali Yazdiy, xofizi Abro', Abdu razzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Xusayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashhur bo'ldi.

Mirzo ulug'bek davrida Samarqandda birinchi Akademiyaga saos solindi, er qurrasini o'lchash va falaqqiyot shunoslik jadvallarini tuzish ishlari aamlga oshirildi. Samarqand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqea bo'lib, jixozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona yo'q edi. Rasadxona ulug'bek matematika, geometriya, falaqqiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Ali Qushchi, Muhammad Havofiylar uning sevimli shogirdlari bo'lgan.

Mirzo ulug'bek «zich» asarida VIII-XI asrlarga boshlangan falaqqiyot ilmiga oid an'anani davom ettirib, yuqori darajaga ko'tarildi. Matematikaga doir «Birdaraja sinusi haqida», falaqqiyotshunoslikka oid «Risolai Ulug'bek» va mushqa haqida «Musiqa ilmi haqida risola» kabi asarlar yozdi. Ulug'bek Samarqand va Buxoro, G'ijdivonda madrasalar qurdirilib, ta'lim ishlariga rahbarlik qildi.

Temur va temuriylar davrida halq og'zaki ijodi namunalari yaratildi. Adabiyot badiiy uslub jixatdan takomillashdi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlar yaratildi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi.

Bu davrda etuk ijodkorlar Qutb, Sayfi Saroyi, xaydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih va boshqalar yashab ijod qildi. Ayniqsa o'zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko'lamini Navoiyning ijodi kamolot bosqichiga ko'tardi.

Ilm fan va adabiyotning rivoji kitobat san'ati, yangi qo'lyozma asarlarini ko'chirib yozish, xattotlik, musavvirlik, lavha chizish, muravozlik kabi san'atkor taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir qildi. Nafis kitob va xattotlik XVI-XV asrlarda yangi taraqqiyot bosqichlariga ko'tarildi. Xattot Mir Ali Tabriziy (1330-1402) nasta'liq xatini kashf qildi. Bu usul Xirotda Sulton Ali Mashxadiy boshchiligida yuksak bosqichiga ko'tariladi va Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Qalqalam, Halvoiy, Rafiqiy kabi xattotlar, musavvirlar etishib chiqdi. Samarqand va xirotda Temuriylarning saroy kutubxonalari tashkil etildi. Bu kutubxonalar xunarmandchilik korxonasi hisoblangan, ularda qo'lyozma asarlarni to'plash va saqlash ishlari bajarildi.

XVI-XV asrlar O'rta Osiyo xalqlarining musiqa san'ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo'ldi. Yangi kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa san'atiga nazariyasiga doir asarlar yaratildi. Mahoratli sazondalar, bastakorlar va xofizlar etishdi. Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Xusayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Ahmad Qonuniy, Yusuf Andijoniy kabilar shular jumlasidandir. Ulug'bek, Jomiy, Navoiy va Binoiylar musiqa ilmiga oid asarlar yozib yangi kuylar ijod qildi. IX-XII asrlarda shakllangan 12 maqom bir davrda takomillashdi. Shuningdek keng ommoga mo'ljallangan teatrlashgan tamoshalar xalq sayrlarida masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar, darbozlar o'z san'atini namoish qilgan.

Temur va temuriylar davri ma'naviy hayotida diniy falsafa katta o'rin tutadi. So'fiylik tariqatida Naqshbandiylik rivojlanib, barcha ijtimoiy ma'naviy sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bahovuddin Naqshbandiy bu tariqatni boytib, balogardon martabasiga ega bo'lgan karomat sohibi edi. XV asrda Naqshbandiya tariqatining davomchisi Xoja Ubaydulloh Ahrordir. Samarqandga eklgan Xoja Ahror valining temuriylar o'zlariga pir deb biladilar. Xoja Axror Naqshbandiya Xojagon tariqatining yo'nalishini belgilagan va ijtimoiy faoliyatdan tashqari ijodkorlik ilmi bilan ham shug'ullanib bir nechta sarlar yozgan.

O'rta Osiyoda Temur va temuriylar davrida madaniyat rivojlandi va kamol topdi. XIV-XV asrlardagi Movaraunnahr va Xurosondagi madaniy taraqqiyotning tamal tojini buyuk sohibqiron Amir Temur qo'ygan edi.

Nazorat savollari

1. Temuriylar davridagi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Amir Temur shaxsning Movaraunnaxr madaniyati rivojigi qo'shgan xissasi.
3. Amir Temurning ma'naviy tamoyillab haqida bering
4. Temuriylarning madaniyat rivojiga qo'shgan xissasini ta'riflab bering

Mavzuga doir adabiyotlar

1. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. Tosh. 1996.
2. Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent. 1996.
3. O'zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati. Toshkent. 1992.

4. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Frantsiya. Toshkent. 1996
5. Umarov E., Abdullaev M., xakimov E. Kul`turologiya. Tashkent «Yanig asr avlodi».

9-Ma`ruza mavzui: XVII-XX asrlar O`zbekiston madaniy taraqqiyoti

1. Markaziy Osiyoda mustaqil xonliklarning vujudga kelishi va madaniyatining ahvoli.
2. Mustaqil xonliklar va amirlikning o`zaro madaniy ta`siri va aloqalari.
3. Markaziy Osiyo madaniyatiga rus va dunyo madaniyatining ta`siri.

Mavzuga doir tayanch so`zlar va iboralar

Ma`rifatchilik, idrok, iymon-e`tiqod, insonni ishonchi, iymoni, san`at, she`riyat, bilim, jadidchilik, jadidchilik

9,1. Markaziy Osiyoda mustaqil xonliklarning vujudga kelishi va madaniyatining ahvoli. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri (XVI-XVIII asrlar)da mamlakat feodalizmining murakkabjarayonlarini boshdan kechirdi.

XVI asrda xunarmandchilikning rivojlanishi tranzit va ichki savdoning kengayishiga yordam beradi. Bu davrda xunarmandchilikning 60 dan ortiq turi mavjud edi. Markaziy Osiyo, Xindiston, Eron, Balx, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqada bo`ldi. XVI-XVII asrlarda Mavaraunnaxrda ilm fan ancha rivojlanib bordi. Adabiyot, tarix, me`morchilik va tasviriy san`at o`ziga xos rivojlanish bosqichini bosib bordi. Xasan Buxoriy Nisoriy (1566) yilning "Mazakkir ul-axbob" va Mutribiyning (1604) Tazkiratosh shuaro nomli adabiyot antalogiyasi buning yaqqol ifodasidir. Bu qomusiy antalogiyada 100 dan ortiq adabiyot arboblari ijod va tarjimai xollari o`rin olgan. Mamlakatda xunar va savdo ishlarining rivojlanishi ilm axlini ijtimoiy kengayishiga ta`sir ko`rsatdi. Mutaffakir zayniddin Vosifiy 1512 yil Samarqandda bo`lgan bazm mushoiralarda kosib, shoirlar, savdogarlar va oddiy kishilarning markalarida faol qatnashib turganligini bayon qiladi. Ularning aksariyat she`r yozib turganligi o`sha davr tabaqalarining madaniy jixatdan yuksak saviyada ekanligidan dalolat beradi. Bu davrining o`ziga xos xususiyati shundaki ko`plab adabiy va tarixiy asarlar o`zbek tilida yozilgan muallifi noma`lum (nurratnoma) Muhammad solihning Shayboninoma asarlari o`zbek tilda yozilgan. Bundan tashqari mashhur tarixchi Sharofiddin Aliyazdiyning tarixiy asarlari xususan "Zafarnoma"si ulug`bekka bag`ishlangan "Muntaxabi Jome` va tavorixi shoxi" degan asarlar o`zbek tilga o`girildi. Shayboniylar davrida fanning qator tarmoqlari rivoj topdi. 1693 yilda Amin Ahmad Roziy "Xaft Iqlim" etti iqlim jo`g`rofiy biologiyaga oid lug`at tuzdi. Mutribiyning dunyo xaritasi illova qilindi. Musiqqa ilmiga oid Buxorolik Navkabi asari ham 16 asr bu san`at rivojidan darak beradi. Bundan tashqari xattotlik san`atini rivojiga katta xissa qo`shgan Sulton Ali Mashadiy Mir Ali Xirviy, Mahmud ali Shikobi kabi xusnixat ustalari ham ijod qilingan. 1586 yilda darvesh Muhammad Buxoriy kalligrafiya san`ati nazariyasiga oid asar yozgan. Shuningdek ko`plab

qo'lyozmalar miniatyuralar va sur'atlar bilan bezatilgan. Tarixiy va adabiy asarlardan "Fatxnoma" tarixi Abulxayrixoniy Novoiyning asarlari shular jumlasidandir. Miniatyuralarda Markaziy Osiyo moddiy madaniyati aks etirilgan. Jaloliddin Yusuf keldi Muhammad va boshqalar rassomchilik san'atiga ulkan xissa qo'shadi.

Xonliklar davrida Qurilish inshootlari turlari yanada takomillashadi. Ko'plab jamoat binolari quriladi. Monumenal binolarning tarixi kiefasi o'zgaradi. Buxoro shahri balanligi 10 metrli devor bilan o'ralib, shahar davozaolari quriladi. Yirik binolar qurishda (misr arab madrasasi, Xo'ja Zayniddin xonkasi) xalq me'morchiligi an'analaridan foydalanildi, shahar tashqarisida monemental binolar qurildi. Hovlilar to'rt tamondan ayvon xujralar bilan o'raldi. Buxoro va Tohkentdagi Ko'kaldosh madrasasi bunga guvohlik beradi. Binolarni bezashda mayda o'simlik naqshli parchinlar ishlatildi, devorlarga gul berish temuriylar davridagi usullar rivojlantirdi, qabr toshlari yasashda yuksak badiiy darajada toshlarga yozuvlarni o'yib yozish rivojlandi. (Shayboniyxonla qabr toshi va Chulduxtaronda Abu Said qabriga qo'yilgan toshlari)

9.2. Mustaqil xonliklar va amirlikning o'zaro madaniy ta'siri va aloqalari.

Markaziy osiyoda xonliklari va amirlik o'rtasida nizolar bo'lib tursada ma'lum darajada dehqonchilik, xunarmandchilik, sovd o'sotiq davom topdi. Fan adabiyoti san'atning rivojlanishi ko'proy saroy doirasida ham diniy ham amirlikdagi siyosiy voqealar solnomasini ifodalaydi. O'sha davr ruhi aks etganligi bilan tarixi ahamiyatga ega. Muhammad Yoqubning «Gulshan-ulmulk», Muhammad Mir Olimning «Tarixi amir Nasrullo», Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharifning «tarixi amir xaydar», Muhammda Xakimjon To'raning «Muntaxabut-tavorix», kabi asarla diqqatga sozovordir. Qo'qon adabiy muxiti ko'plab shoir va shoiralar ijodi bilan boyiydi. Qo'qon umarxonningo'zi «amiriy» taxillusi bilan o'zbek tilida g'azallar yozgan uning rafiqasi Mohlaroyim «Nodira» taxallusi bilan fors tojik tilida «Maknuna», «Komila» taxalluslari bilan she'rlar yozgan. Eri umarxon vafot etgach Nodira davlat ishlariga aralashib,mamlakat xo'jaligini yaxshilash madaniy hayotini rivojlantirish bo'yicha muhim tadbirlarni amalga oshiradi. Qo'qonda Madrasalar, karvonsaroylar, rastalar, yo'llar qurdiradi. U o'z at rofiga uvaysi Maxzuna kabi qobiliyatli ijod ahlini to'pladi.

Bu davrda Fazliy Namangoniy Mushrif, Mushfikiy kabi shoirlar ijod qilgan. Mushfikiy Buxoro amiri Abdullaxon saroyida «Malikush-shuaro» unvoniga ega bo'lgan bo'lsa, bo'lsa Fazliy Namangoniy Qo'qon shoirlariga boshchilik qilgan, Umarxonning topshirig'i bilan Fazliy va Mushrif tamonidan «Majmuat-shshshoira» to'plami tuziladi. Bu davrda Qo'qonda Xudoyorxonning saroyi arki, Xivada turib obidalarini qurdiradi. Taxminan XVII asrda yashab ijod qilgan shoirlardan biri Turdi Farg'oniy haqida ma'lumot beruvchi asosiy mana shoirning o'z asaridir. U yuz urug'ning oqsoqollaridan biri sifatida Abdulazizxon saroyida e'tiborli kishilardan biri bo'lgan, keyin saroydan chetlashtirilgan. XVIII asr oxirida tug'ilgan shoir Muhammad og'ir ahvolda yashab, saroyda askarlik qilgan. Maxmur qiyinchilikda Xapalak 1844 yilda vafot etgan. Uning she'ralari ichida xapalak xajviy asari mavjud. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Farg'ona

Muhammad Sharif Gulxaniy taxallusi bilan tanilib ajoyib lirik sheʼrlar, masallari yozdi. Uning «Bulbulmaasl» aasri qahramonlari qushlar boʻlib, shoir ular orqali saroy kirdikorlarining fosh etadi. Yana bir qoʻqonlik shoir Gʻoziy ham asarlarida zadagon va ruxoniylar fosh qiladi. XIX asrning 30 yillarida Shahrisabzda shoir xiromiy xind, Fors adabiyotida mashhur boʻlgan «Chor Darvesh» va «Toʻtinoma» xokoyalarini oʻzbek tilga tarjima qiladi. Xalq dostonlari «Yusuf va Zulayxo», «tohir va Zuhra», «Boʻz oʻgʻlon», «Yusuf va Ahmad» va boshqa asarlar vujudga ekldi. Shahar xalq hayotidan xikochya qiluvchi lavhalarni oʻynab, tomosha koʻrsatatar, boshlar va saroy ahlini ochkoʻzligini fosh etib, ustidan kular edi.

Bu davrda Markaziy Osiyo ikki turdagi maktab mavjud edi: kuyi maktab va oliy madrasa. Boshlangʻich maktab savod oʻrgatilar va diniy matndlar yodlanar edi. Madrasada ham ilohiyat oʻqitilar shuningdek arab tili sarfu naxfi, notiqlik sanʼati, aljab va xandasa asoslari oʻrgatilgan. Bundan tashqari Xofiz, Bedil, navoiy asarlari oʻqitilgan.

Oʻsha davr shoirlari, fan arboblari musiqani chuqur tushunganlar. Musiqa sanʼatini rivojiga ulkan xissa qoʻshgan Mavlono Muhammadin Muganniy, Mavlono Kavkabiy. Xoʻja Muhammad, Rizo Samarqandiyning nomlari bizgacha etib kelgan.

Bu davrdagi meʼmorchilik yodgorliklari xajmi va pardozining jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Sherdor madrsasining old peshtoqida rangin koshinlar bilan chekilgan bir juft sher tasvirlangan. Tillakori madrasasining nomi «tilla bilan pardozlangan» degan maʼnoni biladiradi. Devorlardagi ajoyib naqshi nigorlar va ichki devorlardagi toʻkis tilla bezaklar juda nafis ishlangan.

XVII asr oxirlaridan xiva xonligida taʼmirlash va shaharsozlik ishlari avj oladi. Ollaqulixon madarsasi, Roxmonkui inoq saroyi xajm jixatidan ancha maxobatli qurilgan. Qoʻqon xonligi meʼmorchiligida rangqbaranglik va yorqinlik, radozdagi koshinlarning yorqin tovlanishi kabi xususiyatlar ayniqsa Xudoyorxon saroyida yaqqol namoyon boʻladi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida meʼmorchilik xajm jixatidan ixcham binolar, goxo bezak-pardozlardan xolliligi bilan koʻzga tashlanadi. Xonliklar va Amirliklarda meʼmorchilik qurilishida va bezakda oʻziga xoslik ham seziladi. Fargʻona uylari kengkovoul va ayvonli, guldor tokchali, oʻyma ganchli shiftlari naqshi nigorli qilib qurilsa, Samarqand vaBuxoro uylari uchun chiroyli koʻrinishdagi ustunli ayvon, girix va Islomiy naqshlari tushirilgan devor va ganch oʻymakorligi xosdir. Xiva uylari tashqi va ichki shaklda qurilib ayvoni ichkariga qaragan, ustunlariga oʻyma naqshlar chekilgan, murakkabshakldagi gullar bilan bezalgan.

XIX asr boshlarida mehnat kash xalqning turmmush madaniyati past darajada edi. Xonliklarni oʻzaro urushlari xoʻjalik va madaniy hayoti izdan chiqariladi. Bu hol Chor Rossiyaning xonliklari bosib olishini osonlashtirdi. Rossiyada sarmoyalar sanoatning oʻsishi yangi bozor savdosiga va xom ashyo manbalariga boʻlgan talabni oshirdi. Rossiya markaziy osiyoning bosib olgach, mahalliy aholi rus va Rossiyaning boshqa xalqlari bilan aloqa oʻrnatishga majbur boʻldi. Sanoat va qishloq xoʻjaligi texnikalari kirib kela boshladi. Oʻz oʻrnida Rossiya va evropa

madaniyati elementlari kririb keldi. Rus tizim maktablari ochildi. Tipografiya va litografiyaning paydo bo`lishi madaniy hayotda katta voqea bo`ldi. Avval rus tilida, so`ngra mahalliy tillarda gazeta, jurnal va kitoblar chop etila boshladi.

XIX asrning 80 yillarida A. S. Pushkin va I.A. Krilov asarlari ilk bor o`zbekchaga tarjima qilindi. 1880 yilda Toshkentda jamoat kutubzonasi ochildi. 1870 yilda rasadxona va kimyogarlik tajribaxonasiga asos solindi. Ilmiy jamiyatlar tuzildi, tarixiy va arxeologii muzeylar ochildi.

Bu paytda kelib, Turkiston burjuaziyasi orasida jadidchilik xarakatlari keng tarqaldi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar tuzish dasturini ola surdilar, bu maktablarda asosan turkiy til, adabiyot va dunyoviy fanlar o`qitilgan. Katta shaharlarda jadidlar birlashmasi tashkil qilinadi. Toshkent, Buxoro va Samarqand gazetalar jadidlar xalqni ma`rifatga chaqiradilar.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyoda mustaqil xonliklarning vujudga kelishi va madaniyatining ahvoli.
2. Mustaqil xonliklar va amirlikning o`zaro madaniy ta`siri va aloqalari.
3. Markaziy Osiyo madaniyatiga rus va dunyo madaniyatiningta`siri.

Mavzuga doir adabiyotlar

1. I. A. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Toshkent. 1994.
2. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uningasosiy masalasi. Toshkent. 1998.
3. Alimova D. Rashidova D. Bexbudiy i ego politicheskie vozzreniya. Tashkent.2000.
4. Umarov E. Abdullaev M., Xakimov E. Kul`turologiya. Tashkent. «Yangi asr avlodi».
5. Erkaev A. Duxovnost`-energiya nezavisimosti. Tashkent. 1997.

10-Mavzu: Milliy istiqlol g`oyasi va O`zbekistonda madaniy taraqqiyoti

Reja:

1. Ma`rifiy-ma`naviy isloxatlar-jamiyat taraqqiyotining ustivor yo`nalishi sifatida.
2. Ta`lim rivojining o`ziga xos xususiyatlari.
3. Hozirgi bosqichda madaniy hayot.

Mavzuga doir tayanch so`zlar va iboralar

Ma`rifatchilik, idrok, iymon-e`tiqod, insonni ishonchi, iymoni, san`at, she`riyat, bilim, jadidchilik, jadidchilik

**10,1. Ma`rifiy-ma`naviy isloxatlar-jamiyat taraqqiyotining ustivor yo`nalishi sifatida.** Har qanday jamiyat taraqqiyoti, o`sha jamiyatda yashayotgan fuqarolar ma`naviyat, turmush tarzi, ularning moddiy ijtimoiy extiyohlari qay darajada qondirilishiga bog`liq. Shuning uchun bu masalalarni hal etishda, O`zbekistonning real hayotida o`zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixida, ma'rifiy ma'naviy ishlarga e'tibori bizga ma'lum. Bu uzoq tarixiy an'analarga mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan alohida e'tibor berilmoqda. Tatalitar tuzim sharoitida madaniyatning asosiy vazifasi jamitya kishilarning kommunistik mafkura va sohta g'oyalarga e'tiqodini mustahkamlashga qaratilgan. Hozirgi kunda esa uning maqsadi tubdan o'zgardi.

Ular nimalardan ko'rinadi:

1. O'zbekistonda ma'naviyat ishlarini amalga oshirish uchun butun mas'uliyatni xokimliklar, vazirliklar, idoralar tashkilotlarning birinchi rahbarlariga yuklatildi. Bu ham juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.
2. Ma'naviyatni yuksak millatgina, uning kelajagi buyuk bo'ladi.
3. Ma'naviyat va ma'rifat jamiyat hayotida poklantiruvchi kuchdir. Lekin hamon uchrab tursada, mustabid tuzimda qolgan millatlardan fuqorolar ongini poklash lozim.
4. O'zbekiston jamiyati ma'naviyatning eng muqaddas maqsadlaridan biri o'tmish tarixiy, madaniy, milliy ahloqiy mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga asoslanish.
5. Prezidentimiz I. A. Karimov qayd etganidek, xalqimiz faslida ma'naviy-mafkuraviy ishlarni olib borish ular ongiga singdirish.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyoti bosqichida ma'naviy omillar, millatlararo munosabat ham tubdan o'zgardi.

Shuning uchun O'zbekiston xukumati madaniyatdagi milliylik va baynalminalchilik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida e'tibor bermoqda. 130 dan ortiq millatga ega yurtimiz har bir fuqorani ximoyalashdolzarb vazifadir.

Shu o'rinda 1989 yilda madaniyat ishlari vazirligi xuzurida respublika millatlararo madaniy markaz tashkil etildi. 1992 yilda xukumat qarori bilan respublika Baynalminal madaniy markazi tashkil etildi. Markazning bosh vazifasi, milliy madaniy markazlarga amaliy uslubiy yordam ko'rsatish, ularning milliy an'ana urf odatlarini tiklash, madaniy markazlar bilan aloqalarni yaqinlashtirishdan iborat.

1994 yil 23-aprel prezidentimiz I. A. Karimov farmoni bilan Respublika ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi.

Sobiq ittifoq, tugatilishi bilan kommunistik mafkura ham barham topdi. Uning achchiq saboqlaridan xalqimiz xabardor. Shuning uchun mafkura-yakkaxonim rolini o'ynamaslikni xuquqiy poydevorini yaratildi.

1996 yil 9 sentyabrda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorlikni oshirish to'g'risida prezidentimiz farmoni e'lon qilindi.

Farmon asosan 1997 yildan boshlab 1 oktyabr «o'qituvchilar va murabbiylar» kuni deb e'lon qilindi. «Ma'anaviyat» nashriyoti tashkil qilindi.

Markaz qoshida «Oltin meros» xalqaro hayriya jamg'armasi tasis etildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 9,5 mingga yaqin umumta'lim maktablar, gimnaziyalar, akademik litseylar, kolejlar, 65 ta oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

So`nggi yillarda milliy maktablar tizimiga ham alohida e`tibor berilmoqda. O`zbekistonda 2,5 mingdan ortiq o`quvchisiga ega bo`lgan 50 ga yaqin qirim-tatar maktabi, 130 o`quvchigaga ega bo`lgan 7 ta nemicha maktabi, 2400 ga yaqin o`quvchisiga ega bo`lgan 24 ta kores maktabi, qurdilar, yaxudiyar maktablari ishlab turibdi.

Bundan tashqari 9 mingdan ortiq qozoq farzandlari, 3 mingdan ortiq tojik, 1 mingdan ortiq qirg`iz va 1,5 mingdan ortiq turkman farzandlari o`z ona yurtlarida ta`lim-tarbiya olmoqdalar.

Nazorat savollari

1. «Ma`rifatfarvarlik» tushunchasini izohlab bering?
2. Mustamlakachilik davrida milliy ma`naviyat va ma`arifatning ahvoli qanday edi?
3. Ma`rifatfarvar Abay Qo`qonboevning ijodi haqida gapirib bering.
4. Jadidchilikning madaniy xodisa sifatida izohlab bering.

Mavzuga doir adabiyotlar

6. I. A. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Toshkent. 1994.
7. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi. Toshkent. 1998.
8. Alimova D. Rashidova D. Bexbudiyy i ego politicheskie vozzreniya. Tashkent. 2000.
9. Umarov E. Abdullaev M., Hakimov E. Kul`turologiya. Tashkent. «Yangi asr avlodi».
10. Erkaev A. Duxovnost`-energiya nezavisimosti. Tashkent. 1997.

11-мавзу: Маданият ва фалсафаси

Reja:

1. Madaniyat tushunchasi. Moddiy va ma`naviy madaniyat
2. Milliy va umuminsoniy madaniyat. Sharq va G`arb madaniyati
- 3 Fan falsafasi. Fanning maqsadi, vazifalari, turlari
4. Mustaqillik va fanni taraqqiy ettirish masalalari

Tayanch tushunchalari

Madaniyat, tsivilizatsiya, ma`naviy madaniyat, moddiy madaniyat, tsivilizatsiyaviy yondashuv, milliy madaniyat, Sharq tsivilizatsiyasi, G`arb tsivilizatsiyasi, hozirgi zamon tsivilizatsiyasi, hududiy tsivilizatsiya.

Fan, ilmiy bilim, fanning vujudga kelishi, fan va falsafa, Markaziy Osiyo fani, fan va madaniyat, fan va iqtisodiyot, fanda an`ana va yangilanish, fan qadriyatlar, olim qadri, bilish usullari, empirik bilim, nazariy bilim, ijtimoiy-gumanitar fanlar, tabiiy fanlar, texnika fanlari, ilmiy-texnika inqilobi, ilmiy salohiyat, metodologiya.

11,1. Madaniyat tushunchasi. Moddiy va ma`naviy madaniyat

Insoniyatni o`rab turgan muhitning tarkibiy qismi bo`lgan odamzodning yaratuvchilik qobiliyatini ko`z-ko`z qiladigan eng buyuk ne`matlar orasida madaniyat

asosiy o`rinlardan birini egallaydi. Unda odamzodning iqtidori, salohiyati va qobiliyati o`zligini namoyon qiladi. Gohida olimlar, mutaxassislar o`rtasida «Odamzod madaniyatni yaratishga qancha ko`p e`tibor qaratgan bo`lsa, madaniyat ham odamzodni shuncha ko`p tarbiyalagan», degan fikrlarni ham eshitish mumkin.

Keyingi yillarda madaniyat tushunchasi bilan birga, «Tsivilizatsiya» atamasi ham tez-tez eshitaladigan bo`lib qoldi. Muayyan xalq, hudud yoki davlatning taraqqiyot bosqichlari, ularga xos madaniy rivojlanish to`g`risida gap ketganida, olim va mutaxassislar ana shu atamadan foydalanmoqda. Bu esa o`z-o`zidan **«Xo`sh, madaniyat nima? Tsivilizatsiya-chi?»** kabi savollarga javob berishni taqozo etadi. Madaniyat ko`pqirrali ijtimoiy-tarixiy hodisa bo`lib, insoniyat ma`naviyati yuksalib borgan sayin mazkur tushunchaning mazmuni tobora boyib boradi. Madaniyat inson tomonidan yaratilgan sun`iy olamdir yoki ikkinchi tabiatdir, degan qarashlar ham yo`q emas. Bunda odam zotining yaratuvchilik qobiliyati, iqtidori va shu asosdagi faoliyati hamda ularning natijalari nazarda tutiladi.

Tarixdan jamiyat taraqqiyotining muayyan davrlarida madaniyatning nihoyatda gullab-yashnagan davrlari bo`lgani ma`lum. Masalan, qadimgi Yunonistonda miloddan ilgarigi VII-II asrlarda fan va madaniyat nihoyatda rivojlangan. O`sha davrda yashagan Suqrot, Aflotun, Arastu kabi o`nlab allomalarning nomlari insoniyat tarixiga abadiy muhrlangan. Hozirgacha insoniyat tarixini o`rganadigan mutaxassislar bu davrdagi Yunoniston madaniyatini jahon tsivilizatsiyasining beshiklaridan biri sifatida talqin etadilar. Taxminan ana shu davrda «Avesto» kitobini yaratgan yurtdoshlarimiz madaniyati ham yuksak bo`lganini bugungi kunda ko`pgina mutaxassislar e`tirof etmoqda. Xuddi shunday madaniy taraqqiyotni yurtimiz tarixining VII-XII asrlarida yoki Sohibqiron Amir Temur hukmronlik qilgan davrda ham kuzatish mumkin.

Madaniyat inson bilimlari, ko`nikma va tajribalarini, ma`naviy salohiyatini hamda amaliy faoliyat jarayonida inson ideallarining ro`yobga chiqishi va shaxs sifatida kamol topish jarayonini o`zida aks ettiradi.

Madaniyat va tsivilizatsiya tushunchalari o`zaro bog`liq bo`lsa-da, turlicha mazmun va xususiyatga egadir. Ba`zi olimlar madaniyat, o`zining kelib chiqishiga ko`ra, tsivilizatsiyaga nisbatan qadimiydir, u mohiyatan tsivilizatsiyaning ruhi, jonidir, deb hisoblaydi. Masalan, A. Toynbi «Tarixning idrok qilinishi» asarida shunday fikrlarni bayon etadi. Frantsuz olimi R. Aron ham shunga yaqin xulosaga keladi. Uning fikricha, aynan madaniyat va sanoat sohasidagi tanazzul asta-sekin insoniyatni krizislar botqog`iga botirishi, bu esa, umumbashariyatning kelajagini xavf ostiga qo`yishi ham mumkin.

Har bir xalq o`ziga xos madaniyat yaratadi va shu madaniyat tufayli o`zligini anglaydi, jahon taraqqiyotiga hissa qo`shadi. Milliy madaniyat rivojida quyidagilar katta o`rin tutadi:

- **millatning vatani** — millat tarqalgan va u azal-azaldan yashab kelayotgan hudud. Milliy madaniyatning kamol topishi, rivoji va saqlanishi uchun eng asosiy tabiiy omil bu Vatandır. Uning sajdagoh kabi muqaddasligining sabablaridan biri ham ana shunda. Vatanisiz milliy madaniyatning takomili, uning avlodlardan-avlodlarga to`la holda meros qolishi to`g`risida gapirish qiyin. Faqat o`z vatanidagina millat madaniyatini cheksiz

rivojlantirish, ma'naviy kamolotning yuksak cho'qqilariga tomon etish imkoniga to'la-to'kis ega bo'lishi mumkin.

- **millatning tili.** Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, dunyoda 2000 dan ortiqroq tillar mavjud. Kichik lahjalarini qo'shib hisoblangan, bu ko'rsatkich yanada ortadi. Til millatning ruhi, unga mansub kishilarning bir-biriga va dunyoga aytadigan so'zi; millatning o'tmishi va merosini ifoda qilish, maqsad va istaklarini bayon etish uslubidir. Hatto millat ishlatayotgan so'zlarni tahlil qilib ham, shu millatning tarixiy taqdiri va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

- **millatga mansub kishilarning ma'naviyati, axloqi va nafosati.** Jahon millatni ana shu jihatlar orqali taniydi, baholaydi. Kishilar o'zaro munosabatga kirishayotganida ham millatning mentaliteti, axloqiy va ma'naviy xususiyatlarini hisobga oladi. Biror kishi bilan munosabatga kirishilayotganida ana shu xususiyatlar hisobga olingani kabi, xalqaro munosabatlarning ham ma'naviyat bilan bog'liq yozilmagan qonunlari, aytilmaydigan qoidalar bor. Gohida madaniyat deyilganida, aynan ana shunday aytilmaydigan va yozilmaydigan qonuniyatlar nazarda tutiladi.

- **urf-odatlar, an'analar.** O'z urf-odat va an'analarga ega bo'lmagan millat yo'q. Ma'naviy hayotning mana shu jihatlari orqali millatning o'zligi namoyon bo'ladi. Urf-odat va an'analarda millatning tarixi, o'tmishi, madaniy merosi o'z aksini topadi. Ana shu xususiyatlarini yo'qotgan millat etnoijtimoiy birlik sifatida yo'qoladi.

- **qadriyatlar.** Millatning madaniyat va tsivilizatsiya jihatidan yaratgan barcha boylik va ma'naviy merosini ifodalaydi. Shu bilan birga ular muayyan millatning qadr-qimmatini, dunyodagi o'rnini va salohiyatini ham namoyon qiladi. O'z qadriyatlarini ko'z qorachig'idek saqlash, asrab-avaylash va kelajak avlodlarga etkazish millatga mansub har bir kishi va avlod uchun ham qarz, ham farzdir.

11,2 Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik. Jahonda 1600 dan ortiqroq millat yashaydi. Ular uchun bizning Ona sayyoramiz umumiy vatan bo'lib hisoblanadi. Ana shu umuminsoniyat jamoasining hamjihat yashashi, birgalikda va yonma-yon faoliyati natijasida butunjahon madaniyati va tsivilizatsiyasi shakllangan.

Shu bilan birga, muayyan hudud, davlat va mintaqalarda ham bir qancha xalqlarning azal-azaldan yonma-yon yashab kelayotganligining guvohimiz. Albatta, ular orasida tabiiy ravishda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar jarayoni boradi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, umuminsoniy va baynalmilal madaniy tamoyillar asosida amalga oshadi. Madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o'rtasidagi umumiy jihatlarning kamol topishiga olib keladi. Ana shu umumiylik bilan alohidalik, ya'ni butunjahon madaniyati va biror-bir xalqqa xos bo'lgan madaniyat o'rtasidagi muntazam aloqa ham insoniyat tarixi va taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Bu sohada umumbashariyatga xos bo'lgan jihatlarni biz madaniyatdagi umuminsoniylik, millatning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarni esa madaniyatning milliyligi deb ataymiz. Aslida esa milliylik va umuminsoniylik bir butun madaniyatning ikki tomoni, bir-birini taqozo etuvchi jihatlardir. Madaniyat ana shu ikki jihatning uzviy aloqasi va bir butunligi orqali namoyon bo'ladi. Milliylik —

madaniyatning joni, uning millat bilan bog'liq yashash usuli, millatning unda namoyon bo'ladigan ruhidir. Umuminsoniylik esa madaniyatning butun jahonga xosligi, ana shundan kelib chiqadigan umumbashariy xususiyatlari, jamiyat rivojining barcha davr va hududlarga xos umumiy tamoyillaridir.

Milliy madaniyatlar bir-birini boyitadi. Ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir tabiiy ravishda xalqlar va millatlarning bir-biri bilan iqtisodiy, siyosiy, axloqiy sohalaridagi hamkorligi uzviy bog'liqdir. Biroq bir milliy madaniyatni boshqa xalqlarga zo'rlab targ'ib etish, joriy qilish ijobiy natijalarga olib kelmaydi.

Milliy madaniyatning gullab-yashnashi xalqlarning tsivilizatsiyalashgan taraqqiyot yo'lidan borishi va o'ziga xos tsivilizatsiya yaratishida muhim ahamiyatga ega.

Tsivilizatsiya tushunchasi alohida olingan bir xalq, hudud, jamiyat, davlat va hatto jahonga, ularning ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining muayyan bosqichiga nisbatan ham qo'llanildi. «Tsivilizatsiya» lotincha «tsivilius» so'zidan olingan bo'lib, aynan «fuqarolikka oid» degan ma'noni anglatadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda tsivilizatsiyaga turlicha ta'riflar berilyapti: tsivilizatsiya-madaniy-texnik taraqqiyotning yuqori bosqichi (bunda yozuvning kashf etilishi, texnik kashfiyotlar, sanoat inqilobi tsivilizatsiyaning muhim belgisi sifatida talqin etiladi); tsivilizatsiya — jamiyatning muayyan namunasi (bunda u formatsiya tushunchasi bilan aynanlashtiriladi); tsivilizatsiya — insoniyatning yovvoyilik va vahshiylikdan keyingi taraqqiyot davri.

Tsivilizatsiya rivojlanishning muayyan bir bosqichida turgan xalq va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi sifatiiy o'ziga xosligidir. Ayrim tadqiqotchilar tsivilizatsiya asosini madaniyat, xalq, hudud bilan bog'lasalar, boshqalari dinni asos qilib oladilar. Aslida esa ularning hammasi ham tsivilizatsiyaning taraqqiyotida o'z o'rniga ega.

Ammo tarix taqozosi bilan muayyan hududda shakllangan tsivilizatsiyaga goh tabiiy muhit, gohida ijtimoiy shart-sharoit ko'proq ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Masalan, bizning Vatanimiz tsivilizatsiyasida bu omillarning barchasi o'ziga xos ahamiyat kasb etganini ko'ramiz. Shu bilan birga, yurtimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va tsivilizatsiyalashgan taraqqiyotida dunyoviy ilmlar qatorida turli diniy ta'limotlar ham o'ziga xos o'rin tutgan.

Vatanimiz tarixining keyingi uch ming yiliga nazar tashlasak, dunyoviy bilimlar va diniy qarashlar yonma-yon yashab kelganining guvohi bo'lamiz. Xalqimiz «Avesto»ni yaratgan davrlardan tortib bizning kunlargacha ana shu umumiy tamoyil o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Ularning biri mutlaqlashtirilgan davrlarda madaniy taraqqiyot qanday aziyat chekkan bo'lsa, ikkinchisi tahqirlangan zamonlarda ham ana shunday yo'qotishlar sodir bo'lgan. Tarix bu borada ham buyuk murabbiydir. U bizdan tsivilizatsiyamiz o'tmishini xolisona o'rganish, undan to'g'ri xulosalar chiqarish va o'zimiz uchun saboq olishga undaydi.

11,3 Madaniyat va tsivilizatsiyaning o'zaro bog'liqligi. Tsivilizatsiya madaniy va ma'naviy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga keladi. Tsivilizatsiyalashgan taraqqiyotgina milliy madaniyat ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Milliy madaniyat tsivilizatsiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Milliy madaniyatdan

uzilib qolgan tsivilizatsiya oxir-oqibatda inqirozga mahkum bo`ladi. Masalan, hozir yo`qolib ketgan Amerikadagi mayya tsivilizatsiyasi bunga misol bo`ladi. Ulardan bugun yuzdan ortiq shaharlar vayronalari qolgan. Bunga tarixdan yanada ko`plab misollar keltirish mumkin.

Tsivilizatsiyaning tarixiy shakllari. Tsivilizatsiyalar o`z shakliga ko`ra Sharq va G`arb tsivilizatsiyalari, xristian va musulmon tsivilizatsiyalari, xududiy va jahon tsivilizatsiyasi kabilardan iborat. Sharq tsivilizatsiyasiga xos bo`lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ko`rsatish mumkin:

- Sharqdagi barcha dunyoviy, diniy va falsafiy ta`limotlar tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lishni, sabr-toqatlilikni targ`ib etgan;
- Odamlar orasida bag`rikenglik, birdamlik va hamjihatlik ruhi kuchli bo`lgan;
- Milliy qadriyat va an`analar e`zozlangan;
- kattalar va ota-onaga hurmat bilan qarashga alohida e`tibor berilgan.

O`zbekiston Sharq tsivilizatsiyasi bag`rida rivojlandi. Vatan va onaning muqaddasligi, jamoaviylik, o`zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, kattalarga hurmat, kambag`alparvarlik kabilar Sharq tsivilizatsiyasiga xos belgilardir.

O`zbekiston jahon tsivilizatsiyasi taraqqiyotiga ilm-fan, axloq, din, san`at, madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa ko`shdi. Milliy mustaqillik yillarida o`ziga xos taraqqiyot yo`lidan borayotgan O`zbekiston o`z milliy qadriyatlari, ma`naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib, G`arb va Sharqning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o`zlashtirib, dunyoviy tsivilizatsiya yo`lidan bormoqda.

11.4. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot mezoni. Hozirgi zamon tsivilizatsiyasi o`ziga xos xususiyatlar va muammolarga ega. Bunda eng muhimi jahon tsivilizatsiyasini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirishdir. Jahon tsivilizatsiyasini tanazzulga olib keladigan qator tahdidlarni bartaraf etishda quyidagilar nihoyatda katta ahamiyatga molik:

- insonni oliy qadriyat sifatida e`tirof etish;
- tabiatni asrab-avaylash;
- ekologik xavfsizlikni ta`minlash;
- ommaviy qirg`in qurollarini yo`q qilish;
- davlatlar, xalqlar o`rtasidagi nizolarni siyosiy yo`l bilan muzokaralar orqali hal etish;
- turli jinoiy uyushmalarga barham berish, xalqaro terrorchilik va giyohvandlikka, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish;
- kishilarda yangicha dunyoqarash va siyosiy tafakkurni shakllantirish.

Bunday muammolarni oqilona hal etish uchun turli mamlakat, mintaqa va xalqlar o`rtasida umumiy hamjihatlik va hamkorlikka bo`lgan intilish tobora ortib bormoqda. Islom Karimovning qator asarlari va nutqlarida ta`kidlanganidek, ayrim mintaqalardagi mojaro va ziddiyatlar o`z vaqtida oqilona hal etilmasa, jahon tsivilizatsiyasi rivojiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Turli falsafiy tizimlarda dunyoning ijtimoiy-madaniy taraqqiyot mezoni turlicha talqin etib kelindi. Xususan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, texnik

va texnologik yutuqlar, tabiiy-geografik omilga ijtimoiy-madaniy rivojlanish mezonini sifatida qaraldi. Hozirgi paytda qator falsafiy adabiyotlarda shaxs ma'naviyati va uning erkinlik darajasi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot mezonini sifatida ko'rsatilyapti.

Jamiyat taraqqiyotiga tsivilizatsiyaviy yondashuv. Falsafa tarixida jamiyat rivojiga turlicha yondashishlar vujudga keldi. Bular — formatsiyaviy yondashuv, ko'pvariantli yondashuv, tsivilizatsiyaviy yondashuv kabilardir. Ijtimoiy amaliyot, tarix tajribasi insoniyat jamiyati taraqqiyotiga formatsiyaviy yondashishning biryoqlama, sun'iy ekanini ko'rsatdi. Hozirgi zamon G'arb falsafasida U. Rostouning iqtisodiy rivojlanish nazariyasi keng yoyildi. O. Toffler nazariyasiga ko'ra, butun insoniyat tarixi uch katta davrga — agrar jamiyat, sanoat jamiyati va postindustrial jamiyatga (axborot jamiyatiga) bo'linadi.

Ijtimoiy taraqqiyotga tsivilizatsiyali yondashish har bir xalq, mamlakat, mintqa taraqqiyotiga noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Bunday yondashish mohiyatan formatsiyaviy yondashishga ziddir. Tsivilizatsiyali yondashish har bir milliy madaniyatning o'ziga xosligini, noyob va betakrorligini saqlagan holda ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy yo'ldan borishini e'tirof etadi va jahon tsivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadi. Ijtimoiy taraqqiyotga tsivilizatsiyali yondashishning mohiyati, xususiyatlari va mazmuni Prezident I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» va boshqa asarlarida o'z ifodasini topdi.

Falsafa va madaniyatshunoslik. Madaniyatshunoslik falsafaning mustaqillik yillarida mamlakatimizda keng taraqqiy etayotgan falsafiy fan sohalaridan biridir. Sobiq Ittifoq davrida bu fan umuminsoniy ma'noda o'qitilmas edi. Aslida esa, jahon falsafasida madaniyat to'g'risidagi alohida bir fanning vujudga kelgani madaniyatning inson va jamiyat hayotida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Falsafa madaniyatdagi rang-baranglikni e'tirof etadi, madaniyatning universal xarakterga ega bo'lgan tarixiy namunalarini bir-biridan farqlaydi.

O'zbekistonning tsivilizatsiyaviy taraqqiyoti nihoyatda ko'p qirrali masaladir. Biz avvalroq ham bu to'g'rida qisman fikr yuritdik. Keyingi boblarda ham, ana shu to'g'rida, muayyan masalalarni tahlil etish asnosida, ba'zi fikrlarni bayon etishga harakat qilamiz. Bunday eng asosiy tamoyil quyidagi haqiqatni e'tirof etish bilan bog'liqdir: Milliy davlatchilik asoslarini yaratmay va uning qudratiga tayanmay turib tsivilizatsiya yo'ldan borib bo'lmaydi. Har bir xalq o'z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, milliy madaniyati va intellektual salohiyatiga mos ravishda o'z milliy davlatchiligini yaratadi. Ijtimoiy, siyosiy va huquqiy madaniyat bunday tsivilizatsiyaviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

Respublikamizning jahon tsivilizatsiyasiga xos yo'ldan borishi umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy qadriyatlarga sodiqlik, insonparvarlik va vatanparvarlikning uyg'unligi, xalqaro qonun-qoidalar va andozalarni hurmat qilish, ulardan hayotimizning barcha sohalarida keng foydalanishni taqazo etmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatning tsivilizatsiyali taraqqiyot tamoni borishi I. Karimov tomonidan asoslab berilgan O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'lining butun jahonda e'tirof etilayotganligida yaqqol ko'rinmoqda. Bu ma'noda taraqqiyotning o'zbek modeli deb nom olgan rivojlanish tamoyili mamlakatimiz tsivilizatsiyali taraqqiyotining asosiy jihatlarini o'zida ifodalaydi.

Milliy mustaqillik yillarida madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollari uchun puxta zamin yaratildi. Bu, avvalo quydagilarda namoyon bo'ladi:

- boy madaniy merosimizni har tomonlama chuqur o'rganish imkoniyatlarining yaratilganligida;

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilganligi va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotganida;

- milliy madaniyatlarning ravnaq topishi va bir-birini boyitishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganida;

- jahon madaniyati rivojiga ulkan xissa qo'shgan ulug' ajdodlarimiz merosini keng targ'ib etishda;

- mamlakatimizda ilm-fan va texnika salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganida;

- inson intellektual salohiyatining ortib borayotganida, yurtimiz obodonchiligi yo'lida ko'plab tadbirlarning amalga oshirilayotganida.

Istiqlol va milliy madaniyat rivoji. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonda yashayotgan barcha xalqlar madaniyatini rivojlantirishga, ularning madaniy merosi va qadriyatlarini asrab-avaylashga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu jihatdan respublikamizda ozchilikni tashkil etadigan xalqlar milliy madaniy markazlarining tashkil etilishi katta ahamiyatga egadir. 1991 yilda bunday markazlarning soni o'ntaga etmagan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 100 ortib ketdi. 1992 yilda mazkur markazlar ishini muvofiqlashtirib turadigan tashkilot - Respublika baynalmilal madaniyat markazi tuzildi.

O'zbekistondagi turli xalqlar va millatlarning umumiy g'oya va istiqlol mafkurasi atrofida birlashishi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi va O'zbekistonning jahon tsivilizatsiyasi tomon rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliylik, umuminsoniylik g'oyalarini uyg'unlashtirish va yanada takomillashtirish muayyan xalqlarga tegishli madaniyatning o'ziga xosligini saqlaydi. Vatanimiz madaniyatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvor mavqeni egallaydi. Umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarning shakllanishi milliy madaniyatlarning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Umuminsoniy qadriyatlar insonni e'zozlash, hayotni sevish, burch, sadoqat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma'rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do'stlik, hamkorlik singari fazilatlarni ifoda etadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, biron bir milliy madaniyatni ulug'lab, uni boshqa madaniyatdan ustun qo'yish va boshqa xalqlarga majburan targ'ib etish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ko'pmillatli mamlakatda milliy madaniyatlarni mensimaslik yoki ularni kamsitish ijtimoiy barqarorlik va milliy totuvlikka putur etkazadi, turli ziddiyat va ixtiloflarning paydo bo'lishi uchun zamin yaratadi. Bu borada milliy g'oya va istiqlol mafkurasi asoslarini ishlab chiqishda etnik xususiyatlarni hisobga olish ularni respublika taraqqiyotining istiqbollari bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi.

Mavzuning tarbiyaviy ahamiyati. Madaniyat va tsivilizatsiyaning asosiy tamoyillari, qonuniyat va xususiyatlarini bilish — ma'naviy kamolot manbaidir. Bu esa madaniyat va tsivilizatsiyaning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur idrok etish barkamol inson shaxsini shakllantirishda katta

ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni yuksak madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yuksak madaniyatli insonni tarbiyalash, qonunchilikka amal qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan, demokratik jamiyat talablariga rioya qiladigan barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, madaniyat va tsivilizatsiya bir-birini taqozo etadigan, shaxs va jamiyatni yanada takomillashtirish uchun xizmat qiladigan va ayni vaqtda, ijtimoiy borliqning tub asosini tashkil etadigan hodisalardir. Milliy mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar mamlakatimizning tsivilizatsiyali taraqqiyoti uchun puxta zamin yaratdi.

3.Fan nima? Fan ilmiy bilimlar tizimidir. Fan o'zining ilmiy tushuncha uslublari va metodologiyasiga ega bo'lgan, olamni bilish va o'zlashtirishning maxsus usuli, ilmiy bilimlar tizimidir. Shuningdek, fan ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Fanning mohiyatini inson va jamiyat hayotidagi o'rni bilishda uning quydagi xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir:

- inson faoliyatining o'ziga xos turi;
- alohida ijtimoiy institut sifatida fan ilmiy bilimlar yig'indisi;
- insoniyatning ma'naviy salohiyati, olam, tabiat, jamiyat va inson to'g'risidagi tasavvur va qarashlarni shakllantiradi;
- olamni o'zlashtirish va o'zgartirish vositasi hisoblanadi.

Fanning maqsadi. Fan o'z oldiga ilmiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo'yadi. Ilmiy faoliyat moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyatidan keskin farq qiladi. Kishilar mehnat faoliyati, siyosat, san'at, din va hokazo sohalaridagi faoliyatlari jarayonida ham bilim orttiradi. Lekin ilmiy bilimlar izchilligi, tizimlilik va haqiqiyligi bilan ajralib turadi.

Olamni ilmiy bilish olamga yangicha munosabat, yangicha qarashni taqozo etadi. U olamni diniy, badiiy, axloqiy, siyosiy bilishdan keskin farq qiladi. Voqelikka ilmiy munosabat har qanday aqidaparastlik va fanatizmni (taqdiri azalga ishonishni) istisno etadi. Ilmiy bilish avval boshdanoq falsafiy dunyoqarash bilan uzviy bog'liq ravishda vujudga keldi. Falsafa ilm-fan xulosalariga tayanib, olamning yangicha manzarasini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Ilmiy bilishning darajalari empirik (tajribaga asoslanuvchi) va nazariy shakllarga bo'linadi. Empirik bilim asosan tajriba va eksperimentlar jarayonida olinadigan va haqiqiyligi tajribalar jarayonida sinab ko'rilgan bilimlardir. Bilishning nazariy darajasida ilmiy qarashlar, bilimlar qat'i tizimga solinadi. Ilmiy tushunchalar qat'iy mezon asosida o'rganilayotgan fanning ko'pqirrali tomonlarini chuqurroq va to'laroq bilishga imkon beradi.

Ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab, fanlar eksperimental va fundamental fanlarga ajratiladi. Shuningdek, ular o'rganish ob'ektiga qarab, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga bo'linadi. Tadqiqot predmetini chuqurroq o'rganish jarayonida fanning yangi soha va tarmoqlari vujudga keladi. Masalan, tabiyatshunoslik fanlarining botanika, zoologiya, kimyo, matematika, fizika kabi

sohalari; ijtimoiy-gumanitar fanlarning tarix, qadimshunoslik (arxeologiya), etnografiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, etika, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalari vujudga keldi. Ularning har biri yana qator tarmoqlardan iboratdir. Masalan, tarix fanining qadimgi dunyo tarixi, o`rta asrlar tarixi, yangi zamon tarixi; falsafaning ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, falsafa tarixi kabi.

Insoniyatning keyingi ikki yuz yillik tarixi davomida tabiatni o`zlashtirish, inson mohiyatini bilish, jamiyatni takomillashtirish borasida erishgan yutuqlari fan taraqqiyoti bilan bevosita bog`liqdir. Inson tabiiy va ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashish, tabiatning stixiyali kuchlari oldida ojiz va chorasiz bo`lib qolmaslik uchun fanga murojaat qiladi. Shuningdek, u fan tufayli ijtimoiy munosabatlarni o`z maqsad va manfaatlariga mos ravishda takomillashtiradi. Fanning ilmiy bilimlar tizimi sifatida vujudga kelishi inson ehtiyojlari bilan bog`liq bo`ldi.

Fanning vujudga kelishi to`rtinchi asrda turlicha qarashlar. **evropatsentrizm va Osiyotsentrizm.** Fanning vujudga kelishi va rivojlanishida G`arb va Sharq mamlakatlari qo`shgan hissalarini biryoqlama tavsiflash, ularning bir-biriga ko`rsatgan o`zaro ta`sirini inkor etish ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojida evropatsentrizm va osiyotsentrizm oqimlarini vujudga keltirdi.

Qadimgi Sharq jahon madaniyati va tsivilizatsiyasining beshigi bo`lgani, dastlabki ilmiy bilimlar sharq mamlakatlarida vujudga kelgani jahon olimlari tomonidan e`tirof qilingan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, Misr, Xorazm, Baqtriya, So`g`diyona, Shosh, Afrosiyob) astronomiya, matematika, tabobat, falsafaga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelishi kundalik hayotiy ehtiyoj, dehqonchilik rivoji, inson salomatligini muhofaza qilish bilan bevosita bog`liq bo`lgan. Yil fasllarining almashuvini bilish zarurati astronomiyaga oid ilmiy bilimlarni rivojlantirishga olib kelgan.

Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan tabiat va borliqqa ongli munosabat, tabiat va insonni qadrlash hissi shakllangan. Ilmiy va falsafiy tafakkur insonning tabiat va jamiyatga biryoqlama qaramlikdan ozod bo`lishiga, mehnat tufayli borliqqa faol munosabatda bo`lishiga imkon bergan. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan mutafakkirlarning olam, odam va tabiatga bo`lgan falsafiy qarashlari «Avesto»da, hikmat, maqol va rivoyatlarda o`z ifodasini topdi.

Qadimgi yunonlarning sharq mamlakatlari bilan savdo munosabatlari ilmiy-madaniy sohalaridagi aloqalari uchun keng yo`l ochgan. Qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ilmiy bilimlarning rivojlanishi uchun qulayliklar yaratgan. Qadimgi yunonlar eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda ilmiy bilimlarni tizimlashtirdi va tasnif qildi. Evklid, Arximed, Fales, Arastuning ilmiy bilimlar rivojidadagi xizmatlarini alohida ta`kidlash joiz.

Qadimgi yunon olimlari ko`proq tabiat va koinot sirlarini bilishga, kuzatish va mantiqiy fikrlash vositasida olamning sodda, biroq diniy- mifologik qarashlardan farqli manzarasini yaratishga, borliqqa ozod va erkin inson ko`zi bilan qarashga intilgan. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik, hurfikrlilik turli falsafiy oqim va maktablarning shakllanishiga olib kelgan.

Antik dunyo yaratgan fan va falsafa o`rtasidagi hamkorlik, bir-biriga ko`rsatgan barakali ta`sir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy faoliyatida yangi bosqichga ko`tarildi. Ularning ilmiy qarashlari hozirgi zamon fanining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan.

Qadimgi Rim imperiyasining qulashi nafaqat siyosiy balki ilmiy-madaniy sohada ham tanazzulni kuchaytirgan. Biroq ilmiy-falsafiy tafakkur butunlay to`xtab qolmagan. Qadimgi yunonlarning ilg`or falsafiy va ilmiy an`analari Markaziy Osiyoda yanada rivojlandi va fan sohasiga yangi kashfiyotlar berdi.

IX-XII asrlarda arab xalifalari Xorun ar-Rashid, uning o`g`li Ma`mun va Xorazmshoh Ma`munning homiyligida o`sha davrning o`ziga xos fanlar akademiyalari vujudga kelgan. Xususan, IX asr o`rtalarida Bag`dodda «Bayt al-hikma» (Donishmandlar uyi), Xorazmda Ma`mun akademiyasi vujudga keldi. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino kabi allomalar matematika, astronomiya, meditsina, jamiyatshunoslik va siyosatga oid fanlarni rivojlantirdilar.

Sharqda ilmiy bilimlar rivoji diniy aqidalarni inkor etmagani holda insonni yanada kamol toptirishga, borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslangan edi. Sharqlik olimlar qadimgi yunon olimlarining ilg`or an`analarini davom ettirgan, ilmiy bilishning yangi usullarini taklif etgan. Sharq ilmiy tafakkuri barkamol insonni shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirish, tabiat sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan edi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg`or ilmiy qarashlari va asarlari evropada ilm-fan rivojida katta ahamiyatga ega bo`lgan. evropaliklar Albaron (Al-Beruniy), Avitsenna (Ibn Sino), Al-Ferganus (Al-Farg`oniy), Ulu`bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o`rgangan, ularning an`analarini davom ettirgan. Buyuk ital`yan mutafakkiri Dante Aleg`eri «Ilohiy komediya» (XVI asr) asarida Markaziy Osiyodan etishib chiqqan mutafakkirlarni jahonning buyuk allomalari sifatida ulug`ladi.

Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo`shgan hissalar matematika, algebra, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, geografiya, tabobat, tarix, tilshunoslik, mantiq, falsafa rivojida yaqqol ko`zga tashlanadi. Muso Xorazmiy matematikaning yangi sohasi bo`lgan algebraga asos soldi. Ibn Sino o`zining «Tib qonunlari» asari bilan tabobatni ilmiy asosda rivojlantirdi va uning asarlari evropada ko`p asrlar davomida muhim qo`llanma bo`lib keldi. Mirzo Ulug`bekning astronomiyaga oid «Zichi jadidi Ko`ragoniy» asari fanga qo`shilgan muhim hissa bo`ldi. U hozir ham o`z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Mavjud adabiyotlarda ta`kidlanishicha, evropada fanning alohida faoliyat shakli sifatida rivojlanishi XVI-XVII asrlarga to`g`ri keladi. Bu davrda Iogann Kepler, Galileo Galiley, Jordano Bruno, Isaak N`yutonning asarlari vujudga keldi. Buyuk ingliz mutafakkiri Frensis Bekon, frantsuz olimi Rene Dekart ilmiy bilish uslublarini ishlab chiqdi. Ular fanning tabiatni o`zlashtirish va jamiyatni takomillashtirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berdilar, «Bilim — kuchdir» shiorini ilgari surdilar.

Bu davrda fan va falsafa bir-biridan keskin ajralmagan edi. Olimlar o`z asarlarini «pozitiv eksperimental falsafa» deb atar edilar. evropada ilm-fan rivoji kishilarning olam to`g`risidagi qarashlarini tubdan o`zgartirdi. Olamga dunyoviy fanlar nuqtai

nazaridan qarash imkoniyati vujudga keldi, ya'ni olamga biryoqlama diniy qarashdan keskin farq qiladigan ilmiy qarash shakllandi.

Jahon fanining vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq olimlari munosib hissa qo'shganlar. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir davrlarida Sharq jahon fani rivojida etakchi mavqeni egallagan bo'lsa, taraqqiyotning keyingi bosqichlarida boshqa mamlakatlar etakchi mavqeni egallagan.

Osiyo va evropa mamlakatlari xalqlarining jahon fani rivojidagi o'rni va nufuzini biryoqlama bo'rttirish yoki kamsitish nazariy jihatdan xatodir. Fan o'z mohiyati bilan umumbashariydir. er yuzidagi har bir xalq katta-kichikligidan qat'i nazar, unga o'z hissasini qo'shib keldi.

XIX asrning o'rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyutsion nazariya, hujayra nazariyasi, energiya saqlanishi va o'zgarishi qonuni) falsafiy dunyoqarashning o'zgarishiga, jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi.

XIX asrning oxirlariga kelib, fanning muhim sohalarida erishilgan yutuqlar fan taraqqiyotida yangi davr boshlanganidan dalolat berdi. Fizika sohasida optika, termodinamika, elektr va magnetizmning o'rganilishi, kimyo sohasida kimyoviy birikmalar xossalari o'rganilishi, Mendeleev elementlar davriy tizimining yaratilishi, matematikada analitik geometriya va matematik analiz kabilarda yaqqol ko'rindi. Bu davrda sotsiologiya mustaqil fan sifatida rivojlanishi ijtimoiy ziddiyatlarni oqilona hal etish va jamiyat istiqbollari belgilash imkonini berdi.

evropa olimlarining tabiatshunoslik fanlari sohasida erishgan yutuqlari yangi falsafiy ta'limotlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Xususan, I. N'yuton tomonidan fizika sohasida qilingan kashfiyotlar tabiat va jamiyatning mexanistik manzarasini yaratishga, Charl'z Darvinning ilmiy kashfiyotlari esa, butun olam evolyutsiyasi, olamning yaxlit birligi, organik va noorganik tabiat hamda jamiyatning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi. O'z vaqtida ham tabiatshunos, ham faylasuf bo'lgan R. Dekart, F. Bekon tomonidan ilmiy bilish metodlarining, fanning buyuk o'zgartuvchilik va yaratuvchilik qudratining falsafiy asoslanishi keyingi davrlarda fan va falsafa metodologiyasi uchun mustahkam zamin yaratdi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jadidchilik harakatining etakchilari Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar o'lkada ilm-fan va ma'rifatni keng rivojlantirish g'oyasini ilgari surdilar. O'lkaning o'rta asrchilik bid'atlariga qarshi mavjud siyosiy tuzumni isloh qilish zarurligini anglab etdilar. Jahonning ilg'or fan va texnika yutuqlaridan o'lka aholisini bahramand etishga harakat qildilar. Biroq keyingi ijtimoiy silsilalar oqibatida jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari rivojlana olmadi.

Mustabid tuzum xalqimizning ilm-fan va zamonaviy texnika sirlarini egallashi uchun ma'lum shart-sharoit yaratgan bo'lsa ham, uning boy ma'naviy merosidan bahramand bo'lishi, ajdodlarning ilg'or ilmiy-madaniy an'analarini rivojlantirishga imkon bermadi.

Mustaqillik tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy-intellektual merosini o'rganish, jahon ilm-fani va texnikasi yutuqlaridan bahramand

bo'lish, dunyoning mashhur ilm dargohlarida o'qish-o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol insonni shakllantirishda ilm-fan yutuqlariga tayanish hayotiy zaruratga aylandi.

Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» kabi asarlarida ilm-fanni rivojlantirish islohotlar muvaffaqiyatining garovi, moddiy farovonlik asosi ekanini har tomonlama isbotlab berdi. O'zbekistonning jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, taraqqiy etishi, shubhasiz, uning ilm-fan salohiyatiga bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda 1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan mutaxassis-kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi.

Hozirgi zamon fanining muhim xususiyatlari. XX asr boshlariga kelib, uning har tomonlama rivojlanishi fanning ijtimoiy ong tizimidagi o'rni va ahamiyatini yangicha tushunishni taqozo etdi. Hozirgi zamon faniga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin:

- fan o'zining o'rganish sohalarini kengaytirib, mikroolam, makroolam muammolarini o'rganish bilan shug'ullana boshladi. Mikro- va makroolamni o'rganish uchun fan an'anaviy usullardan tashqari, yangi usullardan, maxsus asboblardan, matematik modellash tirish usulidan foydalana boshladi;

- ilmiy bilishning sub'ektiv jihatlariga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu esa mutaxassisning o'rganayotgan sohasini chuqurroq va kengroq bilishini taqozo etdi;

- falsafa va fanda olamdagi narsa-hodisa va jarayonlarning qonuniyat va tartib asosida ro'y berishi to'g'risidagi qarashlardan farqli ravishda rivojlanish tartib va tartibsizlik birligidan iborat ekani e'tirof qilina boshlandi;

- fan taraqqiyoti milliy doiradan chiqib, tobora baynalmilal xarakter kasb eta boshladi. Uning yutuqlari butun insoniyatning mulki sifatida anglana boshladi;

- fanning insonparvarlik va taraqqiyparvarlik mohiyati to'laroq namoyon bo'ldi;

- fanning rivoji olimlarning qadriyatlarini e'zozlash va baholashda yangicha mezonlarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Bu olimlarning biror-bir fan sohasini yakka hukmronlik bilan egallab olmasligi, ilmiy yangiliklarni boshqalardan yashirmasligi, ko'chirmachilik qilmasligi, o'z qadr-qimmatini toptamasligi kabilarda namoyon bo'ldi;

- jahon miqyosida ilmiy salohiyatni, ilm-fan yutuqlarini boshqa mamlakatlarga chiqarish moddiy ne'matlar chiqarishdan ko'ra foydaliroq bo'lib qoldi. Bu esa jahon miqyosida informatsion jamiyatni, insoniyatning bir butun hamjamiyati shakllanishining muhim omillaridan biri bo'lib qoldi;

- tabiiy va ijtimoiy fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligi, ta'siri kuchaydi. Tabiiatshunos olimlarning ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanishi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni insoniylashtirishda, tabiatni muhofaza etishda muhim ahamiyat kasb etdi;

- fan umumbashariy va umuminsoniy muammolarni hal etish bilan jiddiy shug'ullana boshladi;

- fan insoniyat hayotidagi qator muammolarni hal etibgina qolmay, uning hayotiga jiddiy tahdid soladigan muammolarni ham keltirib chiqardi. Olimning o'z ilmiy faoliyati uchun javobgarligini oshirish, insoniyat hayoti, tinchligi uchun tahdid soladigan ilmiy izlanishlarni taqiqlash, nazorat qilish hozirgi zamon fanining muhim muammolaridan biridir.

Istiqlol va fan. O'zbekistonda milliy mustaqillik sharoitida mamlakatning ilmiy-intellektual salohiyatini yanada kuchaytirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Prezident I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida hamda nutq va maqolalarida mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Ayniqsa, jahon ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganish va ularning an'alarini rivojlantirish maqsadida Xorazmda Ma'mun akademiyasining qaytadan tiklanishi madaniy hayotimizdagi ulkan voqea bo'ldi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalarining tarkibiy tuzilishida muhim o'zgarishlar qilindi, zamon talablariga javob beradigan yangi oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etildi. Talabalarni oliy o'quv yurtlariga qabul qilishning ilg'or usullari, yangi pedagogik texnologiyalar joriy etildi.

O'zbekistonda ilm-fan kishilarining malakasi, bilimini oshirishga ko'maklashadigan jamg'armalar tashkil etildi. Fan rivojining huquqiy asoslari yaratildi, ilm-fan xodimlarini ijtimoiy himoyalashga e'tibor kuchaytirildi.

Fan taraqqiyotida an'anaviylik va yangilanish jarayoni dialektikasini bilish, bu jarayonni O'zbekiston sharoitida yanada rivojlantirish davr talabidir. Fandagi an'anaviylik, bir tomondan, uni tarixiy ildizlaridan uzilib qolishdan saqlasa, ikkinchi tomondan, mamlakat taraqqiyoti yo'lida paydo bo'lgan muammolarni an'anaviy usullar bilan hal etish uning hayotdan ajralib qolishiga olib keladi. Fan taraqqiyotida an'anaviylik va yangilikni (novatorlik) uzviy bog'lash muhim muammolardan biridir. Boshqacha qilib aytganda, an'analardan butunlay voz kechish ham, an'alar bilan bog'lanib qolish ham fan taraqqiyotiga xalaqit beradi.

O'zbekiston faniga kirib kelgan muhim yangiliklar uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlardan tashqari yana quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- fanning komp'yuterlashtirilishida;
- jahonning global muammolarini hal etishda o'zbek olimlarining faol ishtirok etayotganida;
- ilmiy tadqiqotlarda eng zamonaviy texnika, asbob-uskunalar va ilg'or metodlardan foydalanilayotganida;
- olimlarimizning jahon tillarini o'rganishga rag'batlantirilishida;
- jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari oliy o'quv yurtlarida mutaxassis-kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilganligida;
- ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh qilinayotganida.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy vazifalarni hal etishda fanning asosiy vazifalari

Prezident I.A. Karimovning asarlarida batafsil tavsiflab berildi. Fanning siyosat, madaniyat bilan bog'liqligi, demokratik jamiyatda uning tayanch qadriyat ekanligi har tomonlama asoslandi.

Fanning rivoji o'z oldiga qo'ygan muammolarni hal etishda ilmiy metodlardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi davrda amaliy va nazariy tadqiqotlar o'tkazishda quyidagi usullardan keng foydalanilmoqda: kuzatish, qiyoslash, tavsiflash, formallashtirish, modellashtirish va boshqalar.

XX asr fan-texnika inqilobi insoniyatning moddiy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Insonning tabiat taqdiri uchun javobgarlik hissini yanada oshirdi. Fan inson hayotining istisnosiz barcha sohalariga kirib keldi, inson va jamiyat borlig'ining muhim tarkibiy qismiga, bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Shu boisdan ham hozirgi zamon fanini «katta fan» deb atash rasm bo'ldi.

Keyingi yuz yil davomida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi olimlar soni beqiyos darajada o'sdi. Agar XX asr boshlarida butun er yuzidagi olimlar yuz ming atrofida bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda ularning soni besh milliondan ortib ketdi.

Fan va texnika sohasidagi inqilobiy o'zgarishlarni olimlar sonining o'sib borishidagina emas, balki ilmiy kashfiyotlar salmog'i va sifatining muttasil ortayotganida ham ko'rish mumkin. Butun insoniyat tarixida qilingan ilmiy kashfiyotlarni yuz foiz deb oladigan bo'lsak, uning to'qson foizi XX asrga to'g'ri keldi. Ilmiy informatsiyalar har o'n-o'n besh yilda ikki martaga ortib boryapti.

O'zbekistonda keyingi yillarda fanning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan olimlar, ilmiy xodimlar salmog'i ortdi.

Hozirgi davrda O'zbekiston fani rivojlanishi oldida turgan asosiy yo'nalishlar I.A. Karimovning qator asarlarida belgilab berildi. Ulug' ajdodlarimizning ilmiy an'analarini davom ettirish, hozirgi zamon fani va texnikasi yutuqlarini puxta egallash mamlakatimizning yangi asrda jahonning ilg'or mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallashi uchun puxta zamin yaratadi.

Такрорлаш учун саволлар

1. Madaniyat nima?
2. Tsivilizatsiya nima?
3. Madaniyat va tsivilizatsiyaning o'zaro bog'liqligini izohlang.
4. Tsivilizatsiyaning tarixiy shakllari to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekistonning jahon tsivilizatsiyasida tutgan o'rni qanday?
6. Madaniyat va tsivilizatsiya mohiyatini bilish barkamol inson shaxsini shakllantirish manbai ekanligini qanday tushunasiz?
7. Fan nima?
8. Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo'shgan hissalarini to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. Fan va falsafaning o'zaro bog'liqligini izohlang.
10. O'zbekiston mustaqilligining fan taraqqiyotidagi ahamiyatini tushuntiring.
11. Fan-texnika inqilobi nimalarda namoyon bo'ladi?
12. Barkamol inson shaxsini shakllantirishda ilm-fan qanday ahamiyat kasb etadi?

АДАБИЁТЛАР

1. Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. — T., «O`zbekiston»; 1995.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O`zbekiston», 1997
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., «O`zbekiston». 1996.
4. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O`zbekiston», 1999.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi — xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., «O`zbekiston», 2000.
6. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., O`zbekiston, 2000.
7. Toynbi A. Postijenie istorii. M., Nauka, 1991.
8. Berdyaev A. Smysl` istorii. M., Nauka 1990.